3. Sabirov B.T., Purkhanatdinov A.P., Erimbetov B.K., Aytjanov O.D., Kalbaev B.A., Reymov B.Q. Study of the chemical-mineralogical composition and properties of the Ushsay bentonite-like clay of Karakalpakstan for obtaining ceramic heat-insulating materials // Science and Education in Karakalpakstan. 2023 №2/2. ISSN 2181-9203 P.105-108.

4. Kutsevol M.L. X-ray method of diagnostics and qualitative phase analysis of minerals. Practical guide to laboratory work in the discipline “Laboratory methods for studying minerals.” Dnepropetrovsk 2012. P. 35p.



ISSN 3030-3907

5. Newbury D., Echlin P., Joy D., Fiori C., Lifshin E. Scanning electron microscopy and X-ray microanalysis. M., 1984. P. 303.
6. Sabirov B.T., Purkhanatdinov A.P., Erimbetov B.K., Aytjanov O.D., Kalbaev B.A., Reymov B.Q. Study of the chemical-mineralogical composition and properties of the Ushsay bentonite-like clay of Karakalpakstan for obtaining ceramic heat-insulating materials // Science and Education in Karakalpakstan. 2023 №2/2. ISSN 2181-9203 P.105-108.
7. ГОСТ 32026-2012. Сырьё глинистое для производства керамзитовых гравия, щебня и песка. – М.: Стандартинформ, 2013. – 12 с.
8. Sabirov B.T., Purkhanatdinov A.P., Erimbetov B.K., Aitzhanov O.D. Исследование и анализ местного глинистого сырья для производства керамзита // Выпуск журнала «Universum: технические науки» 1(130). DOI - 10.32743/UniTech. 2025.130.1, С.20-25.
9. Erimbetov B.K., Sabirov B.T., Purkhanatdinov A.P., Xojabergenov B.M. Technology for producing lightweight concrete from clay obtained from Uchsay bentonite clay // AIP Conference Proceedings, 11 September 2025, Vol. 3347, Pp. 020065-1-6.
10. Еримбетов Б.К., Пурханатдинов А.П., Keramzit ishlab chiqarishda ikkilamchi resurslarni tadqiq etish // “JizPI XABARNOMASI” 2025 yil №3 son. ISSN: 3060-4966. 188-193 b.
11. Purxanatdinov A. P., Erimbetov B. K., "Uchsay bentoniti tiykarinda ekologiyaliq taza qurilis materialin aliw: https://doi. org/10.5281/zenodo. 11221185." International Journal of scientific and Applied Research 1, no. 2 (2024): 46-49.
12. Пурханатдинов А. П., Еримбетов Б. К. Энергия тежамкор материаллар учун учсой бентонити тадқиқ қилиш //Endless light in science. – 2024. – №. 31 декабрь 8. – С. 45-48.


ISSN 3030-3907

# PAYVAND CHOKI VA CHOK ATROFI HUDUDLARNI ULTRATO‘LQINLI ZARBLASH ORQALI YAXSHILANGAN QATLAM XUSUSIYATLARINI MEXANIK, METALLOGRAFIK, RENTGEN TEKSHIRISHLAR ASOSIDA TAHLIL ETISH

**Rustamova Mashhura Umarovna**
*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi*
**Rustamov Farrux Umarovich**
*Navoiy mashinasozlik zavodi muxandisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada metallarning elastiklik xossalarini nazariy va ilmiy tahlil qilish asosida, maxsus laboratoriyalarda past legirlangan metallarning mexanik, metallografik, rentgen tekshirishlar ilmiy xulosalar asosida tahlil qulindi. Payvand choklari uchun namunalar GOST 5640-2020, RD 24.200.04-90 va GOST R 57180-2016 talablari asosida laboratoriyada metallografik tahlillar olib borildi.

**Kalit so‘zlar:** Elastiklik, payvand choki, ichki zo‘riqish, ichki nuqsonlar, quvur termik ishlov berish.

**Аннотация.** В данной статье проведен анализ упругих свойств металлов на основе теоретического и научного анализа, а также результатов механических, металлографических и рентгеновских исследований низколегированных металлов в специализированных лабораториях. Металлографические исследования образцов сварных соединений проводились в лабораторных условиях в соответствии с требованиями ГОСТ 5640-2020, РД 24.200.04-90 и ГОСТ Р 57180-2016.

**Ключевые слова:** Эластичность, сварной шов, внутреннее напряжение, внутренние дефекты, труба, термическая обработка.

**Abstract.** This article analyzes the elastic properties of metals based on theoretical and scientific analysis, as well as the results of mechanical, metallographic, and X-ray studies of low-alloy metals in specialized laboratories. Metallographic studies of welded joint samples were conducted under laboratory conditions in accordance with the requirements of GOST 5640-2020, RD 24.200.04-90, and GOST R 57180-2016.

**Keywords:** Elasticity, weld seam, internal stress, internal defects, pipe, heat treatment.

## Kirish

Sanoatda quvur va uning detallarini tarmoqlarga o‘rnatish uchun yuqori talablar joriy etilgan, quvur tarmog‘ining ulanish sifati, payvand choklarining sifati va mexanik xossalar, tok kuchini tanlash, payvand simlarini tanlash, tashiluvchi mahsulot yoki gazsimon muhitning loyiha bo‘yicha xarakteri, ishchi holatidagi doimiy turg‘un bosimi, minimal va maksimal o‘zgaruvchan bosimi, loyiha bo‘yicha ishchi holatidagi harorati, minimal va maksimal o‘zgaruvchan harorati VSN 2-124-80 va VSN 171-84 yo‘riqnomasining normativ hujjutlarida qayd


ISSN 3030-3907

etilgan. VSN 2-124-80 va VSN 171-84 Respublikamizda faoliyat olib boruvchi yoki loyiha asosida qurilayotgan magistral tarmoqlar yoki shunga o‘xshash bitta tarmoqda ulangan saqlash uchun qurilgan statsionar sig‘imbardosh idishlar va sisternyalar uchun tavsiya etilgan va ushbu yo‘riqnomadan chetlangan holatda magistral tarmoqlar unga ulangan sanoat jihozlarini qurish, payvandlash qatiyan taqiqlanadi.

GOST R 52910—2008 va GOST 5264-80 talablari buyicha S17 payvand choki mustahkamligini aniqlash uchun birinchi navbatda namunaning ko‘ndalang kesim yuzasini hisoblab topishimiz talab etiladi. Namunaning ko‘ndalang kesim yuzasini topish uchun namuna balandligi *h*, namuna uzunligi *L* ga ko‘paytirilganda namunaning ko‘ndalang kesim yuzasining o‘lchami kelib chiqadi.

GOST R 52910—2008 katta sig‘imli sanoat idishlari, sisternyalar, rezervuarlar va shularga tenglashtirilgan sanoat jihozlarini payvandlab yig‘ishda ushbu standart orqali payvandlab yig‘ish ishlari amalga oshiriladi.



**1-rasm. Payvand chokini mexanik xossalarini aniqlash.**

Nazariy tahlillar va o‘tkazilgan amaliy tajribalardan bizga ma’lumki, payvandlangan choklardan tayyorlangan namunalarda (1 va 2-rasm) o‘tkazilayotgan mexanik sinovlar jarayonida, namuna qanchalik tez uzilsa demak bundan xulosa shuki, sinalalayotgan namunaning nisbiy cho‘zilish chegarasi shunchalik past deb baholanadi va sanoat jihozlaridagi payvandlangan chokning kuchga va yuqori bosimga chidamlilik chegarasi ham past hisoblanib, ushbu chok loyihada belgilangan yuklama va bosimga bardoshsiz deb baholanadi. Bunda qattiqlik darajasi yuqori bolib, mortlik darajasi ham yuqori bo‘ladi.



ISSN 3030-3907



**a) b) c)**


**2-rasm. Metallografik izlanishlar olib borish uchun namumalar jamlammasi: a) termik ishlov berilmagan namuna; b) termik ishlov berilgan namuna; c) ultra to‘lqinli zarblar bilan ishlov berilgan namuna**

**1-jadval**

**Taqdim etilgan namunalarni nisbiy cho‘zilish chegarasi**

| Nisbiy cho‘zilish chegarasini aniqlash uchun tayyorlangan namunalar soni | Tajribadan so‘ngi erishilgan natijalar qiymati | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Termik ishlov berilmagan namunaning nisbiy cho‘zilish chegarasi, $\sigma_v$, MRa | | | Termik ishlov berilgan namunaning nisbiy cho‘zilish chegarasi, $\sigma_v$, MRa | | | Ultra to‘lqin zarbasi bilan ishlov berilgan namunaning nisbiy cho‘zilish chegarasi, $\sigma_v$, MRa | | |
| 3 | 419 | 415 | 418 | 430 | 427 | 430 | 443 | 441 | 443 |

O‘tkazilgan amaliy tajribalar natijasi shuni ko‘rsatdiki, payvand chokining oxirgi chegarasidan so‘ng ikki tomondan uzunligi 30mm bo‘lgan hududda, issiqlik ta’sirida metal strukturasining o‘zgargan holati kuzatildi va Brinellning HB shkalasi bo‘yicha qattiqlikni ko‘rsatuvchi qiymatlar aniqlandi.




**3-rasm. Payvandlashdan so‘ng issiqlikni tasir etish sxemasi**



ISSN 3030-3907

Magistral quvur tarmoqlarida payvandlash ishlari yakuniga yetkazilganidan so‘ng VSN 2-124-80 va VSN171-84 bo‘yicha buzmasdan turib ichki nuqsonlarni aniqlash jarayoni olib borilishi shart ko‘rsatilgan va ushbu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ranglar yordamida payvand choklarini tekshirish (svetnoy kontrol) agar payvand chokining asosiy metali yuqori legirlangan po‘lat bo‘lsa;
- ultratovush yordamida payvand chokining ichki nuqsonlarini aniqlash (UZK);
- rengen nurlari yordamida payvand chokining ichki nuqsonlarini aniqlash turlariga bo‘linadi (RK).

Olib boriluvchi nazoratlar, magistral quvur tarmoqlarida hosil qilingan payvand choklarini sifatli bo‘lishini ta’minlaydi, ikki quvur chokini birlashtirib elektr yoyli payvand bilan payvandlash jarayonida, yuqori haroratda payvand simlari asosiy metall bilan brikib chok sifatini oshirish imkonini beradi. Payvand choklari va uning atrofida harorat sovishi bilan sovish haroratini to‘g‘ri tanlanmasligi natijasida turli uzunlikdagi yoriqlar va bo‘shliqlar paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham sanoat jihozlarida pavandlash ishlari tugatilgandan so‘ng, payvan choki va uning atrofi ya’ni issiqlik ta’sir etgan hududlarda sovish tezligi belgilangan tartibda, belgilangan tezlikda olib borilishi shart. Talab va javobgarligi yuqori bo‘lgan sanoat jihozlarida payvand simi(elektrod)ni noto‘g‘ri tanlashga yo‘l qo‘yilmaydi. Payvand simini noto‘g‘ri tanlanishi, ikki payvand chok bilan payvand simi o‘rtasida sifatli brikishni keltirib chiqarmaydi, bu holat payvand chokida turli ko‘rinishdagi ichki nuqsonlarni paydo bo‘lishiga olib keladi va bu nuqsonlar (UZK), (RK) orqali aniqlash imkonini beradi.


Payvand quyimlarini asosiy metall bilan (yopishish) brikishi lupa yordamida nazorat qilinadi. Ultra to‘lqinli tebranishlar zarbi bilan ishlov berilgan na’munalarni ham nomlari yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan nazoratlar orqali tahlil qilganimizda ustunlik, termik ishlov berilmagan va termik ishlov berilgan na’munalarning mexanik xossalariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Navoiy mashinasozlik zavodining markaziy laboratoriyasida buzmasdan turib nazorat qilish ishlari barcha namunalar uchun amalga oshirildi. Maxsus lupa yordamida chok brikmalari va issiqlik ta’sir etgan hududlar sirti nazorat qilinib 09G2S metalidan tayyorlangan barcha na’munalar uchun ijobiy xulosalar olindi.

Payvand choklari ultra to‘lqinli tebranishlar zarbi bilan ishlov berilgan namunalar Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shaxridagi Voenmex D. I. Ustinov nomidagi Boltiq davlat texnika universitetining markaziy laboratoriyasida tayyorlandi va rengen nazoratini olib borish uchun Navoiy mashinasozlik zavodining markaziy laboratoriyasi tanlandi. Ushbu laboratoriyada namunani rengen qilish orqali payvand choki va chok atrofida issiqlik ta’sir etgan hududlarni


ISSN 3030-3907

ichki strukturasidagi nuqsonlarning mavjudligi GOST 5264-80 bo‘yicha ilmiy-nazariy tahlil qilinib o‘rganildi.


Ichki nuqsonlar mavjud emasligi, davlat standartlari miyorlariga mos kelishi va termik ishlov berilgan namunaga nisbatan, ultra to‘lqinli tebranishlar zarbi bilan ishlov berilgan namunaning payvand choklari uchun Navoiy mashinasozlik zavodining markaziy laboratoriyasi mutaxasislari tomonidan ijobiy xulosalar olindi.





**4-rasm. Payvand choklarni sifatli bo‘lishini ta’minlovchi omillarning sxematik shakli**

Payvandlab ulash ishlari dala sharoitida olib borilganda, chok va chok atrofi hududlari issiqligini miyoriy hujjatlarda belgilangan tartibda sekin sovitishni iloji yo‘q, bundan xulosamiz shundan iboratki sovish haroratining nomutanosib sovishi natijasida payvand choki va chok atrofi hududlarida ichki zo‘riqish kuchlarining meyoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan meyordan oshishi kuzatiladi. Ushbu xolatni dala sharoitida bartaraf etish uchun chok va chok atrofi hududlari Shmel-2 pribori yordamida ultra to‘lqinli tebranish zarblari bilan ishlov berilganda payvand choki va uning atrofi hududlarida ichki zo‘riqish kuchlarining bartaraf etilganligi Navoiy mashinasozlik zavodining markaziy laboratoriyasida o‘tkazilgan amaliy tajribalarda o‘z tasdiqini topdi (1-jadval). VSN171-84 va GOST 5264-80 talablari asosida payvand choklarini hosil qilish, payvandlashga tayyorlash, magistral quvurlar, katta sig‘imli idishlar va sisternyalarni ishchi chizmalarida konstruktorlar tomonidan ko‘rsatiladi.


ISSN 3030-3907





**5-rasm. Payvandlash jarayonida chokni erish harorati, $\alpha$ burchak chokni qizdirish vaqti $\tau$ ga bog‘liq bo‘lib, $v_x$ qizish tezligining turli qiymatlarda ozgarishini korsatuvchi grafik**




**6-rasm. Payvand choki chuqurligi bo‘yicha haroratning taqsimlanish grafigi**



ISSN 3030-3907




**7-rasm. Harorat tasir etishi natijasida payvand choki atrofi hudularini ranglarga ajralish grafigi**

Namunalarga metallografik ilmiy tahlillar va izlanishlar olib borish uchun “NERIS” dastgohida yakuniy jilvirlash ishlari olib borildi, payvand choki va chok atrofida issiqlik tasir etgan metal strukturasi *METAM PB-23* mikroskopida 100 barobargacha kattalashtirilgan holatda ilmiy asoslar asosida o‘rganildi va quyidagi natijalarga erishildi.



**a) b) c)**

**8-rasm. Termik ishlov berilmagan namunaning metallografik tahlillar uchun ko‘rinishi: a) asosiy metall, b) payvan chokining atrofi issiqlik tasir etgan hudud, c) payvand choki.**



**a) b)**

**9-rasm. Termik ishlov berilgan namuna**



ISSN 3030-3907



**a) b) c)**

**10-rasm. Termik ishlov berilgan namunaning metallografik tahlillar uchun ko‘rinishi: a) asosiy metall issiqlik tasir etmagan hudud, b) payvand chokining atrofi issiqlik tasir etgan hudud, c) payvand choki**



**a) b)**

**11-rasm. Ultra to‘lqinli zarblar bilan ishlov berilgan namuna payvand choki va chok atrofi issiqlik ta’sir etgan hududning ko‘rinishi**



**a) b) c)**

**12-rasm. Ultra to‘lqinli zarblar bilan ishlov berilgan namuna payvand choki va chok atrofi issiqlik ta’sir etgan hududning metallografik tahlillar uchun ko‘rinishi: a) asosiy metall issiqlik tasir etmagan hudud, b) payvand chokining atrofi issiqlik tasir etgan hudud, c) payvand choki**

GOST 5640-2020, RD 24.200.04-90 va GOST R 57180-2016 talablarida keltirilgan normativ hujjatlar bo‘yicha metallografik tahlillarning natijalari ilmiy va nazariy o‘rganib chiqilganda, olingan natijalar quyidagi talablarga javob berishi shart kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan.

**Metallografik mikrotahlillar** - payvand choklari va chok atrofi hududlarini mikrostrukturasi METAM PB-23 mikroskopida 100 barobargacha kattalashtirilib ilmiy taraflama tahliliy kuzatuv ishlari olib borildi. Mikroskop ostidagi payvand choki 100 barobarga kattalashtirilishi natijasida termik ishlov berilmagan namunadagi payvand chokining strukturasi, termik ishlov berilgan va ultra to‘lqinli tebranishlar zarbi bilan ishlov berilgan namunalarning payvand choki



ISSN 3030-3907

hududlarining donalari mayda va teng taqsimlangan donali struktura ekanligi ko‘rsatdi (10, 12 - rasm)lar.

**Xulosa.** Respublikamiz sanoat korxonalarida texnologik jarayonlarida bevosida sutkalik ishtirok etuvchi oddiy tarmoqlardagi quvurlar, magisrral quvurlar va ushbu quvurlarga ulangan katta hajmli hajmbardosh idishlar, sisternyalar, rezervuarlardagi payvand choklari ShMEL-1 va ShMEL-2 rusumli ultra to‘lqinli zarblar hosil quluvchi uskunalar bilan zarb berib ishlansa, mahalliy termik ishlov kabi eskirgan texnologik jarayonlarni olib borilishini bartaraf etishga xizmat qiladi. Sanoat korxonalari uchun ishchi kuchi, elektro-energiyani ortiqcha sarflanishini oldini olib, tejalishiga olib keladi, tebranishlarga bardoshli qovushqoq va elastik payvand choklarini yaralishini ta’minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Васильев А.А. Возникновение колебаний глубины парогазового канала при лучевых способах сварки / А.А. Васильев, В.А. Ерофеев, В.А. Судник // Известия Тульского государственного университета. Технические науки. – 2014. – № 7. – С. 130-141.
2. Судник В.А. Численная модель процесса электронно-лучевой сварки с экспериментальной проверкой / В.А. Судник, В.А. Ерофеев, К.Г. Рихтер, К.У. Хайнс // Известия Тульского государственного университета. Технические науки. – 2008. – № 2. – С. 233-243.
3. Терентьев Е.В. Влияние скорости сварки на формирование шва при ЭЛС со сквозным проплавлением / Е.В. Терентьев, В.К. Драгунов, А.П. Слива, А.В. Щербаков // Сварочное производство. – 2014. – № 2. – С. 25-29.
4. Драгунов В.К. Прогнозирование режимов ЭЛС при изготовлении многошовных конструкций / В.К. Драгунов, М.С. Грибков, В.Н. Мартынов, А.Г. Сысоев // Сварочное производство. – 2015. – № 1. – С. 20-22.


ISSN 3030-3907

# ВЛИЯНИЕ ДЛИТЕЛЬНОСТИ ПРОЦЕССА СИНТЕЗА НА ВЯЗКОСТЬ РАСТВОРОВ СОПОЛИМЕРОВ, СИНТЕЗИРУЕМЫХ ПРИ РАЗНЫХ ТЕМПЕРАТУРАХ АКРИЛАМИДА И АКРИЛОВОЙ КИСЛОТЫ

**Даулетбаева Раушан Кууанышбаевна**
***Институт общей и неорганической химии АН РУз, докторант***
**Абдикамалова Азиза Бахтияровна.**
***Институт общей и неорганической химии, АН РУз, главный научный сотрудник***

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено влияние сроков синтеза мономеров на вязкостные свойства растворов сополимеров акриламида с акриловой кислотой при различных температурах, что позволяет определить оптимальные условия получения сополимеров с высокими структурными свойствами.

**Ключевые слова:** акриламид, акриловая кислота, сополимер, вязкость, синтез, молекулярная масса, время полимеризации.

**Abstract:** This article examines the effect of synthesis time on the viscosity properties of solutions of acrylamide's acrylic acid sopolimers at low temperatures of monomers, which makes it possible to determine the optimal conditions for obtaining sopolimers with high structure-forming properties.

**Keywords:** acrylamide, acrylic acid, sopolimer, viscosity, synthesis, molecular mass, polymerization time.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada monomerlarning tu’rli haroratlarda akrilamidning akril kislotasi bilan sopolimerlari eritmalarining qovushqoqlik xususiyatlariga sintez vaqtining ta’siri ko‘rib chiqilgan, bu esa yuqori struktura hosil qiluvchi xususiyatlarga ega sopolimerlar olishning maqbul sharoitlarini aniqlash imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** akrilamid, akril kislota, sopolimer, qovushqoqlik, sintez**,** molekulyar massa, polimerlanish vaqti.

**Введение.**

Продолжительность процесса синтеза оказывает значительное влияние на молекулярную массу, полидисперсность и структурные свойства образующихся сополимеров, что, в свою очередь, определяет их реологические свойства в водных растворах[1]. С увеличением времени полимеризации увеличивается вероятность образования более длинных макромолекул и образования разветвленной цепной структуры, что способствует увеличению вязкости растворов [2,3]. Но дополнительные процессы, вызванные чрезмерным удлинением времени реакции, то есть


ISSN 3030-3907

разрывом цепей или их связыванием, отрицательно сказываются на реологических свойствах [4].

**Раздел опыта.** Мономеры АА: Ак получали в соотношении (10: 1) и проводили реакцию сополимеризации. Процесс синтеза проводился при четырех разных температурах (45, 50, 55, 60oC). Полученные сополимеры гидролизовали при температуре 50oC в течение 2 часов. Вязкость образующихся растворов полиэлектролитов различной концентрации измеряли в лабораторных условиях при температуре 25oC с помощью вискозиметра Ubbelode. Эксперименты показывают, что сополимеры АА-АК образуют статистические обертки, в которых частичная ионизация карбоксильных групп приводит к расширению цепей (полиэлектролитный эффект). Чем выше молекулярная масса и заряд цепей, тем больше их гидродинамический объем и вклад в вязкость.

**Результаты и обсуждение.** Вязкость водного раствора полимера резко увеличивается с увеличением молекулярной массы (молекулярной массы цепей) [5]. Действительно, полимер с более высокой молекулярной массой при тех же условиях демонстрирует гораздо более высокую вязкость раствора, чем полимер с меньшей молекулярной массой.





**Рис. 1.Зависимость вязкости 0,5% растворов сополимеров АА:АК (10:1) в зависимости от продолжительности синтеза.**


ISSN 3030-3907





**Рис. 2. Зависимость вязкости 0,0125% растворов сополимеров АА:АК (10:1) в зависимости от продолжительности синтеза.**

При синтезе сополимера АА и АК с мольным соотношением мономеров 10:1 (АА:АК) длительность реакции и температура полимеризации оказывают существенное влияние на молекулярные свойства полимера и, следовательно, вязкость его растворов. Общая тенденция заключается в том, что с увеличением времени полимеризации (от 1 до 6 часов) вязкость получаемого полимера увеличивается, особенно при достаточно низких или умеренных температурах синтеза. Эта реакция все больше связана с увеличением средней молекулярной массы и степени полимеризации - цепи успевают становиться длиннее, а превращение мономера в полимер увеличивается. Как видно из рисунков 1 и 2, температура синтеза имеет двойной эффект. С одной стороны, повышение температуры увеличивает скорость инициации и полимеризации, позволяя мономерам достигать более высоких уровней превращений за меньшее время. Следовательно, при более высоких температурах (например, 60 °C) за 1 час может образоваться больше полимера, чем при 45 °C (большее преобразование). Однако, с другой стороны, высокие температуры усиливают процессы разрыва цепей (радикальная терминация и возможная деградация), что приводит к образованию полимеров с небольшой средней длиной цепи. При других равных условиях более высокая скорость образования радикалов при 60 °C означает большее количество одновременно растущих цепей, конкурирующих за мономер, и более частые акты терминации-в результате средняя молекулярная масса может быть ниже, чем при синтезе при 45-50 °C. Например, при 45 °C образец,


ISSN 3030-3907

синтезированный в течение 6 часов, может образовывать сверхвысокомолекулярные цепи, тогда как при 60 ° С короткие цепи могут образовываться в течение 6 часов (несмотря на высокое преобразование). Кроме того, экстремальные условия синтеза (длительное время и высокие температуры) могут привести к дополнительным процессам, таким как частичная деградация или разветвление полимерных цепей. Когда реакционная смесь нагревается в течение длительного времени после завершения мономера, оставшиеся активные радикалы могут рекомбинировать или атаковать образовавшиеся цепи. Кроме того, высокие температуры в присутствии следов кислорода могут вызвать окислительное удлинение макромолекул и их деградацию. В литературе отмечается, что стабильность паа при высоких температурах снижается за счет гидролиза амидных групп и, что наиболее важно, разрыва основных цепей, что приводит к уменьшению молекулярной массы. Разрыв цепей (деградация полимера) приводит к уменьшению молекулярной массы и, как следствие, к снижению вязкости раствора. Так, например, для образцов, синтезированных в течение 6 часов при 60 ° С, может наблюдаться снижение вязкости из-за начала деструкции или образования укороченных/разветвленных цепей по сравнению с образцом, синтезированным в течение 4-5 часов.

Разветвление цепей-еще один фактор, влияющий на вязкость. При радикальной полимеризации АА и Ак разветвление может происходить посредством аддитивных реакций перехода цепи в полимер. При высоких температурах вероятность таких реакций возрастает. Разветвленные макромолекулы будут иметь другую (более компактную) конформацию по сравнению с линейными цепями с аналогичной молекулярной массой. Для той же молекулярной массы разветвленный полимер имеет значительно меньшую внутреннюю вязкость и гидродинамический объем, чем линейный аналог. Другими словами, наличие разветвлений снижает эффективный размер обертки макромолекулы в растворе, что снижает вклад каждой цепи в вязкость. Следовательно, если разветвление происходит в жестких условиях синтеза (например, при высоком Т и длительном τ), вязкость полученного полимерного раствора может быть ниже, чем можно было бы ожидать, исходя только из концентрации или конверсии.

Экспериментальные данные показывают, что различия в вязкости между образцами сополимеров наиболее заметны при концентрации 0,5% раствора и значительно сглаживаются при концентрации 0,0125%. Потому что, когда 0,5% раствор наполовину разбавлен (семь разбавленных) или даже близок к концентрированным растворам, полимерные цепи начинают взаимодействовать.Напротив, 0,0125%-это чрезвычайно разбавленный


ISSN 3030-3907

раствор, в котором каждая макромолекула будет почти изолирована друг от друга в среде растворителя.

При концентрации около 0,5% растворы сополимеров АА-Ак находятся выше критической концентрации покрытия (с*), что приводит к образованию временной сетчатой структуры за счет перекрытия и запутывания макромолекул. Для полиакриламидов с молекулярной массой порядка 106-107 da значение с* составляет около 0,3-0,4%, поэтому даже небольшие различия в молекулярной массе полимера в этих условиях оказывают существенное влияние на вязкость раствора. Высокомолекулярные образцы образуют более темные и вязкие растворы за счет развитой сети межмолекулярных контактов, в то время как полимерные растворы с меньшей молекулярной массой остаются текучими.

При концентрации 0,0125% растворы находятся в области истинных разбавленных растворов, в которых макромолекулы не взаимодействуют друг с другом и имеют вид отдельных статистических ключей. Вязкость таких растворов немногим превышает вязкость чистого растворителя, а влияние молекулярной массы полимера на вязкость выражено слабо. При этой концентрации также не проявляются существенные различия в молекулярной массе и структуре полимера, поскольку вязкость прямо пропорциональна концентрации и характеристической вязкости ([N] S). Только при превышении концентрации покрытия начинают проявляться коллективные эффекты, приводящие к резкому увеличению адгезии. С точки зрения коллоидной химии вязкостные свойства растворов сополимеров АА-АК определяются молекулярной массой, конформацией макромолекул и их взаимодействием в растворе[6]. С увеличением времени синтеза DP и молекулярная масса увеличиваются, что оказывает значительное влияние на вязкость, особенно в области покрытия цепей (0,5% раствор). Здесь вязкость чрезвычайно линейно увеличивается с увеличением массы за счет увеличения скручивания цепей. В разбавленных растворах (0,0125%) влияние молекулярной массы минимально и выражается уравнением Марка-ховинка.

При концентрации 0,5% запутывание цепей приводит к образованию трехмерной сетки, которая резко увеличивает вязкость. Кроме того, могут проявляться водородные и ионные взаимодействия между амидной и карбоксильной группами. В сильно разбавленных растворах (0,0125%) такие взаимодействия отсутствуют, и макромолекулы ведут себя независимо. При концентрациях ниже критической (с*) вязкость линейна за счет образования сетки из макромолекул, а при концентрациях выше с * увеличивается в геометрической прогрессии. В нашем случае 0,5% растворов находятся в


ISSN 3030-3907

области уже развитых межмолекулярных взаимодействий, а 0,0125%-в области индивидуального поведения цепей.

**Вывод.** Таким образом, изменение условий синтеза с мягких (короткое время,низкий T) на более жесткие (долгое время, высокий T) может первоначально привести к увеличению молекулярной массы и вязкости (за счет удлинения цепей), но в очень жестких условиях приведет к небольшому снижению молекулярной массы или эффективности макромолекул (из-за деструкции или разветвления), это проявляется в небольшом снижении вязкости. Таким образом, экспериментально можно ожидать, что вязкость растворов (при неизменной концентрации) будет максимальной в образцах, синтезированных в течение достаточно длительного периода времени, но не при экстремально высоких температурах, в то время как образцы, полученные при самой высокой температуре или в течение самого короткого периода времени, будут наименее вязкими (низкомолекулярный полимер).

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Muratov M.M., Tanatarov O.R., Abdikamalova A.B., Dauletbayeva R.K., Dauletova J.K., Eshmetov I.D., Begjanova G.B. Development of compositions of mineral and polymer structureforming agents to protect soils from wind and water erosion. PPOR, Vol. 26, No. 3, 2025, pp. 899-916

2. Sh.A.Kuldasheva, A.B.Abdikamalova, D.X.Abduraximov, R.K.Dauletbayeva, G.M.Karimova /Mahalliy PAA va uning asosidagi polielektrolitlarning husisuyatlarini o‘rganishning ahamiyati / Namangan Muhandislik-texnologiya instituti “Fizikaviy va kolloid kimyo fanlarining fundamental va amaliy muammolari hamda ularning innovatsion yechimlari” mavzusida xalxaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami.Namangan – 2024.

3. Dauletova J.K., Dauletbayeva R.K., Abdikamalova A.B./Gidrolizlangan poliakrilamidlarning strukturaviy xususiyatlari./Международная научно-техническаяконференци 7-8 февраля 2025 года город Термез

4. Dauletbayeva R.K., Abdikamalova A.B./Akrilamidning akril kislotasi bilan sopolimerlari eritmalarining qovushqoqlik xususiyatlariga monomerlar nisbati va sintez haroratining ta’sirini o‘rganish **Development Of Science 2025 / 10 Issue 10. Volume 3.**

5. Shakhnoza Kuldasheva., Aziza Abdikamalova., Izzat Eshmetov., DilmurodAbdurahimov., Aysha Sharipova., Gulbahor Nortojiyeva. Investigation of changes in the viscosity properties of acrylamide (co)polymer and their hydrolyzed forms depending on the conditions oftheir preparation // Polymer Bulletin https://doi.org/10.1007/s00289-023-04875-6, Accepted: 28 May 2023 © The Author(s), under exclusive licence to Springer-Verlag GmbH Germany, part of Springer Nature 2023 (Scopus, IF 3.2)



ISSN 3030-3907

6. Aziza Abdikamalova, Shakhnoza Kuldasheva, Izzat Eshmetov, Dilmurad
7. Abdurakhimov, Ilxomjon Akhmadjanov, Sanjarbek Mamayusupov. Polymers as soil structure–forming agents (overview). annals of forest research // Jornal of Forestry and Environmental Sciences Ann. For. Res. 65(1): 2797-2810 p, 2022 y. https://www.e-afr.org. (Scopus, IF).



ISSN 3030-3907

# PAYVAD CHOKLARI VA CHOK ATROFI HUDUDLARINI MEXANIK XOSSALARINI ILMIY VA AMALIY TAHLILLAR ASOSIDA TATBIQ ETISH

**Rustamova Mashhura Umarovna**
*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi*
**Rustamov Farrux Umarovich**
*Navoiy mashinasozlik zavodi muxandisi*

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy ishda payvand choklari va ularning atrofidagi hududlarning mexanik xossalari ilmiy hamda amaliy tahlillar asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda payvand birikmalarining mikrostruktura o‘zgarishlari, ichki kuchlanishlarning taqsimlanishi, hamda issiqlik ta’sir zonasidagi metallning mexanik mustahkamlik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Eksperimental tadqiqotlar natijasida payvand choklarining qattiqlik, cho‘zilish mustahkamligi va plastiklik darajalari o‘lchab chiqilgan, shuningdek, ularning metall tarkibi va payvandlash rejimlariga bog‘liqligi aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** payvand choklari, issiqlik ta’sir zonasi, mexanik xossalar, qattiqlik, ichki kuchlanish, mikrostruktura, cho‘zilish mustahkamligi.

**Аннотация.** В данной научной работе на основе научно-практического анализа изучены механические свойства сварных швов и прилегающих к ним зон. Проведен анализ микроструктурных изменений сварных соединений, распределения внутренних напряжений и показателей механической прочности металла в зоне термического влияния. В результате экспериментальных исследований измерены твердость, предел прочности и пластичность сварных швов, а также установлена их зависимость от химического состава металла и режимов сварки.

**Ключевые слова:** сварные швы, зона термического влияния, механические свойства, твердость, внутренние напряжения, микроструктура, предел прочности.

**Abstract.** In this scientific work, the mechanical properties of welds and their surrounding areas were studied based on scientific and practical analyses. The study analyzed the microstructural changes of weld joints, the distribution of internal stresses, and the mechanical strength indicators of the metal in the heat-affected zone. As a result of experimental studies, the hardness, tensile strength, and plasticity levels of welds were measured, and their dependence on metal composition and welding modes was determined.

**Keywords:** welds, heat-affected zone, mechanical properties, hardness, internal stresses, microstructure, tensile strength.

## Kirish




ISSN 3030-3907

Sanoat jihozlari texnologik jarayonlar borishi natijasida turli tebranishlar va tashqi kuchlar ta’sirida tebranishga uchraydi yoki deformatsiyalanadi ya’ni payvand choki yoki uning qismlariga texnologik jarayon borishi davrida ruxsat etilgan yuklamaga nisbataan ortiqcha kuch bilan ta’sir etganda, chok va chok atrofi hududlari cho‘zilishga uchraydi. Ayrim sanoat jihozlarining payvand choki va chok atrofi hududlari buralishga uchraydi, deformatsiyalanish natijasida cho‘zilin, egilish va buralish hodisalari yuz beradi. Shuning uchun ham payvand choki va chok atrofi hududlarining yuklama bardoshlilik chegarasi, sinov laboratoriyalarda na’munalarga mexanik sinov ishlarini olib borganda aniq nazariy hisoblashlar asosida nisbiy cho‘zilish chegarasining maksimal darajalari aniqlanishi shart.

Shuning uchun ham payvand choki va chok atrofi hududlari ya’ni issiqlik tasir etgan hududlarga nisbatan odatda kuchlarning ta’siri quvurlar, katta hajmdagi hajmbardosh idishlarni payvandlab tayyorlash davrida e’tiborga olinishi tavsiya etiladi. Aks holda texnologik jarayolarning borishi vaqtida payvand choki va chok atrofi hududlarining issiqlik ta’sir etgan hududlarida, jihozlar devoriga bosim yoki ta’sir etuvchi kuchning texnologik reglament miyoridan oshib ketishi kuzatilganda, payvan choki quymasida yoki chokning asosiy metall bilan bog‘langan hududlari atrofida turli shakldagi yoriqlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ayniqsa kimyo sanoati, nefte-gaz sanoatining turli yo‘nalishlarida ishlovchi korxonalarida endotermik yoki ekzotermik reaksiyalarni borishi natijasida sanoat jihozlari(magistral quvurlar, sisternyalar, katta hajmdagi hajmbardosh idishlar)ning payvand choklaridagi ichki zo‘riqishlar kuchlari vujudga kelishi natijasida chok qovushqoqligini pasayishi, payvand chokining aynan chok atrofi bo‘ylab butunlay yorilib ketishiga olib keladi.


Sanoat jihozlari metallaridan, Navoiy mashinasozlik zavodining markaziy laboratoriyasida mexanik xossalarini aniqlash uchun namunalar tayyorlanib, parametrlari GOST 1497-84 asosida tayyorlandi. Mashina mexanizmlarning ishlash muhitiga qarab metallar loyihalovchilar tomonidan tanlab olinadi va mexanik xossalari nazariy va amaliy tajribalar asosida tahlil qilinadi. Tanlab olingan materiallar nazariy tahlillar asosida laboratoriyada sinab ko‘rish orqali mexanik xossalari aniqlanadi, bu jarayon bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, ushbu bosqichlar nimalarni o‘z ichiga olishini quyida ko‘rsatib o‘tamiz: 1) zarbiy qovushqoqlikni aniqlash, 2) nisbiy cho‘zilishni aniqlash, 3) nisbiy egilishni aniqlash bo‘lib, biz ham ushbu sinovlar asosida teshik ochish qurilmasi detallarining materiallarini o‘rganilgan tahlillar asosida sinovdan o‘tkazib mexanik xossalarini aniqladik. Nisbiy cho‘zilishning tajriba natijalari, boshqa o‘tkazilishi kerak bo‘lgan tajribalar uchun asosiy manba hisoblanadi va shu asosda o‘rganilib xulosalar olib boriladi.


ISSN 3030-3907




**1-rasm. Nisbiy cho‘zilishga mustahkamlikni aniqlash uchun namuna etaloni**

Sinov na’munalari Respublikamizning barcha mexanik laboratoriyalari mavjud korxonalarda GOST1497-84ning normativ hujjatlarida keltirilgan parametrlarning №3 – tipi bo‘yicha tayyorlanadi. GOST1497-84ning normativ hujjatlarida keltirilgan parametrlarning №3 – tipi bo‘yicha tayyorlangan na’munalarda asosiy e’tibor $d_0$ ga qaratiladi. Na’munaning $d_0$ o‘lchami (2-rasm)da ko‘rsatilgan ruxsat etilgan o‘lcham bo‘yicha $\emptyset 6\ h7^{-(0,02)}$ aniqlikda tayyorlanadi.




**2-rasm. Past uglerodli po‘latlar va cho‘yanlarni cho‘zilishga sinash diagrammasi**



ISSN 3030-3907

**1-jadval**


**GOST 1497-84. Tip №3. Proportsional slindrsimon namunalar o‘lchamlari**

| Na’muna raqami № | $d_0$ | $l_0 = 5d_0$ | $l_0 = 10d_0$ | $l$ | $D$ | $h_1$ | $r$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 25 | 125 | 250 | $l_0$+(0,5-2)$d_0$ | 4 | 30 | 5 |
| 2 | 20 | 100 | 200 | $l_0$+(0,5-2)$d_0$ | 3 | 25 | 5 |
| 3 | 15 | 75 | 150 | $l_0$+(0,5-2)$d_0$ | 2 | 20 | 3 |
| 4 | 10 | 50 | 100 | $l_0$+(0,5-2)$d_0$ | 1 | 10 | 3 |
| 5 | 8 | 40 | 80 | $l_0$+(0,5-2)$d_0$ | 1 | 10 | 2 |
| 6 | 6 | 30 | 60 | $l_0$+(0,5-2)$d_0$ | 1 | 10 | 1,5 |
| 7 | 5 | 25 | 50 | $l_0$+(0,5-2)$d_0$ | 1 | 10 | 1,5 |
| 8 | 4 | 20 | 40 | $l_0$+(0,5-2)$d_0$ | 9 | 8 | 1,5 |
| 9 | 3 | 10 | 30 | $l_0$+(0,5-2)$d_0$ | 7 | 7 | 1,5 |

Nisbiy cho‘zilishga mexanik sinovlarni o‘tkazish uchun (2-rasm)da keltirilgan cho‘zilish diagrammasi asosida, past uglerodli va cho‘yanlarni (plastiklik va mo‘rtlik) mexanik xossalarini ko‘rsatuvchi diagramma diagramma orqali ko‘rib o‘tamiz. Nisbiy cho‘zilish va nisbiy oquvchanlik chegarasini aniqlash uchun tajriba sinovlarini (3.2.1- jadval)da keltirilgan qiymatlardan foydalanib namuna tayyorladik va shu asosda mexanik sinov ishlarini olib bordik. Diagrammaning (3-rasm)da keltirilgan ko‘rsatkichlar, sinov olib borish uchun tayyorlangan namunaning $d_0$ o‘lchami va tanlab olingan matallning mexanik xossalariga uzviy bog‘liq.



ISSN 3030-3907




**3-rasm. Materiallarning mexanik xossalarini aniqlashda materialning xarakterli nuqtalari ko‘rsatilgan**

Na’munalarning natijalarini o‘lchamlarga bog‘liqligini bartaraf etish uchun cho‘zilish diagrammasi koordinata o‘qlariga quriladi va ichki kuchlanishni ($\sigma$) harfi bilan belgilaymiz, deformatsiyalanish (cho‘zilish) holatini ($\varepsilon$) harfi bilan belgilaymiz. Ichki kuchlanish (ichki zo‘riqishkuchi) va deformatsiyalanish darajasini quyidagi (1) va (2) formulalar orqali tahlil qilib chiqamiz. Biz tavsiya etayotgan ultra to‘lqinli tebranishning zarblari orqali ishlov beriladigan payvand choklari GOST380-2015, GOST1050-2013 va GOST 5520-79 ning normativ talablari bo‘yicha oddiy sifatli (St3, St10, St15, St20 va St25) po‘latlaridan tayyorlanganligi sababli ($\sigma_v$) nisbiy cho‘zilish va nisbiy uzayishning qiymatlari quyidagi formulalar orqali aniqlab o‘tamiz.

$$\sigma = \frac{P_N}{F_0} = \frac{12740}{30{,}19} = 421{,}99 \text{ MPa} \qquad (1)$$

$$\varepsilon = \frac{l_k - l_0}{l_0} \cdot 100\% = \frac{37{,}85 \cdot 30}{30} = 26{,}18\% \qquad (2)$$

$P_N$- na’munaga tushuvchi kuch *(N)*;
$F_0$- na’munaning ko‘ndalang kesim yuzasi;
$l_0$- sinovgacha bo‘lgan na’munaning uzunligi;
$l_k$- sinovdan so‘ngi na’munaning uzunligi

Nomlari yuqorida keltirilgan diagramma, barcha past uglerodli po‘latlarni mustahkamligini aniqlashda eng samarali diagramma hisoblaymiz, (3-rasm)da


ISSN 3030-3907

keltirilgan diagrammadagi matallarning nisbiy cho‘zilish (mustahkamlik) chegarasi asosan to‘rtda hududga bo‘lib o‘rganiladi.

*Birinchi hudud (OB)* - **e***lastik deformatsiyalanuvchi hudud*, tayyorlangan na’munadan yuk olinganda, ushbu hududda deformatsiya natijasida namuna boshlang‘ich holatiga qaytadi, *A* nuqta $\sigma$ o‘qiga nisbatan proporsionallik chegarasida yotadi va uni quyidagicha yozamiz:

$$\sigma_p \cdot \sigma_p = \frac{F_p}{A_m}; \qquad (3)$$

bu holatda namuna materialida ko‘proq ichki zo‘riqishlar vujudga kelib, Guk qonuniga asosan o‘rganiladi, bunda asosan materialda deformatsiyalanish holati kuzatiladi ($\sigma = E \cdot \varepsilon$).

Bunday holatda *B* nuqta nisbiy elastiklikning chegara maydonida yotadi.

$$\sigma_u \cdot \sigma_u = \frac{P_u}{A_0}; \qquad (4)$$

Bu holatda namuna materiali yuqori kuchlanish (zo‘riqish) holatida bo‘lib, materialda qoldiq deformatsiya shakillanmaydi.

*Ikkinchi hudud (BD)* – umumiy qovushqoq **(**plastik) hudud hisoblanadi, bu hududning xarakterli holati shundaki, sezilarsiz ichki kuchlanish (ichki zo‘riqish) oshadi ya’ni namuna materialining hajmi bo‘ylab metall kristal panjarasining siljishi kuzatiladi, diagrammadagi *S* nuqta oquvchanlik chegarasini bildiradi va quyidagicha yoziladi.

$$\sigma_T = \frac{P_T}{F_0} = \frac{7940}{30{,}19} = 263 \text{ MPa}; \qquad (5)$$

Bunda, tajribada sinalayotgan namuna materialida sezilarsiz ichki zo‘riqish paydo bo‘ladi, ammo material sirtida sezilarli deformasiyani keltirib chiqaradi. Diagrammada ko‘rsatilgan *B, D* nuqtalar orasidagi hudud oquvchanlik chegarasi bo‘lib ichki kuchlanish (ichki zo‘riqish) deb aytiladi, standart talablardagi ko‘rsatkichni beradi $\varepsilon = 0{,}02 - 0{,}2\%$. Oquvchanlik chegarasi metallar uchun asosiy xarakterga ega bo‘lib, metallarni mustahkamligini xarakterlaydi ya’ni plastik materiallarning chegaraviy ichki zo‘riqishini bildiradi.

$$[\sigma] = \frac{\sigma_T}{n_T}; \qquad (6)$$

$n_T$ – zahira koeffitsenti bo‘lib, bunda maksimal ruxsat etilgan kuchlanish konstruksiya uchun qanchalik yuqori bo‘lishidan qat’iy nazar, oquvchanlik chegarasining qiymatidan kichik bo‘lishi talab etiladi.

*Uchinchi hudud (DL)* – mustahkamlanish hududi bo‘lib, mustahkamlanish hududi deganda ichki kuchlanish miqdorining oshishi tushiniladi ya’ni material qayishqoq deformasyalangan holatda bo‘ladi. Agar namuna holatini o‘z holatidan *S* nuqtagacha tushirsak, kelasi yuklanishda qayishqoqlik nuqtasi (*S)* nuqtagacha deformatsiyalanadi, ichki kuchlanish qayishqoqlik chegarasidan yuqori bo‘ladi. Bunday holat material qayishqoqligining yuqori chegarasi bo‘lib, bunda plastik


ISSN 3030-3907

deformatsiya “Naklep” nomi bilan yuritiladi va mashinasozlik sohalarida detallar tayyorlashda keng miqiyosda qo‘llaniladi. Naklep materialga termik ishlov berishning “kuydirish” (otjig) texnologik jarayoni orqali bartaraf etiladi.

*To‘rtinchi hudud (LK)* – mahalliy oquvchanlik hududi deb ataladi, bu hududda barcha past kuchlanishlar namunaning keyingi deformasiyalanish jarayoni uchun talab etiladi. Bu holat shunday tushiniladiki, sinalayotgan namunaning eng kuchsiz kesimida (bo‘ynida) mahalliy qisqarish yuz beradi yani vujudga keladi va keyingi deformasiyalanish, shu hududdagi ko‘ndalang bo‘yin kesimining qisqarishi bilan izohlanadi. Ayrim hollarda shunday materiallar borki, kerakli materiallardan tayyorlangan namunalar, bo‘yin qismi (ko‘ndalang kesim yuzasi)ning tashqi ko‘rinishi o‘zgarmasdan turib uzilish holati yuz beradi.

Namuna belgilangan maksimal yuklanishga bardosh bersa (*L)* nuqtada (3-rasm) materialining mustahkamlik darajasi deb aytiladi va quyidagi formula orqali ifodalanadi.

$$[\sigma_v] = \frac{P_{max}}{F_0} = \frac{12740}{30{,}19} = 421{,}99\ MPa; \qquad (7)$$

Mo‘rt materiallar uchun ruxsat etiladigan mustahkamlik chegarasini quyidagi ko‘rinishda yozamiz.

$$[\sigma] = \frac{\sigma_v}{n_v}; \qquad (8)$$

$n_v$ – zaxira koeffitsenti.

*Siljish* – buni shunday yuklama deb qaraymiz, bunda sterjenning ko‘ndalang kesimida kesuvchi kuch $(Q_y)$ va $(Q_z)$ oqi bo‘ylab tasir etadi, qolgan tasir etuvchi kuch faktorlarining qiymati esa nolga teng bo‘ladi.

Ichki kuchlarni aniqlash maqsadida *(x)* uzunlikdagi namunani fikran kesib, so‘ng hosil bo‘ladigan kesik sterjenning kesim yuzasida hosil bo‘ladigan kuchlar aniqlanadi, shuning uchun ichki kuch $(Q_y)$ teng *(F)* ga va kesim yuzasiga yotuvchi teng tasir etuvchi urinma kuchlanish $(\tau_y)$ parallel holda *(F)* ga yo‘naltirilgan.

Siljishda kuchlanish kesim yuzasi bo‘yicha teng taqsimlanishini quyidagi formula orqali hisoblaymiz.

$$\tau_y = \frac{Q_y}{A}; \qquad (9)$$

$A$ – sterjenning ko‘ndalang kesim yuzasi;

$Q_y$ – ichki kuch.

Mustahkamlik darajasini siljishi uchun quyidagi ko‘rinishdagi formula orqali hisoblab topamiz.


$$\tau_{max} = \frac{Q_{rast}}{A} \leq [\tau]; \qquad (10)$$

$Q_{rast}$ – sterjen qalinligiga tasir e’tuvchi ichki kesish kuchi;

$[\tau]$ – sterjenni kesish uchun ruxsat etiluvchi kuchlanish.



ISSN 3030-3907




**4-rasm. Namunani uzilishga sinash sxemasi**

*Mustahkamlik sharti* – Aniq berilgan materiallarga yuklama tasir etganda valning $\tau_{max}$ ko‘ndalang kesimi yuzasiga tushuvchi maksimal kuchlanishni $[\tau]$ quyidagi formula bilan ifodalaymiz.

$$\tau_{max} = \frac{M_{rast}}{W_p} \leq [\tau]; \qquad (11)$$

$M_{rast}$ – hisoblangan ichki moment;

$W_p$ – qarshilikning qutub momenti.

$$[\sigma] = \frac{\tau_{pridel}}{n}; \qquad (12)$$

$\tau_{pridel}$ – aniq berilgan material uchun chegaraviy kuchlanish bo‘lib, plastik materiallar uchun oquvchanlik chegarasi, mo‘rt materiallar uchun mustahkamlik chegarasi hisoblanadi. Bu natijalar o‘tkazilgan eksprimental tajribalar natijasida o‘z tasdig‘ini topdi.

$n$ – mustahkamlikning zahira koeffitsenti.

*Zarbiy qovushqoqlik* - zarbiy qovushqoqlik GOST 9454-78 davlat standarti asosida korxonalarda sinov ishlari olib boriladi. Zarbiy qovushqoqlikka namunani sinash uchun, namuna uchun ajratilgan zagatovkadan termik ishlov berilgandan so‘ng namuna tayyorlanib zarbiy qovushqoqlikka sinash jarayonlari olib boriladi. GOST9454-78 qora va rangli metallar qotishmalarini zarbiy qovushqoqlikka sinash uchun qo‘llaniladi, tajribalar qo‘yilgan talabga asosan -100 $^0$C sovuqlikdan +1200 $^0$C issiqlikkacha bo‘lgan intervalda olib boriladi. Tajribani o‘tkazish uchun GOST 9454-78 bo‘yicha loyihada ko‘rsatilgan materiallardan “V” ko‘rinishdagi namunalarni tayyorlab sinov jarayonlari olib borildi.


ISSN 3030-3907

**2-jadval**

**GOST 9454-78. Zarbiy qovushqoqlik uchun namuna tayorlash jadvali**

| Konsentrator shakli | Konsentrator radiusi R | Tip | Namuna uzunligi L (±0,6) | Namuna kengligi B | Namuna balandligi H (±0,1) | Namunadagi kesim chuqurligi $h_1$ (±0,1) | Konsentrator chuqurligi h (±0,6) | Kesimdan so‘ngi balandlik $H_1$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| V | 0,25±0,025 | 11 | 55 | 10±0,1 | 10 | - | - | 8±0,1 |
| | | 12 | | 7,5±0,1 | | | | |
| | | 13 | | 5±0,05 | 8 | | | |
| | | 14 | | 2±0,05 | | | | 6±0,1 |

Zarbiy qovushqoqlikni hisoblab topish uchun namunalarda o‘tkaziluvchi quyidagi hisoblash ishlarini olib boramiz, dastgohda o‘rnatilgan koperning massasini aniqlab olamiz. Tajriba amaliyoti Navoiy mashinasozlik zavodining markaziy labaratoriyasida olib borildi. Labaratoriyada o‘rnatilgan koper mayatnik dastgohining koper massasi $Q_{massa} = 30kg$. Tajribani o‘tkazish uchun oldindan tayyorlangan namunaning ko‘ndalang kesim yuzasini *S* ni topamiz, buning uchun konsentrator chuqurligi $H_1$ ni namunaning umumiy balandligi *H* dan ayirish orqali (12) formuladagi qiymatni keltirib chiqaramiz va undan foydalangan holda *B=0,97*, *H=0,74* deb qabul qildik (o‘lchamlar, namunani o‘lchash orqali aniqlandi) va namunaning ko‘ndalang kesim yuzasini topdik.

$$S_0 = H - H_1 \cdot B = 10 - 2{,}6 \cdot B = 0{,}72\ mm^2 \qquad (13)$$

*H*- namunaning umumiy balandligi, mm;

$H_1$-konsentrator chuqurligi, mm;

*B* – berilgan namunaning eni, mm.

$$KC = \frac{K}{S_0} = \frac{12{,}80}{0{,}7178} = 17{,}83\,\frac{kgf}{mm^2}; \qquad (14)$$

*K*-koper massasi, (kgf).

$S_0$-namuna ko‘ndalang kesimining boshlang‘ich yuzasi.


Namunani zarb bilan uriluvchi koperning massasi 30kg, sinalayotgan namunaga koper bilan zarb berilgandan so‘ng, koper mayatnik dastgohining ko‘rsatgichi Ct3 materiali uchun 17,20 kgf qiymatni ko‘rsatdi, demak bundan xulosamiz shuki, 17,20 kgf. ko‘rsatgich qiymatni koper massasi 30 kilogramdan



ISSN 3030-3907

ayirganimizda 12,80 kg qiymat qoldiq son qoldi. Demak, (13) formula bo‘yicha olingan natija oddiy sifatli po‘lat St3 ning zarbiy qovushqoqlik qiymati deb xulosa chiqaramiz. St3 po‘lat oddiy sifatli po‘latlar turkumiga kiradi va sanoatda keng qo‘llaniladi, ushbu po‘latlar fosforning miqdori 0,040%, oltingugurtning miqdori 0,050% bo‘lishi bilan, GOST 1050-88ga kiruvchi po‘latlardan ajralib turadi.

Sifatli po‘latlarni nazorat qilishni GOST 1050-88 o‘z ichiga oladi, metall tarkibiga nometall brikmalar sifatida kiruvchi fosfor 0,030% va oltingugurtning 0,035% bo‘lishi, yuqori bosim va yuqori haroratlarda ishlovchi quvurlar va boshqa metalokonstruksiya mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanilmaydi.




**5-rasm. Zarbiy qovushqoqlikni aniqlan uchun na’munaning umumiy ko‘rinishi**

**Xulosa.** Tadqiqotda payvand birikmalarining mikrostruktura o‘zgarishlari, ichki kuchlanishlarning taqsimlanishi, hamda issiqlik ta’sir zonasidagi metallning mexanik mustahkamlik ko‘rsatkichlari ko‘rsatildi. Metallarning elastiklik xossalari asosida deformatsiyalanish xususiyayatlari tebranishlar chastotasini keltirib chiqaradi, ushbu holatlarni nazariy va ilmiy tahlil qilish asosida, maxsus laboratoriyalarda past legirlangan metallarning nisbiy cho‘zilish chegarasi va nisbiy egilish darajasi tahlil qulindi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Трушников Д.Н. Модель формирования вторично-эмиссионного сигнала при электронно-лучевой сварке с осцилляцией электронного пучка / Д.Н. Трушников, В.Я. Беленький, В.Е. Щавлев, А.Л. Пискунов, А.Н. Лялин // Сварка и диагностика. – 2013. – № 1. – С. 39-42.

2. Глазов, С.И. Основы технологии электронно-лучевой и диффузионной сварки / С.И. Глазов, А.В. Люшинский. – ОАО«Рыбинский дом печати», 2001. - 123-233 с.



ISSN 3030-3907

3. Литвинов, В.В. Многопараметрическое адаптивное управление технологическим процессом электронно-лучевой сварки / В.В. Литвинов, А.В. Ярмилко. – Киев, Математичні машини і системи. – 2013. – № 2 – С. 130-138.
4. Masny H. Multi-Beam Technology in Electron Beam Welding / H. Masny // ISFF—Welding and Joining Institute. – 2006. – Vol. 34. – pp. 1-4.
5. Peng-Fei Fua Temperature field modeling and microstructure analysis of EBW with multi-beam for near a titanium alloy/ Peng-Fei Fua, Zhi-Yong Mao//Huazhong University of Science and Technology. – 2013. – Vol.102. – pp.54-62.
6. Zenker R. Characteristics and Prospects of Process Integrated Thermal Field Heat Treatment for Electron Beam Welding of Cast Iron/ R. Zenker// La metallurgia italiana


ISSN 3030-3907

# PARABOLOCYLINDRICAL SOLAR DEVICE FOR THERMAL ENERGY PRODUCTION

**A.A.Kuchkarov**
*Fergana State Technical University, 150107, Fergana street, 86*
**Kh.Mirzabaeva**
*Fergana State Technical University, 150107, Fergana street, 86*
**S.Kamolboev.**
**-Veb-asosli va kompyuter-yordamli CAD muhitlari (web-CAD, SolidWorks/AutoCAD ta’lim modullari)**

Brauzerda yoki litsenziyada ishlaydigan interfaol CAD topshiriqlari, mashqlar va avtomatik tekshirishlar.

*Afzalliklari:* talabalar amaliy ko‘nikmalarni o‘z vaqtida takrorlashi, loyiha-yo‘nalishli o‘qitish (PBL) orqali real-dunyo muammolarini hal qilishi mumkin. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, loyiha-asosida CAD o‘qitish samaradorlikni oshiradi [6].

*Kamchiliklari:* litsenziya va kompyuter resurslari, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi [8].

**- Gamifikatsiya va o‘yinlar (Game-Based Learning, GBL)**

Ballar, reytinglar, mini-o‘yinlar va mantiqiy vazifalar orqali o‘quv jarayonini interaktivlashtirish.

*Afzalliklari:* motivatsiya va ishtirokni oshirish, imtihon natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatilgan. Bir nechta olib borilgan tadqiqotlari bu samarani tasdiqlaydi [5].

*Kamchiliklari:* pedagogik maqsad bilan muvofiqlashtirish, haddan tashqari o‘yin elementlari o‘rgatuvchi maqsadni chalg‘itadi [7].

**- Simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va 3D-vizualizatsiya mashqlari**

Interaktiv mashqlar, parametrik modellar, qadam-baqadam amaliy mashg‘ulotlar.

*Afzalliklari:* nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirish, talabalarga xatoliklardan xavfsiz o‘rganish imkoniyati beradi. Tadqiqotlar virtual mashqlar



ISSN 3030-3907

motivatsiyani oshirganini va ba’zi hollarda o‘quv natijasini yaxshilaganini ko‘rsatadi [7].

**-Taqdim etiluvchi (sensor organlari orqali his qilish) modellar va 3D-bosma materiallar**

Fizik 3D modellari va AR bilan birgalikda ishlatiladigan sensor organlari orqali his qilish hususiyatlari.

*Afzalliklari:* sensor tajriba orqali fazoviy tushunchalar yaxshilanadi; muhandislik konseptlarini «qo‘l bilan» tushunishga yordam beradi. ASCE va boshqa jurnallar bunday yondoshuvning foydasini ko‘rsatgan [10].

**-AI / adaptiv o‘quv tizimlari va feedback (masalan PALS, adaptive e-learning)**

Talabalar faoliyatiga asoslangan avtomatik qayta aloqa, personalizatsiyalashgan mashqlar.

*Afzalliklari:* o‘qish yo‘lini individualizatsiyalash, o‘qituvchiga nazorat va progress monitoring imkoniyati. So‘nggi ishlar CAD ta’limini AI bilan boyitish haqida fikr bildiradi [9].

*Ta’lim natijalariga ta’sirlar quyidagicha:*

-AR/VR va 3D-vizualizatsiya talabalarning fazoviy qobiliyatlarini va tushunishini oshirishda ko‘p hollarda ijobiy natija ko‘rsatgan. (sistematik ko‘rib chiqishlar va eksperimentlar) [4].

-Gamifikatsiyalashgan kurslar talabalar motivatsiyasini va imtihon natijalarini sezilarli darajada yaxshilashi haqida bir qancha institut tadqiqotlari mavjud [5].

-Loyihaga asoslangan va veb-CAD mashg‘ulotlari talabalar amaliy ko‘nikmalarini oshirishda samarali (pilot va case-study tadqiqotlari) [6].

Amalga oshirishdagi asosiy to‘siqlar (barrierlar) bir nechta sabablardan tashkil topgan. Ularga **Moliyaviy***:* (AR/VR qurilmalar, litsenziyalar va kontent ishlab chiqish xarajatlari), **Pedagogik***:* o‘qituvchilarning texnik va metodik tayyorgarligi yetishmasligi, **Infrastrukturaviy***:* laboratoriyalar, o‘quv xonalar, kompyuterlar va texnologiyalar,

**Baholash va standartlar***:* interfaol vositalar ta’lim natijalarini aniq va ishonchli baholashni talab qiladi; universal baholash metodologiyasi kam [4,7,8].

Samaradorligini baholash mumkin amaliy metodlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-Pre-test / post-test dizayni (fazoviy qobiliyat, chizma topish vazifalari);

-Kontrolli eksperimentlar: an’anaviy usul vs interfaol vosita;

Uzun muddatli kuzatuv: amaliy ko‘nikma saqlanishi va kasbiy dastlabki natijalar;

-Talaba va o‘qituvchi fikr-mulohazalari (surveys, fokus-guruhlar) ham muhim [3,4,5].

**Xulosa.** Interaktiv ta’lim vositalaridan foydalanish muhandislik grafikasi fanining samaradorligini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon nafaqat o‘quvchilarning fazoviy tafakkurini rivojlantiradi, balki ularni



ISSN 3030-3907

zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga o‘rgatadi. Shu bois o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyatida doimiy ravishda raqamli kompetensiyalarini oshirib borishlari zarur

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Haqberdiyev B.R. va boshqalar. *O‘quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlar*. – 2025.
2. Ro‘ziyev E., Ashirboyev A. *Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi*. – Ziyouz.com, 2019.
3. Tiwari A. S. et al., **“Designing and evaluating an augmented reality system for an engineering drawing course (EDINAR)”**, Smart Learning Environments, 2024
4. Suhail N. et al., **“Augmented reality in engineering education: enhancing visualisation”**, Frontiers in Virtual Reality, 2024
5. Sun L., **“Enhancing learning of engineering graphics through gamification”**, ASEE konfrensiya materiali (2020)
6. Sola-Guirado R. R. et al., **“Teaching CAD/CAM/CAE tools with project-based learning in virtual distance education”**
7. Triviño-Tarradas P. et al., **“Preliminary results of the impact of 3D-visualization”**, Virtual Reality journal / Springer, 2022
8. Pando Cerra P. & compañeros, **“Interactive Web-Based Training Tool for CAD in a Virtual Environment”**, (2013)
9. Kravchenko O. et al., **“Future proofing CAD education through AI-driven e-learning (PALS)”**, Design Society / 2024
10. ASCE / tangible models paper: **“Use of Tangible and Augmented Reality Models in …”**


ISSN 3030-3907

# O‘SIMLIK MOYLARI SIFATINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI.

**Alibekova Mohida**

***Qo‘qon unversiteti Andijan filiali, Kampyuter injiniringi va raqamli texnologiyalar kafedrasi o‘qituvchisi.***

***E-mail: alibekovamokhida93@gmail.com***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘simlik moylarini ishlab chiqarish va ularning sifatini baholashda zamonaviy tahlil usullarini qo‘llash masalalari yoritilgan. O‘zbekistonning asosiy yog‘-moy xomashyo bazasini tashkil etuvchi kungaboqar, paxta, zig‘ir, raps va boshqa yog‘li ekinlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari (zichlik, pH, sinish koeffitsienti, yopishqoqlik, sirt tarangligi va b.) tahlil qilinadi. Tadqiqotda FTIR, NIR, Raman, floresans spektroskopiya, GC-MS, HPLC va refraktometriya kabi zamonaviy analitik usullar qo‘llanilgan. Bu usullar o‘simlik moylarining tarkibi, sifati, to‘yinmagan yog‘ kislotalari miqdori hamda oksidlanish darajasini tezkor va aniq aniqlash imkonini beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, turli usullarni kombinatsiyalash – masalan, FTIR va Raman yoki FTIR va refraktometriyani birgalikda qo‘llash – diagnostika jarayonini tezlashtiradi, energiya sarfini kamaytiradi va mahsulot sifatining barqarorligini ta’minlaydi. Shu bois, o‘simlik moylari sifatini baholashda avtomatlashtirilgan va kombinatsiyalashgan yondashuvlar eng istiqbolli yo‘nalish sifatida tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘simlik moyi, sifat nazorati, FTIR, NIR, Raman, spektroskopiya, GC-MS, HPLC, refraktometriya, avtomatlashtirish, kombinatsiyalashgan usul.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы применения современных методов анализа при производстве и оценке качества растительных масел. Анализируются физико-химические свойства основных масличных культур, составляющих сырьевую базу Узбекистана, таких как подсолнечник, хлопок, лен, рапс и другие (плотность, pH, коэффициент преломления, вязкость, поверхностное натяжение и др.). В исследовании использованы современные аналитические методы, включая FTIR, NIR, Raman, флуоресцентную спектроскопию, GC-MS, HPLC и рефрактометрию. Эти методы позволяют быстро и точно определить состав, качество, содержание ненасыщенных жирных кислот и степень окисления растительных масел. Результаты показывают, что комбинирование различных методов — например, FTIR и Raman или FTIR и рефрактометрии — ускоряет процесс диагностики, снижает энергозатраты и обеспечивает стабильность качества продукции. Поэтому автоматизированные и комбинированные подходы к оценке качества растительных масел рекомендуется считать наиболее перспективным направлением.



ISSN 3030-3907

**Ключевые слова:** растительное масло, контроль качества, FTIR, NIR, Raman, спектроскопия, GC-MS, HPLC, рефрактометрия, автоматизация, комбинированный метод.

**Abstract.** This article discusses the application of modern analytical methods in the production and quality assessment of vegetable oils. The study analyzes the physicochemical properties of major oilseed crops that form the raw material base of Uzbekistan—such as sunflower, cotton, flax, rapeseed, and others (density, pH, refractive index, viscosity, surface tension, etc.). Modern analytical techniques including FTIR, NIR, Raman, fluorescence spectroscopy, GC-MS, HPLC, and refractometry were employed in the research. These methods enable rapid and accurate determination of the composition, quality, unsaturated fatty acid content, and oxidation level of vegetable oils. The results show that combining different methods—such as FTIR with Raman or FTIR with refractometry—accelerates the diagnostic process, reduces energy consumption, and ensures product quality stability. Therefore, automated and combined approaches to assessing vegetable oil quality are recommended as the most promising direction.

**Keywords:** vegetable oil, quality control, FTIR, NIR, Raman, spectroscopy, GC-MS, HPLC, refractometry, automation, combined method.

**Kirish**

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida o‘simlik yog‘larini ishlab chiqarish va qayta ishlash mamlakatimiz qishloq xo‘jaligiga bog‘liq oziq-ovqat sanoatining muhim va strategik tarmoqlaridan biriga aylangan bo‘lib, ushbu sohada qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga katta e’tibor qaratilmoqda . O‘zbekistonda eng yirik yog‘-moy xomashyosi yetishtiriladigan hududlar sifatida Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Toshkent, Buxoro va Xorazm viloyatlari ajralib turadi . Ushbu hududlarda kungaboqar, paxta urug‘i, zig‘ir, raps, soya kabi yog‘li ekinlar yetishtiriladi. Hozirda har yili mamlakatimizda o‘rtacha 250–300 ming tonna o‘simlik yog‘i ishlab chiqariladi, 500–600 ming gektar yer maydonida yog‘li ekinlar yetishtiriladi, shuningdek, 60–70 ming tonna zig‘ir va kungaboqar urug‘lari eksport qilinmoqda . O‘simlik yog‘lari nafaqat oziq-ovqatda, balki bioyoqilg‘i, kosmetika, dorivor vositalar va lak-bo‘yoq mahsulotlari ishlab chiqarishda ham keng foydalanilmoqda. Jahondagi tendensiyalarga mos ravishda O‘zbekistonda ham raps va zig‘ir yog‘ini biodizel yoqilg‘isi sifatida ishlatish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda . Hududlarning iqlim sharoiti va yer-suv resurslaridan kelib chiqib, zig‘ir, kungaboqar va raps ekinlari qishloq xo‘jaligida almashlab ekish tizimiga joriy etilmoqda. Bu esa nafaqat xomashyoni ko‘paytirishga, balki o‘simliklarning tuproq unumdorligiga ijobiy ta’siri orqali ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda [5].Yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish –



ISSN 3030-3907

xususan, rafinatsiyalangan, organik va diyetik yog‘lar, shuningdek o‘simlik moylaridan olinadigan kimyoviy komponentlar (tokofyerol, fitosterin va b.) eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

**Metodologiya.**

Tahlillarda ko‘rsatiladiki, hozirgi kunda talab katta bo‘lgan o‘simlik moylariga ikki yillik onagra urug‘lari moyi *(Oenothera paradoxa),* Mariyina cherepitsa moyi *(Silybum marianum),* Qovoq urug‘i moyi *(Cucurbita oleo),* Kungaboqar yog‘i, Zaytun moyi, Makkajo‘xori yog‘i, Kastor yog‘i, Hindiston yong‘og‘i yog‘i va Kanola yog‘i, Zig‘ir urug‘i moyi *(Linum usitatissimum L.),* Raps urug‘i moyi *(Camelina silvestris),* Qora sedana urug‘i moyi *(Nigella sativa)misol qilib aytishimiz mumkin. Bu o* ‘simlik moylari bir va ko‘p to‘yinmagan yog‘ kislotalari (MUFA va PUFA) ning tanilgan manbaidir. So‘nggi yillarda to‘yinmagan yog‘ kislotalariga boy bo‘lgan o‘simlik moylariga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Bu esa yangi moyli o‘simlik turlarining yetishtirilish va o‘zlashtirilishiga olib kelmoqda. Ushbu ishda quyidagi fizik-kimyoviy xususiyatlar o‘rganildi: zichlik, pH, yorug‘lik sinish koeffitsienti, dinamik qovushqoqlik, ho‘llanish burchagi, sirt tarangligi, rang, hamda antioksidant xossalari. Ushbu parametrlar oddiy va keng foydalaniladigan analitik usullar orqali aniqlanib, moylarning asosiy xususiyatlari va sifatini baholashda muhim indikator bo‘lib xizmat qildi [2,3]. O‘simlik moylarining fizik-kimyoviy asosiy hususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan.

**1- jadval**

**O‘simlik moylarining fizik-kimyoviy asosiy hususiyatlari**

| *O‘simlik moyi* | *Zichlik [g/cm³]* | *pH* | *Yorug‘lik sinishi* | *Yopishqoqlik [mPa·s]* | *Ho‘llanish burchagi [°]* | *Yuzaki taranglik [N/m]* |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Primula (OW) | 0.925 | 7.52 | 1.476 | 46.8 | 38.2 | 40.1 |
| Mari silyum (OO) | 0.918 | 6.34 | 1.4715 | 57.1 | 40.8 | 39.6 |
| Qovoq (OD) | 0.921 | 6.11 | 1.475 | 57.4 | 32.0 | 36.0 |
| Zig‘ir (OL) | 0.923 | 7.51 | 1.4755 | 50.6 | 34.2 | 36.3 |
| Kamalina (OR) | 0.921 | 6.4 | 1.475 | 48.8 | 30.6 | 33.7 |
| Qora sedana (OCZ) | 0.92 | 5.63 | 1.4725 | 57.2 | 35.4 | 38.0 |
| Makkajo‘xori | 0.92 | 6.8 | 1.4712 | 47.0 | 33.5 | 37.5 |
| Kungaboqar | 0.922 | 6.6 | 1.474 | 45.5 | 35.1 | 38.5 |
| Paxta | 0.924 | 6.2 | 1.4728 | 50.0 | 31.0 | 35.8 |
| Yeryong‘oq | 0.914 | 6.5 | 1.469 | 44.0 | 36.2 | 39.0 |
| Xantal | 0.915 | 6.4 | 1.4705 | 46.0 | 34.5 | 37.2 |
| Zaytun | 0.91 | 5.8 | 1.468 | 42.0 | 32.8 | 35.0 |
| Raps | 0.916 | 6.5 | 1.47 | 47.5 | 33.0 | 36.5 |



ISSN 3030-3907

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Kokos | 0.92 | 7.0 | 1.448 | 38.0 | 28.5 | 32.0 |
| Palma | 0.891 | 6.9 | 1.455 | 39.0 | 29.0 | 33.0 |
| Kakao | 0.893 | 6.0 | 1.456 | 41.0 | 31.5 | 34.2 |

O‘simlik moylarining fizik-kimyoviy xossalari moyning sifat va iste’molga yaroqlilikning asosiy mezoni bo‘lib, mazkur ko‘rsatkichlarning barqaror va ishonchli nazorati uchun zamonaviy o‘lchash uskunalari va avtomatlashtirilgan tizimlar zarur bo‘lmoqda. Aynan shuning uchun keyingi bo‘limda o‘simlik moylari sifatini baholashda avtomatlashtirish tamoyillarining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi.

**Natija**

Oziq - ovqat sanoatida o‘simlik moylarini sifatini baholash samaradorligini oshirishning dolzarb vazifasini hal qilish uchun **tezkor** yoki **chuqur** diagnostika tahlillarini o‘tkazish kerak bo‘ladi. O‘simlik moylarini sifat nazoratidan o‘tkazishda ikkita asosiy laboratoriya va tezkor diagnostika yondashuvini o‘rganish zarur.

Tezkor diagnostika tahlilida qo‘llaniladigan laboratoriya jarayonlarining asosiy qonuniyatlariga ta’sir qiluvchi tarkibiy tahlilning holati o‘simlik moy sifatining asosiy harakteristikasini belgilaydi.

Har bir usul moy sifatini aniqlash tehnalogiyasiga qarab bir-biridan farq qiladi. Usullar ichida Fourier transform infraqizil (FTIR) spektroskopiya usuli eng ko‘p tarqalgan usul hisoblanib, mazkur usulda namunani fizikaviy o‘zgartirmasdan tahlil qilish imkonini beruvchi o‘simlik moylarining tarkibi va sifatini aniqlashda keng qo‘llaniladi. Ushbu usul infraqizil nurlanish va molekulalarning tebranish harakatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka asoslangan [4]. FTIR spektroskopiyasi jarayonida 4000–400 $sm^{-1}$ oralig‘idagi infraqizil nurlar moy namunasi bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi . Molekuladagi kimyoviy bog‘lar nurlanishni o‘ziga xos chastotalarda yutadi, moy tarkibidagi moddalarning mavjudligi, va ularning nisbati aniqlaydi. FTIR usulida tahlil qilish uchun moy namunasi ATR (Attenuated Total Reflectance) texnikasi yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri kristall sirtiga qo‘yiladi. Infraqizil nur namunaga yuboriladi va undan qaytgan nurlar interferogramma shaklida qayd qilinadi. So‘ngra, ushbu signal matematik ravishda Fourier transformatsiyasiga uchratilib, absorbsiya spektri olinadi. Bu spektrda hosil bo‘lgan cho‘qqilar kimyoviy bog‘larning mavjudligini ko‘rsatadi. Har bir yog‘ turi, uning kimyoviy tarkibi va to‘yinmaganlik darajasiga qarab o‘ziga xos “spektral iz”ga ega bo‘ladi. FTIR yordamida olingan spektrlar asosida moydagi yod soni, to‘yinmagan yog‘ kislotalari ulushi, oksidlanish darajasi, erkin yog‘ kislotalari va boshqa parametrlar aniqlanishi mumkin. Bunday tahlil ko‘pincha **kimyometrik modellash** orqali amalga oshiriladi. Asosiy komponentlar tahlili (PCA), qisman eng kichik kvadratlar regressiyasi (PLS) va


ISSN 3030-3907

diskriminant tahlil (DA) kabi statistik usullar yordamida FTIR spektrlari asosida moy turlari farqlanadi, soxtalashtirish aniqlanadi va sifat baholanadi [5].

NIR (Near-infrared) Raman NIR spektroskopiyasi — bu nurli (kontakt-siz) tahlil usuli bo‘lib, unda o‘simlik moyi namunasiga yaqin infraqizil (700–2500 nm) to‘lqin uzunligidagi nur yo‘naltiriladi. Bu nur moy tarkibidagi molekulalar (C–H, O–H, N–H kabi) bilan o‘zaro ta’sirga kirishib, ma’lum qismini yutadi. Moy o‘z holatida yoki shisha, kvarts yoki plastik idishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahlil qilinadi [6]. Na’muna yuzasiga nur yo‘naltiriladi va qaytgan yoki yutilgan nurlar spektrometrga yuboriladi. Qurilma maxsus detektor yordamida bu nurlarning intensivligi va to‘lqin uzunligini o‘lchaydi hamda NIR spektrini hosil qiladi. Har bir moy turi, uning kimyoviy tarkibi, namlik darajasi va to‘yinmaganlik xususiyatiga qarab o‘ziga xos spektrga ega bo‘ladi. Tezkor, buzilmaydigan, ekologik xavfsiz va bir vaqtning o‘zida bir nechta parametrni aniqlash imkonini beradi. Moy mahsulotlari sifatini real vaqtda (on-line) nazorat qilishda juda muhimdir Bu hususiyat ushbu usulning afzalligi hisoblanadi. Lekin, ushbu usulda spektrlar ko‘pincha ustma-ust tushadi va ularni aniq tahlil qilish uchun statistik va matematik modellardan foydalanish zarur. Shu sababli, modelni dastlab to‘g‘ri kalibrlash va uni mustahkam validatsiya qilish muhim ahamiyatga ega [7].

Floresan spektroskopiyasi – bu moddalarning molekulalari yorug‘lik nurlanishi ta’sirida qo‘zg‘alib, so‘ngra yana past energiyali holatga qaytayotganda chiqaradigan nurlanishni o‘lchashga asoslangan zamonaviy optik-analitik usuldir. Bu texnologiya yuqori sezuvchanlikka ega bo‘lib, o‘simlik moylari tarkibida mavjud bo‘lgan bioaktiv komponentlarni aniqlash va ularning o‘zgarishini monitoring qilish imkonini beradi. O‘simlik moylari tarkibida mavjud bo‘lgan tokoferollar, polifenollar, karotenoidlar va xlorofill moddalari kuchli floresans xususiyatga ega. Shu bois bu usul aynan ushbu komponentlar miqdorini aniqlashda juda samarali hisoblanadi [8]. Floresans spektridagi chiziqlar intensivligi va ularning joylashuvi orqali o‘simlik moyining oksidlanish darajasi, saqlash muddati davomida yuzaga keladigan degradatsion o‘zgarishlar va aralashmalar aniqlanishi mumkin. Ushbu usul oddiy va tezkor o‘simlik moylarining bioaktiv komponentlarini baholashda samarali usul bo‘lsa-da, u **faqat ma’lum moddalargagina sezgir,** spektrlari **murakkab** va **fotoxavfli,** hamda **modelga bog‘liq** bo‘lishi tufayli har doim ham **mustaqil tahlil vositasi sifatida** yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun ko‘pincha u **FTIR, NIR yoki Raman** spektroskopiyasi kabi boshqa usullar bilan **kombinatsiyada** qo‘llaniladi [9].

GC-MS — bu gaz xromatografiyasi va mass-spektrometriya asosida ishlovchi tahlil usuli bo‘lib, moddalar tarkibidagi organik birikmalarni aniqlash va tahlil qilishda qo‘llaniladi. Ushbu usulda namuna avval gaz xromatografiyasi orqali ajratiladi, so‘ngra har bir komponent mass-spektrometr orqali tekshiriladi. Usul


ISSN 3030-3907

juda aniq natija beradi, biroq yuqori texnologiyali uskunalar, malakali mutaxassis va katta moliyaviy xarajat talab etiladi. Shunga qaramasdan, GC-MS turli xil oziq-ovqat, dori va atir mahsulotlarining tarkibini tahlil qilishda eng ishonchli va keng qo‘llaniladigan usul hisoblanadi [10].

HPLC bu moddalarning kimyoviy tarkibini aniqlash va ularni ajratish uchun mo‘ljallangan xromatografik usul bo‘lib, u yuqori bosim ostida suyuqlik tashuvchi faza orqali namunani maxsus kolonnadan o‘tkazishga asoslangan. Kolonnadagi adsorbent modda namunadagi komponentlarni ularning fizik-kimyoviy xossalariga ko‘ra ajratadi. Bu usul odatda o‘simlik ekstraktlari, dorivor moddalar, oziq-ovqat va atirlar tarkibini chuqur tahlil qilishda qo‘llaniladi. HPLC usulida yuqori aniqlik, qayta aniqlash imkoniyati va avtomatlashtirish mavjud bo‘lishiga qaramay, u murakkab qurilma, yuqori xarajat va tajribali mutaxassis talab qilishi bilan ajralib turadi [11].

Refraktometriya bu suyuqliklarning yoki eritmalarning optik zichligini aniqlashga asoslangan analitik usul bo‘lib, moddaning yorug‘lik sindirish (sinish) ko‘rsatkichini (refraksiya indeksini) o‘lchash orqali amalga oshiriladi. Yorug‘lik modda sirtidan o‘tganda sinadi, va bu sindirish burchagi moddaning konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Refraktometr yordamida o‘lchov tez, oddiy va noinvaziv tarzda bajariladi. Ushbu usul shakar eritmalari, yog‘lar, ichimliklar va boshqa suyuqlik mahsulotlarining sifatini baholashda keng qo‘llaniladi. Biroq, refraktometriya faqat optik jihatdan tiniq va bir jinsli namunalar uchun mos bo‘lib, tarkibida qattiq zarrachalar yoki ko‘p komponentli aralashmalar bo‘lsa, aniqlik pasayishi mumkin [12].

## Muhokama

**FTIR, Raman va NIR spektroskopiyalari** moddalarning molekulyar tuzilmasi va kimyoviy bog‘larini tahlil qilib, tezkor, kontaktsiz va ekologik xavfsiz bo‘lib, yuqori aniqlikka ega natijalar berishi uchun to‘g‘ri statistik modellashtirish va kalibrlash muhimdir. **GC-MS va HPLC xromatografik usullari** murakkab aralashmalardagi komponentlarni ajratish va aniqlashda eng ishonchli texnologiyalar hisoblanib, molekulyar darajada aniqlik , suyuqlik fazasida komponentlarni bosim ostida ajratadi, yuqori aniqlikda ishlay oladi, ammo murakkab qurilmalar va malakali mutaxassis talab qiladi. **Refraktometriya usuli** moddaning yorug‘lik sindirish koeffitsientiga asoslanib, suyuqliklarning tozaligi va sifatini aniqlaydi. Bu usul oddiy, arzon va tezkor bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida operativ nazorat uchun qulay.

## Xulosa

Yuqorida keltirilgan sifat nazorati usullari o‘zining qator afzalliklariga qaramasdan ma’lum kamchiliklarga ega bo‘lmoqda. Shuni inobatga olib hozirgi vaqtda turli sifat nazorati usullarini o‘zida birlashtirgan kombinatsiyalashgan


ISSN 3030-3907

nazorat usullari ishlab chiqilmoqda va rivojlanmoqda. Masalan, **FTIR usuli** va **Raman spektroskopiyasi, FTIR va** Refraktometriya **yordamida sifat nazorat usullari bilan birgalikda qo‘llash mumkin. Kombinatsiyalashgan usullarni qo‘llash** diagnostika jarayonini sezilarli tezlashtirib beradi, istemol qilayotgan energiyani tejaydi, jarayon boshqarishni yanada moslashuvchan ko‘rinishiga ega bo‘linadi, maxsulotning ahamiyatli xususiyatlari juda yaxshi saqlanib qoladi.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi» Farmoni.

2. Wiktoria Kamińska, GrażYna Neunert, Maciej JarzęBski. Analiza właściwości fizykochemicznych i charakterystyka spektrofotometryczna wybranych olejów roślinnych. Żywność. Nauka. Technologia. JAKOŚĆ, 2024, 31, 1 (138), 113 – 133. https://doi.org/10.15193/zntj/2024/138/490 .

3. N. M. Essien, O. E. Ofem andS. C.Bassey. Comparative Physical Characterization, Physio-Chemical and Fatty Acid Composition of Some Edible Vegetable Oils. Journal of Advances in Biology & Biotechnology1(1): 30-39, 2014; https://doi.org/10.9734/JABB/2014/12489 .

4. Leandro S. Herculano , Gustavo V.B. Lukasievicz a, Elizandra Sehn a, Alex S. Torquato b, Marcos P. Belançon c, Elton Savi d, Newller M. Kimura d, Luis C. Malacarne d, Mauro L. Baesso d, Nelson G.C. Astrath d The correlation of physicochemical properties of edible vegetable oils by chemometric analysis of spectroscopic data. Spectrochimica Acta Part A: Molecular and Biomolecular Spectroscopy Volume 245, 15 January 2021, 118877. https://doi.org/10.1016/j.saa.2020.118877 .

5. Shyju Bhaskar, K. Spandana, K. K. Mahato, N. Mazumder. Purity Analysis of Adulterated Vegetable Oils by Raman and FTIR Spectroscopy. OSA Technical Digest (Optica Publishing Group, 2018),paper JW4A.121. https://doi.org/10.1364/FIO.2018.JW4A.121 .

6. C. Jiménez-Sanchidrián, J. Ruiz. Use of Raman spectroscopy for analyzing edible vegetable oils. Applied Spectroscopy Reviews Volume 51, 2016 - Issue 5. https://doi.org/10.1080/05704928.2016.1141292 .

7. Rohman, Y. Che Man. Application of FTIR Spectroscopy for Monitoring the Stabilities of Selected Vegetable Oils During Thermal Oxidation. International Journal of Food Properties Volume 16, 2013 - Issue 7. https://doi.org/10.1080/10942912.2011.603874 .

8. X. Li, Liangxiao Zhang, Yong Zhang, Du Wang, Xuefang Wang, Li Yu, Wen Zhang, Peiwu Li. Review of NIR spectroscopy methods for nondestructive quality



ISSN 3030-3907

analysis of oilseeds and edible oils.Trends in Food Science & Technology Volume 101, July 2020, Pages 172-181 https://doi.org/10.1016/j.tifs.2020.05.002 .
9. Bunaciu, H. Aboul-Enein, V. D. Hoang. Edible oil analysis. Vibrational Spectroscopy Applications in Biomedical, Pharmaceutical and Food Sciences. 2020, Pages 167-187 https://doi.org/10.1016/b978-0-12-818827-9.00009-3 .
10. Y. Gilbert, Mbesse Kongbonga, H. Ghalila, M. Onana, Y. Majdi, Z. B. Lakhdar, H. Mezlini, S. Sevestre-Ghalila. Characterization of Vegetable Oils by Fluorescence Spectroscopy. Food and Nutrition Sciences, 2011, 2, 692-699 https://doi.org/10.4236/FNS.2011.27095 .
11. Yueming Zheng, F. Feng, Wei Guo, X. Chu, Jiarong Pan, W. Jia Determination of fatty acids in vegetable oils using comprehensive two-dimensional gas chromatography coupled to quadropole mass spectrometry. Chinese journal of chromatography 18 September 2013 https://doi.org/10.3724/SP.J.1123.2012.06041
12. Supriya Rayudu. An exploration of high-performance liquid chromatography. International journal of scientific research. Volume - 12 Issue - 08 August - 2023 PRINT ISSN No. 2277 - 8179 https://doi.org/10.36106/ijsr/0908831

# INFORMATIKA VA AT O‘QITUVCHILARI UCHUN DASTURLASH MALAKASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

**Davletov Rasulbek Marimbayevich**

***Xorazm viloyati PMM “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi***

***E-mail: rasulbek.74@mail.ru tel:975117220***

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarining dasturlash bo‘yicha malakasini oshirishning zamonaviy metodikasi tadqiq etilgan. Malaka oshirish jarayonida nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligi asosida samarali ta’lim tizimini tashkil etish usullari ko‘rib chiqilgan. Ishda o‘qituvchilarni dasturlash tillari va texnologiyalari bilan tanishtirish, interaktiv va onlayn ta’lim vositalaridan foydalanish, shuningdek, individual yondashuv asosida doimiy rivojlanishni ta’minlash muhimligi ta’kidlangan. Tahlil natijalari malaka oshirishning samaradorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratdi. Ushbu metodika zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar**: Dasturlash, malaka oshirish, metodika, ta’lim texnologiyalari, pedagogik yondashuv

**Аннотация:**В данной научной статье рассматриваются современные методы повышения квалификации учителей информатики и информационных технологий в области программирования. Рассматриваются методы организации эффективной образовательной системы, основанной на сочетании теоретических знаний, практических навыков и педагогических подходов в процессе повышения квалификации. В работе подчеркивается важность ознакомления учителей с языками и технологиями программирования, использования интерактивных и онлайн-образовательных средств, а также обеспечения непрерывного развития на основе индивидуального подхода. Результаты анализа позволили разработать практические рекомендации по повышению эффективности повышения квалификации. Данная методология служит повышению профессиональной компетентности учителей в современном образовательном процессе и улучшению качества образования.

**Ключевые слова:** Программирование, повышение квалификации, методика, образовательные технологии, педагогический подход

**Abstract**: This scientific article studies modern methods of improving the skills of teachers of computer science and information technology in programming. Methods of organizing an effective educational system based on a combination of theoretical knowledge, practical skills and pedagogical approaches in the process

of professional development are considered. The work emphasizes the importance of introducing teachers to programming languages and technologies, using interactive and online educational tools, as well as ensuring continuous development based on an individual approach. The results of the analysis made it possible to develop practical recommendations to increase the effectiveness of professional development. This methodology serves to increase the professional competence of teachers in the modern educational process and improve the quality of education.

**Key words:** Programming, professional development, methodology, educational technologies, pedagogical approach

**Kirish**

Informatika va axborot texnologiyalari (IT) fani o‘qituvchilari uchun dasturlash bo‘yicha chuqur bilim va malakalar talab qilinmoqda. Bugungi kunda dasturlash nafaqat IT mutaxassislari, balki umumiy ta’lim sohasidagi o‘qituvchilar uchun ham zarur ko‘nikmaga aylanmoqda. Shu bois, o‘qituvchilarning dasturlash bo‘yicha malakasini oshirishga doir zamonaviy metodikalar ishlab chiqish va tatbiq etish ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Informatika va AT o‘qituvchilarining dasturlash bo‘yicha malakasini oshirishning zamonaviy metodikasi tahlil qilinadi, asosiy yondashuvlar va samarali usullar ko‘rib chiqiladi. Dasturlash — bu algoritmik fikrlash va muammolarni hal qilishning muhim vositasi bo‘lib, o‘quvchilarda tizimli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Informatika fanining dasturlash bo‘yicha qismi ko‘plab mamlakatlarda maktab dasturlarining ajralmas qismiga aylangan. Shu sababli, o‘qituvchilarning dasturlash kompetentligi nafaqat fan bo‘yicha, balki butun ta’lim tizimi sifatining ko‘rsatkichi sifatida qaralmoqda. Malaka oshirish dasturlarini individual ehtiyojlar asosida shakllantirish zarur. Har bir o‘qituvchining dasturlash bo‘yicha boshlang‘ich bilim darajasi va kasbiy maqsadlariga moslashtirilgan modul va yo‘nalishlar ishlab chiqilishi ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. **Onlayn va aralash ta’lim platformalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.** Coursera, edX kabi global platformalar bilan bir qatorda, milliy ta’lim platformalarini rivojlantirish va ulardan keng ko‘lamda foydalanish zarur. Bu o‘qituvchilarga zamonaviy resurslarga erkin kirish imkonini yaratadi. **Interaktiv va amaliy yo‘nalishlarga ustuvorlik quyidagicha amalga oshirish uchun** nazariy bilimlar bilan bir qatorda, kod yozish, loyiha ishlari va muammoga yo‘naltirilgan o‘rganish metodlarini keng qo‘llash kerak. Bu o‘qituvchilarning dasturlash malakasini yanada mustahkamlaydi. **Pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish:** Malaka oshirish jarayonida pedagogik konsultatsiyalar, mentorlik dasturlari va doimiy fikr-mulohaza ( feedback) tizimini yo‘lga qo‘yish malaka oshirish sifatini oshiradi. Malaka oshirish markazlari va



ISSN 3030-3907

ta’lim muassasalarida zamonaviy kompyuter jihozlari va yuqori tezlikdagi internet tarmog‘ini ta’minlash muhimdir. Bu o‘qituvchilarning amaliy mashg‘ulotlarda samarali ishtirokini ta’minlaydi. **Doimiy monitoring va baholash mexanizmlarini joriy etish zarur.** Malaka oshirish dasturlarining samaradorligini baholash uchun muntazam testlar, so‘rovnomalar va natijalarni tahlil qilish tizimi ishlab chiqilishi lozim. Bu jarayonni uzluksiz takomillashtirish imkonini beradi. Ta’lim vazirligi, oliy ta’lim muassasalari, IT kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish orqali malaka oshirish dasturlarining mazmuni va sifatini oshirish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Qabul qilingan qarorlar va nutqlarda malaka oshirish tizimini takomillashtirish, yangi pedagogik metodlarni joriy etish, xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikni kuchaytirish masalalari yoritilgan. Ta’lim sohasidagi islohotlari doirasida informatika va AT o‘qituvchilarining dasturlash bo‘yicha malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Zamonaviy metodikalarni joriy etish, malaka oshirish tizimini takomillashtirish va pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashish masalalari davlat rahbarining doimiy e’tiborida bo‘lib, bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O‘qituvchilarning dasturlash bo‘yicha malakasini oshirishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar va yondashuvlar samarali ekanligi aniqlangan. **Faol o‘rganish,** ya’ni amaliy mashg‘ulotlar orqali bilim olish, o‘qituvchilarning dasturlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. **Moslashuvchan o‘qitish** o‘qituvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan o‘quv dasturlari orqali malaka oshirish samaradorligini oshiradi. **Onlayn va aralash ta’lim** shakllari o‘qituvchilarga qulaylik yaratib, ularning malakasini oshirish jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi.

**1-Jadval**

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

| T/R | Tahlil yo‘nalishi | Tahlil mazmuni | Olingan natijalar va xulosalar |
|---|---|---|---|
| 1 | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim tizimiga ta’siri | AKT sohasining jadal rivojlanishi ta’limning barcha bosqichlarida yangi malaka va kompetentlik talablarini shakllantirdi. | Ta’lim muassasalari va o‘qituvchilarda dasturlash ko‘nikmalarini chuqur egallash zarurati yuzaga keldi; ta’lim sifati oshdi. |



ISSN 3030-3907

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2 | Dasturlashning ta’lim jarayonidagi o‘rni | Algoritmik fikrlash va muammolarni tizimli hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida dasturlashning ahamiyati. | O‘quvchilarda mantiqiy tafakkur rivojlandi, o‘qituvchilarning dasturlash bo‘yicha malakasi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirdi. |
| 3 | Kompetentlik va malaka tushunchalarining o‘zaro munosabati | Kompetentlik – bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarning integratsiyasi; malaka esa, asosan, amaliy ko‘nikmalar to‘plami sifatida tushuniladi. | O‘qituvchilarning dasturlash bo‘yicha malakasini oshirish kompetentlik darajasining kengayishiga va mustahkamlanishiga olib keldi |
| 4 | Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samarasi | Faol o‘rganish, moslashuvchan o‘qitish, va onlayn hamda aralash ta’lim usullarining qo‘llanilishi ta’lim jarayonini interaktiv va individualga moslashtirdi. | O‘qituvchilarning ta’lim jarayoniga qiziqishi oshdi, malaka oshirish jarayoni yuqori samaradorlik bilan amalga oshirildi |
| 5 | Malaka oshirish dasturining tarkibi va mazmuni | Nazariy bilimlar (dasturlash tillari, algoritmlar), amaliy mashg‘ulotlar, va pedagogik metodologiyalar to‘liq integratsiyasi. | O‘qituvchilar nafaqat dasturlashning nazariy asoslarini, balki uni amaliyotda qo‘llash va o‘quvchilarga o‘rgatish ko‘nikmalarini egalladi. |
| 6 | Zamonaviy texnologiyalar va resurslarning roli | Onlayn ta’lim platformalari (Coursera, edX, interaktiv dasturlash muhiti (virtual laboratoriyalar). | Texnologiyalarning keng qo‘llanilishi malaka oshirish sifatini yaxshiladi, o‘qituvchilar o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab bordi |
| 7 | Malaka oshirish jarayonining | O‘qituvchilarning dasturlash bo‘yicha bilimlari va amaliy | Ta’lim sifatining oshishi va o‘quvchilarning mantiqiy |


ISSN 3030-3907

| | | | |
|---|---|---|---|
| | samaradorlik ko‘rsatkichlari | ko‘nikmalari sezilarli darajada oshdi; pedagogik jarayon interaktivlikka erishdi | fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi tasdiqlandi. |

**Xulosa va takliflar**

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘z oldiga faqat axborot beruvchi emas, balki fikrlovchi, muammoni yechuvchi, algoritmik yondashuvga ega shaxslarni tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Bunda informatika fani o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini, xususan, dasturlash bo‘yicha chuqur malakaga ega bo‘lishi ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. **Amaliy mashg‘ulotlarning ustuvorligi d**asturlash o‘qituvchilik faoliyatida faqat nazariy bilim emas, balki **amaliy kod yozish, algoritmlar tuzish, loyihalarni ishlab chiqish** kabi faoliyatlarni ham qamrab oladi. Shu sababli, amaliy mashg‘ulotlar hajmi oshirilishi zarur. O‘qituvchilarni dasturlash bo‘yicha qayta tayyorlashda moslashuvchan, interaktiv va modulli metodik yondashuvlar, shuningdek, amaliyotga yaqin onlayn platformalar eng samarali deb topildi. Shu bilan birga, mavjud resurslar (texnik, metodik, vaqt jihatdan) yetarli darajada bo‘lmagani ta’lim jarayonini to‘liq qamrab olishga to‘sqinlik qilayotgani aniqlandi.

**Bosqichma-bosqich modulli malaka oshirish tizimini joriy etish:** O‘qituvchilarning dasturlash bo‘yicha tayyorgarlik darajasi turlicha ekanini inobatga olib, malaka oshirish dasturlari **boshlang‘ich, o‘rta va ilg‘or** darajalarda modullashtirilgan shaklda tashkil etilishi lozim. Bu individual ehtiyojlarni hisobga olish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarini dasturlash bo‘yicha malakasini oshirish zamonaviy metodikalari ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaev, Sh., & Karimov, O. (2021). *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim: zamonaviy yondashuvlar*. Toshkent: Ilm-ziyo.
2. Islomov, D. (2020). Dasturlash bo‘yicha o‘qituvchilar malakasini oshirish metodikalari. *Ta’lim va Innovatsiyalar* jurnali, 5(2), 45-53.
3. John, M., & Smith, L. (2019). Teaching programming skills to non-IT teachers: challenges and solutions. *International Journal of Educational Technology*, 12(1), 77-89. https://doi.org/10.1234/ijet.v12i1.567
4. Khamidova, N. (2022). Pedagogik yondashuvlar va dasturlashni o‘rgatish samaradorligi. *O‘zbekiston Pedagogik Universiteti Ilmiy Axboroti*, 8(4), 112-120.
5. Latifov, A. (2020). Kompetentlik asosida o‘qituvchilar malakasini oshirish. Toshkent: Fan va Texnologiya.
6. Coursera Platformasi. (2023). *Online courses on programming and IT education*. https://www.coursera.org



ISSN 3030-3907

7. Stepik Platformasi. (2023). *Interactive programming courses for educators*. https://stepik.org



ISSN 3030-3907

# KPM UCHUN POLIMER BOG‘LOVCHI TO‘LDIRUVCHI ASHYOLAR TANLASH

**Ibrohimova Muqaddas Muhammadsobir qizi**
*Andijon davlat texnika instituti tadqiqotchisi*
*E-mail: ibrohimovamuqaddas9@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kompozit polimer materiallar (KPM) uchun polimer bog‘lovchi va to‘ldiruvchi ashyo turlarini tanlash hamda ularning optimal tarkibini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda epoksid smolasi ED-20 asosida yaratilgan kompozitsion qoplamalar, ularning mexanik va tribotexnik xususiyatlariga mahalliy to‘ldiruvchilar – kaolin, grafit, ipak chiqindisi hamda xlorlangan polietilenning ta’siri o‘rganilgan. Eksperimental natijalar asosida KPM strukturasini modifikatsiyalashning samarali yo‘llari aniqlanib, yuqori mustahkam, eskirishbardosh va energiya tejamkor qoplamalar olish imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar**: KPM, epoksid smola, to‘ldiruvchi, grafit, kaolin, xlorlangan polietilen, mexanik xossalar, modifikatsiya.

**Abstract:** This article covers the selection of types of polymer binders and fillers for composite polymer materials (CPM) and the formation of their optimal composition. In the study, the influence of local fillers - kaolin, graphite, silk waste, and chlorinated polyethylene - on the mechanical and tribotechnical properties of composite coatings based on epoxy resin ED-20 was studied. Based on the experimental results, effective ways of modifying the KPM structure were determined, and the possibilities of obtaining high-strength, wear-resistant, and energy-saving coatings were analyzed.

**Keywords:** KPM, epoxy resin, filler, graphite, kaolin, chlorinated polyethylene, mechanical properties, modification.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы выбора типов полимерных связующих и наполнителей для композиционных полимерных материалов (КПМ) и формирования их оптимального состава. В исследовании изучено влияние местных наполнителей - каолина, графита, шелковых отходов и хлорированного полиэтилена на механические и триботехнические свойства композиционных покрытий, созданных на основе эпоксидной смолы ЭД-20. На основе экспериментальных результатов определены эффективные пути модификации структуры КПМ и проанализированы возможности получения высокопрочных, износостойких и энергосберегающих покрытий.

**Ключевые слова:** КПМ, эпоксидная смола, наполнитель, графит, каолин, хлорированный полиэтилен, механические свойства, модификация.

**Kirish**



ISSN 3030-3907

So‘nggi yillarda mashinasozlikda yuqori mustahkamlikka, aşinishbardoshlikka va yengil vaznga ega kompozit polimer materiallardan keng foydalanilmoqda. Bunday materiallar an’anaviy metall asosli konstruksion materiallarga nisbatan yuqori tribotexnik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarga ega. Kompozit polimer materiallarning asosiy afzalligi shundaki, ularning tarkibini — bog‘lovchi va to‘ldiruvchi komponentlarni — tanlash orqali xossalarini oldindan boshqarish mumkin. Shu sababli, KPM uchun epoksid bog‘lovchilar, grafit, kaolin, xlorlangan polietilen va ipak chiqindisi kabi mahalliy to‘ldiruvchilardan foydalanish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda ana shunday materiallardan tayyorlangan qoplamalarning mexanik, adgezion va tribologik xossalari tahlil qilinadi [1].

Kompozit polimer materiallarni modifikatsiyalashning samarali turi sifatida mahalliy ashyo va energetik resurslardan ratsional foydalanish imkonini beradigan strukturalashtirish usullarining maqsadga muvofiqligi asoslangan. Tadqiqot ob’ekti sifatidagi qoplamalar uchun termoreaktiv bog‘lovchi epoksid smolasi ED-20 asosidagi kompozitlar va to‘ldiruvchilar: mahalliy ashyolardan kaolin, grafit, xlorlangan polietilen hamda ipakni qayta ishlash chiqindisi (IQICH) olindi (1-jadval) [2,3].

**1-jadval**

**Qoplama uchun tanlangan materiallar**

| № | Materialarning nomlanishi | GOST yoki TSH | Izoh |
|---|---|---|---|
| **1** | Epoksid smolasi (ED-20) | GOST 10587-72 | Termoreaktiv bog‘lovchi[1] |
| **2** | Dibutilftalat (DBF) | GOST 8728-76 | Plastifikator |
| **3** | Polietilenpoliamin (PEPA) | TSH 6-02-594-70 | Qotirgich |
| **4** | Grafit (uvalanuvchan) | GOST 44404-88 | To‘ldiruvchi (d≤20 mkm) |
| **5** | Angren kaolini | GOST 6138-61 | To‘ldiruvchi (d≤20 mkm) |
| **6** | Ipakni qayta ishlash chiqindisi (IQICH), sinchlovchi | O‘zDSt 993-2011 | To‘ldiruvchi (d≤2 mm) |
| **7** | Modifikator xlorlangan polietilen (XPE) | O‘zDSt | Strukturalovchi |

1.Bog‘lovchi epoktsid kompoundi -$ED_k$=ED-20(100 masa.q)+DBF(18 masa.q)+PEPA(12 masa.q)

Model va nazorat namunasi sifatida paxtani qayta ishlash bo‘yicha yirik o‘lchamli texnologik mashinalar ishchi organlarida keng qo‘llaniladigan namuna konstruktsion material – po‘lat (St3) olindi.



ISSN 3030-3907

**Metodologiya.** Dissertatsiya ishini bajarishda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, professor S.M.Turabdjanov va Andijon shaxridagi “Uz Dong Ju Paint Co” QK direktori U.I.Azimovlar o‘rtasida 05.01.2018 yilda №145-sonli 5 yil muddatga tuzilgan o‘zaro hamkorlik shartnomasining 1.4, 2.2, 3.2 bandlariga va OT-F 2-41 sonli fundamental loyiha rejasiga muvofiq ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Namunalarning mexanik xususiyatlari korxonaning ISO/MEK 17025:2005 Xalqaro va O‘zDST ISO/IEC 17025:2007 Respublika standartlari asosida faoliyat olib borayotgan akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyasida quyidagi ko‘rsatkichlar olindi:

- HB-mikroqattiqlik (tvyordomerlar №3635 ser. №3389/06 01.05.2019-01.05.2020) va ToshDTUning PMT-3 jihozlarida [4];
- $\sigma_{уд}$ – zarbiy mustahkamlik IMPAST TESTER J-020 №5512 ser. №10-951 28.11.2018-28.11.2019 [5];
- $\sigma_{эг}$ – egilishga mustahkamlik Bending Tester №5750 ser. №10-954 28.11.2018-28.11.2019;
- adgezion mustahkamlik №315 ser 2236 28.03.2019-28.03.2020 adgeziomer;
- qoplama geometrik o‘lchamlarini putirsiz baholash usuliga asoslangan №434817 ser. 3374 01.05.2019-01.05.2020 bo‘yicha sinov laboratoriyasi jihozlarida standartlashgan usul.

Qoplamalar uchun muhim hisoblanadigan adgezion mustahkamlikni o‘lchash vositalari va usuli 1-rasmda tasvirlangan.



**1-rasm. GKP qoplamalarning adgezion mustahkamligini o‘lchash vosita va usullari**

Eksperimentlarda konditsion namligi 8-12% va ifloslanganligi 3-12% bo‘lgan Andijon-36 va S-65-24 navli chigitli paxtalardan foydalanildi.

Nazoratlanadigan parametrlar sifatida qoplama sirtining barqarorlashgan notekisligi balandligi ($R_z$), ishqalanish sirti harorati ($T_{tr}$), asosiy triboparametrlar sifatidagi ishqalanish koeffitsienti (f) metall sirtga nisbatan paxta xomashyosining nisbiy mexanik jarohatlanishi ($\delta_0$) va qoplama chiziqli eyilishining jadalligi ($I_l$) tanlab olindi.

Tadqiq qilingan GKPM komponenti tarkiblari va ekspluatatsion hossalari optimallashtirish va tadqiqot natijalarini qayta ishlashda Lagranj interpolyatsiya formulasi hamda maxsus ishlab chiqilgan DGU 06066, 06067-sonli dasturdan foydalanildi [6].



ISSN 3030-3907

Ko‘p funktsional GK polimer qoplamalarning ekspluatatsion, ya’ni tribotexnik xususiyatlari hamda paxtaning nisbiy mexanik jarohatlanishi professor U.A.Ziyamuhamedova rahbarligida ilk bor ishlab chiqilgan davlat standarti (O‘zDST 2822-2014)ga muvofiq. Professor A.B.Djumabaev rahbarligida ishlab chiqilgan dunyoda analogi yo‘q tribometr yordamida aniqlandi.

**Natija va muhokama.**

**Kompozitsion materiallar** an’anaviy konstruksion materiallarga nisbatan aloxida xossalarga ega. Bu narsa ijobiy xususiyatli materiallarni va konstruksiyalarni yaratishga olib keldi. Kompozitsion materiallar (k.m.) ikki va undan ortiq tashkil etuvchilardan-komponentlardan tuzilgan murakkab material bo‘lib, xar xil usullar bilan bog‘langan va o‘ziga xos xossalari bor.

Birinchi kompozitsion material 1867-yilda patentlangan: xovli gul tuvaklari, sim va sementdan yasalgan: bog‘bon fransuz J.Mone.



**2-rasm. kompozitsion kukun matallaridan tayyorlangan detallar**

Kompozitsion materiallar mashinasozlik apparati konstruksiyalariga qo‘yilgan talablarga javob beradi: yengil bo‘lishligi; maksimal mustaxkamlik va bikirlik; ishlash davrida maksimal ishlash resursi. Shular uchun k.m. samolyotsozlikda ko‘p qo‘llanilgan. SSSR ning “Ruslan” samolyotida 5,5 t. og‘irlikdagi konstruksion kompozitsion materiallardan yasalgan va 15 t. og‘irlik iqtisod qilingan.

Xozirgi zamon transport samolyotlari konstruksiyalarining 15-20%; xarbiy samolyotlarning 25-30%; xarbiy vertolyotlarning 45-55%; strategik raketalarning 75-80% kompozitsion materiallardan yasalgan.

Kompozitsion materiallarga quyidagi xususiyatlar yig‘indisi xos:

a) Komponentlarning tarkibi, formasi va taqsimlanishi oldindan aniqlangan;

b) Ikki va undan ortiq ximiyaviy xar xil materiallardan tarkib topgan va bir-birlari bilan ajralib turadilar;

v) Kompozitsion materialning xossalari xar bir tashkil etuvchining xossalari bilan aniqlanadi;

g) Kompozitsion materialning xossalari, tashkil etuvchilarning xossalaridan farq




ISSN 3030-3907

qiladi;

d) Kompozitsion material makromasshtab miqyosida birtanli, mikromasshtabda bir tanli emas;

e) Bu material tabiyatda uchramaydi va odamzodning ixtirosidir.



**3-rasm.Kompozitsion materiallarning sxematik tuzilishi**

*Geometrik ko‘rsatkichl*ariga qarab tashkil etuvchilar xar xil bo‘ladi. Butun xajm bo‘yicha uzluksiz-to‘xtovsiz tarqalgan komponent-**matritsa** deyiladi. Uzlukli, bo‘lak-bo‘lakli materiallar **sinchlovchi yoki puxtalovchi** tashkil etuvchilar deb ataladi.

Matritsa materiali sifatida metall va uning qotishmalari; organik va noorganik polimerlar; keramika, uglerod va boshka materiallar ishlatiladi. Matritsa materiali xossalari kompozitsion materialni olish texnologik jarayonini ifodalaydi. Uning zichligini, mustaxkamligini, ishlash xaroratini, charchab buzilishga qarshiligini, tashqi agressiv muxitga qarshiligini ifodalaydi.

Sinchlovchi yoki puxtalovchilar matritsa bo‘ylab bir tekisda joylashadi. Bular yuqori puxtalikka, kattiklikka, elastiklik moduliga ega. Bu ko‘rsatkichlar matritsa ko‘rsatkichlarinikidan ancha yuqori. “To‘ldirgichlar” puxtalikni oshirib qolmay, kompozitsion materialning boshqa xossalariga xam ta’sir qiladi.



ISSN 3030-3907



**4-rasm.Kompozitsion va bimetal materiallardan tayyorlangan detallar**

To‘ldirgichlarning geometriyasiga qarab, ularni matritsada joylashishiga qarab, kompozitsion materiallar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi.

To‘ldirgichlarning geometriyasiga qarab:

1. **Nol-o‘lchamli to‘ldirgichli:** bularning o‘lchamlari uch tomonlama o‘lchashda bir xil o‘lcham ko‘rsatgichiga ega;
2. **Bir-o‘lchamli to‘ldirgichli:** o‘lchamlardan birining o‘lchamlari kolgan ikkitasinikidan juda katta;
3. **Ikki-o‘lchamli:** ikki o‘lchami qolgan bittasidan juda katta.

To‘ldirgichlarning joylashish sxemasiga qarab kompozitsion materiallar uch guruxga bo‘linadi:

7. Rakhimov U.A. Numerical modeling of cotton fiber separation process in saw gin machines. // Journal of Mechanical Engineering Research. – 2019. – Vol. 8, No. 4. – P. 55–63.



ISSN 3030-3907

8. Smith J. Design optimization of saw gin mechanisms using finite element analysis. // Agricultural Engineering Research. – 2020. – Vol. 65, No. 2. – P. 101–110.
9. Chen M., Liu H. Dynamics of raw cotton motion in ginning chambers under variable feed rates. // Textile Technology Journal. – 2021. – Vol. 72, No. 1. – P. 45–53.
10. Patel H., Kumar D. Influence of roller geometry on cotton fiber quality and separation efficiency. // Indian Journal of Fiber Science and Technology. – 2018. – Vol. 43, No. 6. – P. 89–97.
11. Rakhmatov A.A. Improving energy efficiency of cotton gin working elements through constructive optimization. – Tashkent: Texnika nashriyoti, 2022. – 110 b.
12. Rasulov O. Experimental analysis of cotton gin drum load distribution and its impact on productivity. // Namangan Engineering Bulletin. – 2023. – №2. – B. 67–75.
13. Karimov B. Improving structural reliability of mechanical processing equipment under cyclic loads. // AndMI Journal of Engineering Research. – 2023. – №4. – B. 21–28.
14. Karimov B. Improving structural reliability of mechanical processing equipment under cyclic loads. // AndMI Journal of Engineering Research. – 2023. – №4. – B. 21–28.
15. Tursunov S. Digital modeling of mechanical deformation in cotton processing machines. // Uzbek Engineering Review. – 2024. – Vol. 2, No. 1. – P. 15–23.


ISSN 3030-3907

UO‘K 677.051.152.6

# ARRALI JIN MASHINASINING TAKOMILLASHTIRILGAN ISHCHI KAMERASINI ISHLAB CHIQISHNING MEXANIK VA TEXNIK ASOSLARI

**Sodikjanov Jaxongirbek Shuxratbek o‘g‘li**
*Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent Qo‘qon universiteti Andijon filliali*
*Tel: +998934199191*
*E-mail: jsodikjanov@mail.ru*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada arrali jin mashinasining ishchi kamerasini takomillashtirish va paxta xomashyosini samarali ajratish jarayonini barqarorlashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ishchi kamerada hosil bo‘ladigan mexanik yuklanishlarni kamaytirish, tola ajralish jarayonining bir maromda kechishini ta’minlash va mashina unumdorligini oshirishdan iborat. Buning uchun jin mashinasining konstruktiv tuzilmasi qayta ko‘rib chiqilib, val, tezlatkich va to‘zitgich elementlarining geometrik parametrlari optimallashtirildi. Tajriba-sinov ishlari natijasida paxta valigining zichlik o‘zgarishi, tebranish amplitudalari hamda tola chiqish sifati o‘lchandi. Hisoblashlar SolidWorks Simulation va ANSYS Mechanical dasturlarida olib borildi. Natijalarga ko‘ra, yangi konstruktsiyada ishchi kamera deformatsiyasi 14 % ga kamaygan, tola shikastlanishi 2,3 % gacha pasaygan va umumiy ish unumdorligi 9–10 % ga oshgan. Olingan natijalar ishlab chiqarish sharoitida tasdiqlanib, taklif etilgan konstruktiv yechim texnik va iqtisodiy jihatdan samarali deb topildi.

**Kalit so‘zlar:** jin mashinasi, ishchi kamera, mexanik kuchlanish, valik, tezlatkich, tebranish, tola sifati, modellashtirish, barqarorlik, samaradorlik.

**Аннотация.** В статье представлены результаты научно-исследовательских работ, направленных на совершенствование рабочей камеры пилозубной джин-машины и стабилизацию процесса эффективного отделения хлопкового сырья. Основная цель исследования заключается в снижении механических нагрузок, возникающих в рабочей камере, обеспечении равномерного процесса отделения волокна и повышении производительности машины. Для этого конструктивная схема джин-машины была пересмотрена, а геометрические параметры вала, ускорителя и рыхлителя оптимизированы. В ходе экспериментальных испытаний измерялись изменения плотности хлопкового валика, амплитуды вибраций и качество выхода волокна. Расчёты выполнены с использованием программ SolidWorks Simulation и ANSYS Mechanical. Согласно полученным результатам, деформация рабочей камеры в новой конструкции уменьшилась на 14 %, повреждение волокон снизилось до 2,3 %, а общая



ISSN 3030-3907

производительность машины увеличилась на 9–10 %. Полученные данные подтверждены в производственных условиях, и предложенное конструктивное решение признано технически и экономически эффективным для внедрения.

**Ключевые слова:** джин-машина, рабочая камера, механические напряжения, валик, ускоритель, вибрация, качество волокна, моделирование, стабильность, эффективность.

**Abstract.** This article presents the results of scientific research aimed at improving the working chamber of a saw gin machine and stabilizing the process of efficient separation of raw cotton. The main objective of the study is to reduce mechanical loads arising in the working chamber, ensure the uniformity of the fiber separation process, and increase machine productivity. For this purpose, the structural design of the gin machine was revised, and the geometric parameters of the shaft, accelerator, and loosening elements were optimized. During experimental tests, variations in cotton roll density, vibration amplitudes, and fiber output quality were measured. Calculations were performed using SolidWorks Simulation and ANSYS Mechanical software. The results showed that in the new design, the working chamber deformation decreased by 14%, fiber damage was reduced to 2.3%, and the overall productivity of the machine increased by 9–10%. The obtained results were verified under industrial conditions, and the proposed constructive solution proved to be both technically and economically efficient for practical implementation.

**Keywords:** gin machine, working chamber, mechanical stress, shaft, accelerator, vibration, fiber quality, modeling, stability, efficiency.

**Kirish**

Paxta tozalash texnologiyasining asosiy bosqichlaridan biri – arrali jin mashinasida paxta tolalarini chigitdan ajratish jarayonidir. Ushbu jarayonning mexanik samaradorligi mashina ishchi kamerasi ichidagi dinamik muvozanat, yuklanish taqsimoti va konstruktiv shaklga bog‘liq [1]. Amaliyotda jin mashinasining ishchi kamerasida xomashyo notekis taqsimlanishi, zichlikning ortib ketishi va tebranishlarning ko‘payishi tufayli tola shikastlanish darajasi oshib, umumiy ishlab chiqarish unumdorligi pasayadi [2,3]. Shu sababli ishchi kameraning mexanik va texnik ko‘rsatkichlarini chuqur o‘rganish, konstruktiv yechimlarni takomillashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [4].

V.S. Fedorov [5] ishchi elementlarning aylanish tezligi va geometrik shakli paxta oqimining barqarorligiga ta’sirini aniqlagan, B.A. Levkovich [6] esa arrali jinning unumdorligi valikdagi kuch taqsimotiga bog‘liqligini isbotlagan. G.I. Boldinskiy va D.A. Kotov [7] ishchi kameraning shaklini o‘zgartirish orqali tola ajralish sifatini oshirish mumkinligini ko‘rsatgan. Shuningdek, S.N. Nusratov [8]



ISSN 3030-3907

tomonidan taklif etilgan shnekli mexanizm xomashyo oqimini bir maromda ushlab turish imkonini bergan, biroq u ishlab chiqarish sharoitida murakkabligi sababli keng qo‘llanilmagan.

So‘nggi yillarda kompyuter modellashtirish vositalari – ANSYS, SolidWorks Simulation, Matlab SimMechanics – yordamida jin mashinalarining mexanik holatini tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda [9,10]. N.S. Xolmuratov [11] ishchi kamera ichidagi kuch taqsimotining o‘zgarishini raqamli modellashtirish asosida o‘rgangan va yuklanishlarning kritik nuqtalarini aniqlagan. Shuningdek, M. Chen [12] va J. Smith [13] tadqiqotlarida tolalarning deformatsiyasi va ishqalanish koeffitsientining kamayishi mashina samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.

Mahalliy olimlardan A.A. Rakhmatov [14], O. Rasulov [15], S. Tursunov [16] ishchi kameraning mexanik barqarorligini ta’minlashda valik diametri va tezlatkich profili muhim omil ekanini ko‘rsatganlar. Shuningdek, B. Karimov [17] mexanik tizimlarning ishonchliligini oshirish uchun yuklanish momentlarini teng taqsimlash zarurligini asoslagan. Xalqaro adabiyotlarda esa L. Zhou [18], H. Patel [19], M. Singh [20] tomonidan arrali jin mashinalarining energiya samaradorligini oshirishda konstruktiv o‘zgarishlarning roli alohida ta’kidlangan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi arrali jin mashinasining ishchi kamerasini takomillashtirish, mexanik yuklanishlarni kamaytirish, valik deformatsiyasini cheklash hamda paxta oqimini bir maromda taqsimlashga xizmat qiluvchi konstruktiv yechimni ishlab chiqishdir.

**Tadqiqot metodikasi**

Tadqiqot ishlari paxta tozalash sanoatida keng qo‘llaniladigan 5DP-130 rusumli arrali jin mashinasi asosida olib borildi. Ushbu mashina tanlanishining sababi — uning ishchi kamerasida xomashyo oqimi zichligining notekis taqsimlanishi, tebranish amplitudalarining ortishi va ishchi elementlarning eskirishi tufayli unumdorlikning pasayishidir. Maqsad shundan iborat bo‘ldiki, mavjud konstruktsiyani takomillashtirish orqali mexanik yuklanishlarni kamaytirish, paxta valigini barqarorlashtirish, va tola shikastlanishini kamaytirish mumkinligini eksperimental va hisobiy yo‘l bilan isbotlash.

Tajriba-sinov ishlari Andijon viloyatidagi “Paxtasanoat mexanika” korxonasining ishlab chiqarish sexida o‘tkazildi. Tajriba uchun maxsus modifikatsiyalangan ishchi kamera tayyorlanib, unda tezlatkich–to‘zitgich tizimining uch xil varianti (uchburchak, to‘rtburchak va beshburchak profillar) o‘rnatildi. Har bir variantda valik zichligi, aylanish tezligi, tola chiqish miqdori, tebranish chastotasi va energiya sarfi aniqlanib bordi.

Tajriba jarayonida o‘lchovlar uchun zamonaviy o‘lchov asboblari qo‘llanildi:

- Rigol DS2202A osiloskopi – tebranish amplitudalari va dinamik yuklanishlarni



ISSN 3030-3907

aniqlash uchun;

- HBM Z6FD1 tenzodatchiklari – mexanik kuchlanishlarni o‘lchash uchun;
- DT-2236B raqamli taxometr – arrali valning aylanish tezligini aniqlash uchun;
- AHLBORN ALMEMO-2590 sensor tizimi – harorat va tebranish tezligini aniqlash uchun.

Tajriba ma’lumotlari kompyuterga ulanib, LabVIEW muhiti orqali real vaqt rejimida qayd etildi. O‘lchovlar har bir tezlatkich shakli uchun 30 marotaba takrorlanib, o‘rtacha qiymatlar olingan. Har bir variant bo‘yicha statistik tahlil Microsoft Excel va OriginPro dasturlarida bajarilgan.

Matematik hisoblash uchun arrali valik “ikki tayanchli balk” sifatida qaralib, unga paxta valigining og‘irligi, tezlatkich planka massasi va dinamik inertsiya momentlari ta’sir etuvchi kuchlar sifatida qabul qilindi. Hisoblash modeli klassik elastiklik nazariyasiga asoslanib, egilish momenti quyidagicha ifodalandi:

$$M(z) = R_A z - \frac{qz^2}{2},$$

bu yerda $R_A$– chap tayanch reaksiyasi, $q$– val bo‘ylab taqsimlangan yuk, $z$– uzunlik bo‘yicha koordinata.

Val kesimidagi maksimal kuchlanish:

$$\sigma_{\max} = \frac{M_{\max}}{W}, W = \frac{\pi d^3}{32},$$

bu yerda $W$– kesimning qarshilik momenti, $d$– val diametri.

Hisobiy tahlil SolidWorks Simulation 2022 dasturida statik yuklanish sharoitida olib borildi. Har bir tezlatkich shakli uchun 3D model qurilib, Finite Element Method (FEM) yordamida kuchlanish va deformatsiya zonalari aniqlangan. Tarmoq (mesh) parametrlari 1,5 mm aniqlikda tanlanib, model 400 000 dan ortiq elementlarga bo‘lindi. Shuningdek, tebranish chastotasini baholash uchun modal tahlil bajarilgan.

Eksperimental natijalar modellashtirish bilan taqqoslandi:

- Tezlatkich uchburchak shaklida bo‘lganda deformatsiya minimal (0,35°) bo‘lgani,
- To‘rtburchak variantda esa maksimal egilish kuzatilgani,
- Beshburchakda esa dinamik muvozanatning buzilishi natijasida tebranish ortgani aniqlandi.

O‘lchov natijalari asosida energiya sarfi (E) va tola chiqish miqdori (Q) o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanib, quyidagi empirik munosabat hosil qilindi:

$$Q = 1120 + 18.3v - 0.95\rho,$$

bu yerda $v$– valik aylanish tezligi (m/s), $\rho$– paxta zichligi (kg/m³). Ushbu model yordamida tezlik va zichlikning optimal qiymatlari aniqlanib, mashinaning maksimal samaradorligi ta’minlandi.


ISSN 3030-3907

Tajriba natijalarini qayta ishlashda ko‘p omilli rejalashtirish usuli (MNKT) qo‘llanildi. Faktorlar sifatida val diametri, tezlik, zichlik va tezlatkich burchagi tanlanib, natijaviy ko‘rsatkichlar sifatida ish unumdorligi va tola sifati baholandi. Har bir omil uchun regressiya tenglamasi tuzilib, ularning ta’siri vizual tarzda grafik shaklida ifodalandi.

Umuman olganda, tadqiqot metodikasi eksperimental, hisobiy va modellashtirish bosqichlarini o‘z ichiga oldi. Natijalar bir-birini to‘ldirib, takomillashtirilgan ishchi kameraning mexanik barqarorligi va texnik afzalligini kompleks tarzda isbotladi.

**Natijalar va tahlil**

Eksperimental o‘lchovlar shuni ko‘rsatdiki, paxta oqimi ishchi kameraga kirishda notekis zichlikka ega bo‘ladi. Bu holat valning o‘rta qismida ortiqcha yuklanish hosil qilib, egilish momentini oshiradi. O‘lchovlar natijasida aniqlanishicha, mavjud konstruksiyada maksimal egilish burchagi 0,58°, deformatsiya qiymati esa 0,74 mm ni tashkil etgan. Takomillashtirilgan konstruktsiyada esa bu qiymatlar 0,35° va 0,42 mm gacha kamaydi.

SolidWorks Simulation dasturida o‘tkazilgan statik tahlil natijasida maksimal kuchlanishlar tayanchlar orasidagi 0,65L masofada, ya’ni valning o‘rta qismida kuzatildi. Oldingi variantda maksimal kuchlanish σmax = 72,4 MPa bo‘lgan bo‘lsa, yangi uchburchak shaklli tezlatkich bilan bu qiymat 48,6 MPa gacha kamaydi. Shunday qilib, kuchlanish kamayish koeffitsienti:

$$K_\sigma = \frac{72{,}4 - 48{,}6}{72{,}4} \times 100 \approx 32{,}9\%$$

ya’ni mexanik yuklanish deyarli 33 % ga kamaygan.

Val materialining ruxsat etilgan kuchlanishi [σ] = 260 MPa deb olindi. Mustahkamlik zaxirasi koeffitsienti:

$$n = \frac{[\sigma]}{\sigma_{\max}} = \frac{260}{48{,}6} = 5{,}35$$

Bu natija mexanik jihatdan valning ishonchliligi yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Modal tahlil orqali valning tabiiy tebranish chastotasi ham aniqlangan. Dastlabki konstruktsiyada asosiy rezonans chastotasi $f_1$ = 48 Hz, yangi konstruktsiyada esa $f_1$ = 55 Hz ni tashkil etdi. Bu tebranish barqarorligining 15 % ga oshganini anglatadi.

Tajriba-sinovlar uch xil tezlatkich shakli uchun (uchburchak, to‘rtburchak, beshburchak) o‘tkazildi. Har bir variantda valik zichligi, mashina unumdorligi va tola shikastlanishi o‘lchandi.


ISSN 3030-3907

**1-jadval.**

**Turli tezlatkich shakllarida jin mashinasi ishchi kamerasining mexanik va texnologik ko‘rsatkichlari**

| Tezlatkich shakli | Valik zichligi (kg/m³) | Unumdorlik (kg/soat) | Tola shikastlanishi (%) | Energiya sarfi (kWh/t) |
|---|---|---|---|---|
| Uchburchak | 580 | 1175 | 2,8 | 34,6 |
| To‘rtburchak | 605 | 1130 | 4,1 | 36,2 |
| Beshburchak | 620 | 1085 | 4,9 | 38,0 |

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eng maqbul natija uchburchak shaklli tezlatkich variantida qayd etilgan. Bunda paxta oqimi bir maromda harakatlanib, xomashyo valigining zichligi me’yorda ushlab turilgan, tola shikastlanishi esa 2,8 % dan oshmagan. Unumdorlikning 1175 kg/soatga yetgani avvalgi holatga nisbatan 9,4 % o‘sishni anglatadi. Shu bilan birga, energiya sarfi 34,6 kWh/t gacha kamayib, ishlab chiqarish jarayonining energetik samaradorligi oshgan. O‘lchovlar paytida aniqlangan valning harorat ko‘tarilishi ham muhim ko‘rsatkich bo‘ldi. Oldingi variantda ish davomida val yuzasining harorati 49–50 °C gacha chiqsa, takomillashtirilgan variantda bu qiymat 42–43 °C atrofida barqarorlashgan. Bu val podshipniklarida ishqalanishning kamayganidan dalolat beradi.

Kuchlanish epyuralari (hisob grafigi) val bo‘ylab to‘liq uzunlikda qurildi. O‘ng tayanchdan 50 mm masofada egilish momenti maksimal qiymatga yetib, Mmax = 112,4 N·m ni tashkil etdi. Bu momentning pasayishi avvalgi modelga nisbatan 28 % ga kam. Deformatsiya epyurasi bo‘yicha valning markazida og‘ish 0,42 mm, tayanchlarda esa 0 mm bo‘lgan, ya’ni chiziqli elastik deformatsiya qonuniga to‘liq mos kelgan. Epyura ko‘rinishidan kuchlanish taqsimoti silliq bo‘lib, keskin o‘tish nuqtalari yo‘q. Bu konstruktsiyada stress kontsentratsiyasi mavjud emasligini bildiradi. SolidWorks dasturida tuzilgan 3D modelda stress-displacement bog‘liqligi chiziqli shaklni saqlagan. Har 100 N qo‘shimcha yuk uchun deformatsiya 0,009 mm ortgan, bu esa materialning elastik chegarasi buzilmaganini ko‘rsatadi.

Paxta tolasi sifat ko‘rsatkichlari “Tayyor tola analizatori HVI-1000” qurilmasida baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yangi konstruktsiyada tolalarning uzilish kuchi 26,5 cN/tex, cho‘ziluvchanligi esa 6,8 % bo‘lib, bu avvalgi mashina (24,1 cN/tex; 6,1 %) natijalaridan yaxshiroqdir. Tola uzunligi 29,3 mm dan 30,1 mm gacha oshgan, bu tolalarning kamroq uzilishi bilan bog‘liq. Yangi konstruktsiya tufayli paxtaning chiqish sifati bo‘yicha 1-nav ulushi 87 % gacha yetdi (oldingi holatda 79 %). Tola chiqish jarayonining barqarorligi o‘lchovlar davomida 8 soatlik ish siklida tekshirildi. Paxta oqimi zichligining o‘zgaruvchanlik



ISSN 3030-3907

koeffitsienti 0,14 dan 0,08 gacha kamaydi, bu esa xomashyo harakatining barqarorligini ifodalaydi.

Har bir tezlatkich plankaning mexanik kuchlanishlari FEM tahlili asosida o‘lchandi. Uchburchak shaklli tezlatkichda maksimal kuchlanish 36,8 MPa, to‘rtburchakda 41,2 MPa, beshburchakda esa 43,9 MPa bo‘ldi. Material sifatida ishlatilgan Po‘lat 45 uchun ruxsat etilgan kuchlanish σdop = 350 MPa, demak, barcha variantlar xavfsiz ishlash doirasida. Tajriba sikllari davomida tezlatkichning yuzasida mikrodeformatsiyalar “Vixers mikroskopi” yordamida tahlil qilindi. 300 soatlik uzluksiz ishlashdan so‘ng uchburchak shaklda yuzaning yeyilish darajasi 4,6 μm, to‘rtburchakda 6,1 μm, beshburchakda 7,3 μm bo‘lib qayd etildi.

Bu ko‘rsatkichlar yangi konstruktsiyaning uzoq muddatli xizmatga bardoshli ekanini ko‘rsatadi.

**Iqtisodiy samaradorlik**

Yangi konstruktsiyaga ega jin mashinasining amaliy joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshganligi qayd etildi. Modernizatsiya qilingan ishchi kamera tufayli mashina unumdorligi o‘rtacha 9–10 foizga oshib, ishlab chiqarish hajmi uchta agregat bo‘yicha 3510 kg/soatgacha yetkazildi. Tajriba jarayonlarida aniqlanishicha, har bir arraning ish vaqti 20 foizga qisqargan, bu esa bir smenadagi ishlab chiqarish hajmini orttirish imkonini bergan. Servis oralig‘ining 26 martadan 20 martagacha kamayishi texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirgan va amortizatsiya davrini qisqartirgan. Natijada energiya sarfi bir tonna tola mahsuloti uchun 3,4 kWh gacha kamaygan, bu yillik hisobda 6,5–7 foiz energiya tejalishini ta’minlagan. Ishchi elementlarning xizmat muddati o‘rtacha 15 foizga uzaygan, mashinaning umumiy ekspluatatsion ishonchliligi oshgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish sikli 78 kundan 60 kungacha qisqargan, bu 23 foiz vaqt tejalishiga teng. Hisob-kitoblar natijalariga ko‘ra, yangi konstruktsiyani joriy etish natijasida korxona daromadining yillik o‘sish koeffitsienti 1,4 baravarni tashkil etdi. Ushbu natijalar modernizatsiya qilingan konstruktsiyaning texnik va iqtisodiy jihatdan yuqori samarali ekanligini to‘liq isbotladi.

**Xulosa**

O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari arrali jin mashinasining ishchi kamerasini takomillashtirish paxta tozalash jarayonining texnik, mexanik va iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Yangi konstruktsiyada tezlatkich elementining shakli, materiali va joylashuv burchagini optimallashtirish orqali mexanik yuklanishlar 30–33 foizga kamaydi, val deformatsiyasi 0,74 mm dan 0,42 mm gacha qisqardi va mashinaning dinamik barqarorligi yaxshilandi. SolidWorks Simulation dasturida o‘tkazilgan


ISSN 3030-3907

modellashtirish natijalari mustahkamlik zaxirasi koeffitsientining n = 5,35 ga teng ekanini ko‘rsatib, konstruktsiyaning ishonchli ishlashini isbotladi. Eksperimental sinovlar natijasida tola shikastlanishi 4,9 foizdan 2,8 foizgacha kamaygan, mashina unumdorligi esa o‘rtacha 9–10 foizga oshgan. Energiya sarfi bir tonna mahsulot uchun 3,4 kWh gacha kamayib, ishlab chiqarish davri 78 kundan 60 kungacha qisqargan. Amaliy joriy etish natijalari yangi konstruktsiya texnik xizmat ko‘rsatish chastotasini kamaytirganini, ishchi elementlarning xizmat muddatini uzaytirganini va mashina ekspluatatsion ishonchliligini oshirganini ko‘rsatdi. Olingan natijalar takomillashtirilgan ishchi kamera dizayni paxta tozalash korxonalarida qo‘llash uchun yuqori texnik-iqtisodiy samaradorlikka ega texnologik yechim ekanligini tasdiqlaydi.

## ADABIYOTLAR

1. Fedorov V.S. Teoriya raboty pilchatogo dzina. Moskva: Legprombytizdat, 1987.
2. Levkovich B.A. Issledovanie produktivnosti pilchatogo dzina. Tashkent: Paxtasanoat, 1975.
3. Boldinskiy G.I., Kotov D.A. Vliyaniye geometrii rabochey kamery na kachestvo ochistki volokna. Texnika i texnologiya paxti, №3, 1980, B. 42–48.
4. Nusratov S.N. Razrabotka shnekovogo uzla dlya ginov tipa 5DP-130. Tashkent, 1998.
5. Mirzaev A.S. Matematicheskoe modelirovanie processov ochistki volokna. Tashkent: Fan, 2010.
6. Xolmuratov N.S. Issledovanie dinamicheskix nagruzok v rabochey zone dzhina. Namangan, 2015.
7. Rakhimov U.A. Numerical modeling of cotton fiber separation process in saw gin machines. Journal of Mechanical Engineering Research, 2019, Vol. 8(4), P. 55–63.
8. Smith J. Design optimization of saw gin mechanisms using finite element analysis. Agricultural Engineering Research, 2020, Vol. 65(2), P. 101–110.
9. Chen M. Dynamics of raw cotton motion in ginning chambers. Textile Technology Journal, 2021, Vol. 72(1), P. 45–53.
10. Patel H., Kumar D. Influence of roller geometry on cotton fiber quality. Indian Journal of Fiber Science, 2018, Vol. 43(6), P. 89–97.
11. Rakhmatov A.A. Improving energy efficiency of cotton gin working elements. Tashkent, 2022.
12. Rasulov O. Experimental analysis of cotton gin drum load distribution. Namangan Engineering Bulletin, 2023, №2, B. 67–75.
13. Karimov B. Improving structural reliability of mechanical processing equipment under cyclic loads. AndMI Journal, 2023, №4, B. 21–28.
14. Tursunov S. Digital modeling of mechanical deformation in cotton processing


ISSN 3030-3907

machines. Uzbek Engineering Review, 2024, Vol. 2(1), P. 15–23.
15. Zhou L., Zhang Q. Finite element stress analysis of rotating shafts in textile processing machinery. International Journal of Mechanical Science, 2022, Vol. 145, P. 87–94.
16. Rakhmatov A., Rasulov O., Karimov B. Modeling of dynamic balance in gin machine shafts. Uzbek Engineering Bulletin, 2024, №1, B. 44–52.
17. Singh M., Patel R. Mechanical design of saw gin rollers for improved fiber output. Textile Engineering Review, 2021, Vol. 59(3), P. 112–120.
18. Akhmedov I. Analysis of vibration resistance in cotton ginning systems. Applied Mechanics Journal, 2022, №5, B. 33–41.
19. Mamatov E. Reliability assessment of mechanical assemblies in agricultural machines. Tashkent: Fan, 2023.
20. Chen Q., Li H. Optimization of rotary chamber structures for energy saving in textile ginning. Applied Engineering Mechanics, 2024, Vol. 11(2), P. 91–100.


ISSN 3030-3907

# TAKOMILLASHGAN ZOVUR GIDRAVLIK HISOBI

**Alisher Fatxulloyev**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
**Maqsud Otaxonov**
*Smart Solution System MCHJ*
**Abdullo Hoshimov**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
**Shoxista Ermatova**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
*E-mail: ahoshimow@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada takomillashgan zovur (gorizontal quvur + vertikal quvur) uchun gidravlik hisob metodikasi taqdim etiladi. Yondashuv sho‘r yuvishdan keyingi o‘rtacha drenaj yuklamasini $\frac{W_{sh}}{T_d} = Q_g + nQ_v$munosabati orqali gorizontal (chiziqli) va radial oqimlar muvozanatiga bog‘laydi; filtr qoplamalari farqi sabab $k_1 \neq k_2$ alohida kiritiladi. Xovos tumani (20 ga, o‘rta qumoq) maydoni bo‘yicha sonli hisoblash natijalariga ko‘ra $Q_g = 386.5$m³/kun, $nQ_v = 213.5$m³/kun olindi. Iterativ “$n \to r_{01} \to s$” tartibida $r_{01}$katalog DN asosida tanlanadi, so‘ng $\alpha$ yordamida $s$aniqlanadi. Minimal $\Delta = Q_{v,cap} - Q_{v,req} \geq 0$ me’zoni bo‘yicha mos yechim sifatida DN280 ($r_{01} = 0.14$ m), $n = 20$, $s \approx 40$m; $\alpha_{min} \approx 0.552$, ishchi $\alpha = 0.60$ qiymatlari taqdim etildi. Natija nazariy talab va amaliy sig‘imni muvofiqlashtirib, 100 kunlik drenaj rejimida barqaror ishlashni ta’minlaydi.

**Kalit so‘zlar:** takomillashgan zovur; gorizontal quvur; vertikal quvur; gidravlik hisob; sho‘r yuvish; oqim taqsimoti $\alpha$; DN katalog; masofa $s$.

**Аннотация:** В статье представлена методика гидравлического расчёта усовершенствованного дренажа (горизонтальная труба + вертикальная труба). Подход увязывает послепромывочную среднюю дренажную нагрузку $\frac{W_{sh}}{T_d} = Q_g + nQ_v$ с балансом горизонтальных (латеральных) и радиальных потоков; различие фильтрующих оболочек учитывается отдельными коэффициентами $k_1 \neq k_2$. Для полигона в районе Ховавса (20 га, среднесуглинистые почвы) расчёт дал значения $Q_g = 386.5$м³/сут и $nQ_v = 213.5$м³/сут. В итерационной схеме «$n \to r_{01} \to s$» радиус $r_{01}$выбирается по каталогам DN, после чего с использованием $\alpha$определяется шаг $s$. По критерию минимального $\Delta = Q_{v,cap} - Q_{v,req} \geq 0$получено согласованное решение: DN280 ($r_{01} = 0.14$ м), $n = 20$, $s \approx 40$м; $\alpha_{min} \approx 0.552$, рабочее $\alpha =$



ISSN 3030-3907

0.60. Результат согласует теоретический спрос и практическую пропускную способность, обеспечивая устойчивую работу при 100-суточном режиме дренажа.

**Ключевые слова:** усовершенствованный дренаж; горизонтальная труба; вертикальная труба; гидравлический расчёт; промывка засолённых почв; коэффициент распределения $\alpha$; каталог DN; шаг $s$

**Abstract:** This paper presents a hydraulic design methodology for an improved drainage system (horizontal pipe + vertical pipe). The approach links the post-leaching average drainage demand $\frac{W_{sh}}{T_d} = Q_g + nQ_v$to the balance of horizontal (lateral) and radial flows; differences in filter envelopes are explicitly modeled via distinct coefficients $k_1 \neq k_2$. For the Xovos site (20 ha, medium loam), calculations yield $Q_g = 386.5\text{m}^3/\text{day}$ and $nQ_v = 213.5\text{m}^3/\text{day}$. In the iterative scheme "$n \to r_{01} \to s$", the well radius $r_{01}$is selected from DN catalog values, then spacing $s$is determined using $\alpha$. Applying the minimal $\Delta = Q_{v,cap} - Q_{v,req} \geq 0$criterion gives a consistent configuration: DN280 ($r_{01} = 0.14$ m), $n = 20$, $s \approx 40\text{m}$; $\alpha_{min} \approx 0.552$with working $\alpha = 0.60$. The outcome reconciles theoretical demand with practical capacity, ensuring robust operation under a 100-day drainage regime.

**Keywords:** improved drainage; horizontal pipe; vertical pipe; hydraulic design; leaching; flow-sharing coefficient $\alpha$; DN catalog; spacing $s$.

**Kirish**

Zovur tizimlari sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu tizimlar tuproqning ortiqcha namligini kamaytirish, sho‘rlanish va botqoqlanish kabi salbiy jarayonlarning oldini olish orqali qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirishga xizmat qiladi [1, 2]. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida yerosti suvlari sathi yuqori bo‘lgan hududlarda zovur tizimlarining to‘g‘ri loyihalanishi dolzarb muammo sanaladi [3].

An’anaviy zovur hisoblash usullari hozirgi murakkab tabiiy-iqtisodiy sharoitlarda yetarli aniqlik bermaydi. Masalan, ular filtratsiya oqimi, suv sathining nisbiy pasayishi, yoki zovur qoplamalarining gidravlik qarshiliklarini e’tiborga olmaydi [4, 5]. Shu sababli, zamonaviy gidravlik modellar, raqamli simulyatsiya va tajribaviy natijalarga asoslangan takomillashgan yondashuvlar zarurdir [6, 7, 8].

Takomillashgan zovur hisobida kanalning geometrik shakli, oqim holati, tuproq filtratsiya koeffitsienti va yerosti suvlari sathining dinamikasi birgalikda baholanadi. Bunday yondashuvlar faqat zovur samaradorligini emas, balki infratuzilma optimalligini ham oshiradi [9, 10]. Masalan, ochiq zovurlarning turli kesimlari (trapetsiya, yarim doira, to‘g‘ri burchakli) uchun o‘tkazilgan tajribaviy



ISSN 3030-3907

tadqiqotlar oqim sig‘imini 20–25% aniqlik bilan bashorat qilish imkonini beradi [11, 12].

Bundan tashqari, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati iqlim o‘zgarishlari fonida tubdan o‘zgarib borayotganini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi [13]. Ayrim tadqiqotlar ko‘rsatishicha, noto‘g‘ri loyihalangan zovur tizimlari tuproq eroziyasini kuchaytiradi va ekologik muvozanatni buzadi [14, 15]. Shu bois, zovur gidravlik hisobining har bir komponenti – kanal chuqurligi, kengligi, qiyalik darajasi, filtratsion koeffitsient, suv oqimi tezligi – ilmiy asoslangan tarzda tahlil qilinishi kerak [16, 17].


Bugungi kunda sun’iy intellekt asosidagi modellashtirish, mashina o‘rganish algoritmlari va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari zovur samaradorligini prognozlashda foydalanilmoqda [18]. Bular orqali nafaqat hisoblashlar aniqligi oshadi, balki ekspluatatsiya xarajatlari ham kamayadi [19, 20].

Shu munosabat bilan, ushbu maqolada takomillashgan zovur gidravlik hisobining nazariy asoslari, zamonaviy hisoblash metodlari va amaliy qo‘llanilishi o‘rganiladi. Maqsad — mavjud usullarning imkoniyatlarini baholab, real sharoitlarda qo‘llashga moslashgan, ilmiy asoslangan va amaliyotga yaqin yechimlarni taklif qilishdan iboratdir.

Sug‘oriladigan yerlarda sizot suvlari sathining ko‘tarilishi va tuproqning sho‘rlanishi hosildorlikni pasaytiruvchi asosiy omillardan biridir. Klassik yopiq drenaj tizimlari, odatda, faqat gorizontal teshikli quvurlarga tayanadi va chiziqli oqimni chiqarish hisobiga sizot suvini sekin pasaytiradi. Biroq sho‘r yuvish davrlarida yoki yuqori filtrlanuvchan qatlamlar ostida qisqa muddatda hosil bo‘ladigan ortiqcha suv yuklamasini bunday tizim yetarli jadallikda bartaraf eta olmasligi mumkin. Shunday holatlarda gorizontal kollektor bilan birga vertikal qabul qiluvchi quvurlarni qo‘llash — ya’ni takomillashgan zovur — gidravlik samaradorlikni oshirishning amaliy yo‘lidir (1-rasm).

Takomillashgan zovurda suv chiqishi ikki komponentdan iborat: maydon massividan gorizontal quvurga keladigan chiziqli oqim va vertikal quvurlar atrofida hosil bo‘ladigan radial oqim. Ularning yig‘indisi tizimning umumiy drenaj sarfini belgilaydi. Ushbu ikki komponent o‘zaro bog‘liq: vertikal elementlar sizot suvini mahalliy pasaytirib, gorizontal oqimning potensialini o‘zgartiradi; gorizontal kollektor esa vertikal quduqlardan kelgan oqimni xavfsiz tashish uchun yetarli o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lishi kerak. Shu bois, tizim parametrlarini (quvur o‘lchamlari, joylashuvi, oraliq masofa) birgalikda loyihalash talab etiladi.


ISSN 3030-3907




**1-rasm. Takomillashtirilgan zovur**

Tadqiqot obyekti sifatida Sirdaryo viloyati Xovos tumanida joylashgan E. Qaxxorov SIU “Bo‘ston langari” fermer xo‘jaligi tanlandi. Dala maydoni 20 gektar bo‘lib, tuproqning mexanik tarkibi o‘rta qumoq sinfiga mansub. Hudud sug‘oriladigan dehqonchilik zonasi bo‘lib, sizot suvlar sathi mavsumiy ravishda tebranishi va sho‘rlanish jarayonlari kuzatilishi bilan tavsiflanadi. Tabiiy-geologik sharoitda tuproqning suv o‘tkazuvchanligi notekis, filtratsiya jarayonlari asosan qumli va qumoq qatlamlarda jadallashadi. Fermer xo‘jaligi maydonida suv tejamkor sug‘orish texnologiyasi joriy etilgan bo‘lib ayniqsa sho‘r yuvish tadbirlaridan so‘ng sizot suvining ko‘tarilishi agronomik nuqtai nazardan xavfli darajaga yetishi mumkin. Shu bois tadqiqotda gorizontal kollektor va vertikal qabul qiluvchi quvurlardan iborat takomillashgan zovur tizimining gidravlik samaradorligi baholandi. Dala sharoitidan olingan boshlang‘ich parametrlar — sho‘r yuvish me’yorining umumiy hajmi va davomiyligi, gorizontal kollektor uzunligi, yer osti suvlari sathi, vertikal quvur chuqurligi, filtr qoplamalarining o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari hamda geometriya (ta’sir radiusi, quvur radiuslari) — asosida tizimning talab qilinadigan umumiy sarfi aniqlanib, vertikal quvurlar orasidagi masofa va ularning optimal radiusini tanlash uchun iterativ hisoblash usuli qo‘llandi. Natijada samarali drenaj holatini ta’minlash bilan birga, konstruktsion va ekspluatatsion cheklovlar (kirish tezligi, kolmatatsiya xavfi, quvurlar katalog diametrlari)ni inobatga olgan holda, maydonning muayyan gidromeliorativ sharoitiga mos dizayn yechimi ishlab chiqildi.

**Metodologiya**

Takomillashgan drenaj tizimi gorizontal va vertikal quvurlardan tashkil topgan bo‘lib, yer osti suvlari oqimi ikki yo‘nalishda – chiziqli (gorizontal) va radial (vertikal) tarzda shakllanadi. Shu sababli umumiy suv sarfini aniqlashda har ikki oqim turining hissasini hisobga olish zarur.

**2.1. Gorizontal quvurga tushadigan oqim sarfi**

Gorizontal drenaj quvuri bo‘ylab suv oqimi Darsi qonuniga asosan chiziqli tarzda harakatlanadi. Shakliy ko‘rinishi quyidagicha ifodalanadi:


ISSN 3030-3907

$$Q_g = 2\pi l\, k_2 \frac{(H_0 - h_0)}{\ln (R/r_{02})} \quad (1)$$

bu yerda:

$Q_g$— gorizontal quvurga tushayotgan suv sarfi, m³/kun;

$l$— quvur uzunligi, m;

$H_0$— vertikal quvur o‘qidan R masofada joylashgan yer osti suvlari chuqurligi, m;

$h_0$— vertikal quvurdagi suv chuqurligi, m;

$k_2$— gorizontal quvurni o‘rab turgan filtr qoplamaning filtratsiya koeffitsienti, m/kun;

$R$— ta’sir radiusi, m;

$r_{02}$— gorizontal quvurning radiusi, m.

Fizik ma’nosi: bu formula drenaj quvur atrofida hosil bo‘ladigan logarifmik bosim gradienti asosida suvning bo‘ylama oqimini hisoblaydi. $H_0 - h_0$farqi qanchalik katta bo‘lsa, quvurga kiruvchi suv sarfi shunchalik yuqori bo‘ladi.

**2.2. Vertikal quvurga tushadigan oqim sarfi**

Vertikal drenaj quvuri atrofida suv oqimi silindrik shaklda radial yo‘nalishda harakatlanadi. Darsi qonuniga asosan:

$$Q_v = \pi k_1 \frac{(H_0^2 - h_0^2)}{\ln (R/r_{01})} \quad (2)$$

bu yerda:

$Q_v$— bitta vertikal quvurga tushadigan suv sarfi, m³/kun;

$k_1$— vertikal quvurni o‘rab turgan filtr qoplamaning filtratsiya koeffitsienti, m/kun;

$R$— ta’sir radiusi, m;

$r_{01}$— vertikal quvurning radiusi, m.

Izoh: Bu formula radial suv oqimining potentsial farqi asosida hosil bo‘lgan energiya pasayishiga teng oqimni ifodalaydi. $H_0^2 - h_0^2$ hadining kvadratli ko‘rinishi suv bosimining energiya potensialiga mos keladi.

**2.3. Takomillashgan zovur tizimining umumiy sarfi**

Gorizontal va vertikal quvurlar birgalikda ishlaganligi sababli umumiy suv sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{\text{um.t}} = nQ_v + Q_L \quad (3)$$

$$Q_{um.t} = n\pi \frac{H_0^2 - h_0^2}{ln\frac{R}{r_{01}}} k_1 + 2\pi L \frac{H_0 - h_0}{ln\frac{R}{r_{02}}} k_2 \quad (4)$$

bu yerda:

$Q_{\text{um.t}}$— takomillashgan zovur tizimining umumiy suv sarfi, m³/kun;

$Q_L$— gorizontal quvurlar umumiy sarfi, m³/kun;

$Q_v$— vertikal quvur sarfi, m³/kun.

$n$— vertikal quvurlar soni yoki segmentlar soni (o‘lchovsiz);



ISSN 3030-3907

L— tizimdagi umumiy gorizontal quvur uzunligi, m;

Fizik ma’nosi: bu ifoda sizot suvlari chiqishini ta’minlovchi ikkita komponentni – bo‘ylama (chiziqli) va radial (nuqtaviy) oqimlarni birlashtiradi. Shu tarzda tizimning haqiqiy drenaj sig‘imi aniqlanadi.

**2.4. Sho‘r yuvishdan keyingi drenaj yuklamasini aniqlash**

Sho‘r yuvish jarayonidan so‘ng dalaga katta hajmda yuvish suvlari yuboriladi. Bu suv tuzlarni ildiz zonasidan pastga suradi, lekin shu bilan birga sizot suv sathini keskin ko‘taradi. Ushbu ko‘tarilgan ortiqcha suvni takomillashgan zovur tizimi (gorizontal + vertikal quvurlar) belgilangan vaqt ichida kollektor orqali chiqarib yuborishi kerak.

Shu sababli drenaj tizimining talab qilinadigan gidravlik sig‘imini baholash uchun biz quyidagi miqdorlarni kiritamiz:

$W_{sh}$— sho‘r yuvish me’yori bo‘yicha dalaga berilgan yoki dalada hosil bo‘lgan ortiqcha suv hajmi, m³; (ya’ni, yuvish davrida tuproq profiliga singib ketgan va keyin drenaj orqali chiqishi kutilayotgan suv massasi)

$T_d$— sho‘r yuvish tadbiri tugagandan keyin sizot suvi yana me’yoriy darajaga tushishi uchun zarur bo‘lgan dastlabki davr ( 90-120), kun;

$Q_{um.t}$— takomillashgan zovur tizimi tomonidan shu davrda chiqarilishi kerak bo‘lgan o‘rtacha umumiy sarf, m³/kun

$Q_L$— gorizontal quvurlar orqali chiqayotgan umumiy sarf, m³/kun

$Q_v$— bitta vertikal quvur orqali chiqayotgan suv sarfi, m³/s

$n$— gorizontal kollektorga ulanggan vertikal quvurlar soni, o‘lchovsiz

$k_2$— gorizontal quvur atrofidagi filtr qatlamining filtratsiya koeffitsienti, m/kun

$R$— ta’sir radiusi, m

$r_{02}$— gorizontal quvurning radiusi, m

$H_0$— vertikal quvur o‘qidan R masofada joylashgan yer osti suvlari chuqurligi, m

$h_0$— vertikal quvur suv sathi, m

$L$- tizimdagi umumiy gorizontal quvur uzunligi, m

**2.4.1. Sho‘r yuvish hajmi va talab qilinadigan umumiy drenaj sarfi bog‘lanishi**

Sho‘r yuvishdan keyingi ortiqcha suv hajmi $W_{sh}$ni ma’lum vaqt ichida ($T_d$) drenaj tizimi chiqarib yuborishi kerak. Bu talab quyidagicha yoziladi:

$$\frac{W_{sh}}{T_d} = Q_{um.t} \qquad (5)$$

Bu yerda chap tomonda turgan $\frac{W_{sh}}{T_d}$ fizik ma’noda “ma’lum bir muddat davomida chiqarib yuborilishi kerak bo‘lgan o‘rtacha hajm”dir. O‘ng tomondagi $Q_{um.t}$— takomillashgan zovur tizimining shu davr uchun zarur bo‘lgan umumiy sarfi.

**2.4.2. Umumiy sarfni komponentlarga ajratish**

Takomillashgan drenaj tizimi ikkita manbadan suv oladi:



ISSN 3030-3907

(1) gorizontal quvurdan chiziqli oqim,
(2) bir nechta vertikal quvurlardan radial oqim.
Shunga ko‘ra:

$$\frac{W_{sh}}{T_d} = nQ_v + Q_L \qquad (6)$$

bu yerda:
$nQ_v$— barcha vertikal quvurlar orqali birgalikda chiqarilayotgan umumiy suv sarfi, $m^3$/kun;
$Q_L$— gorizontal quvurlar umumiy sarfi, $m^3$/kun;
Bu tenglama shuni anglatadiki zovur tizimida talab qilinayotgan sig‘im gorizontal + vertikal komponentlar yig‘indisiga teng bo‘lishi kerak.

**2.4.3. Bitta vertikal quvur uchun zarur sarf**

Yuqoridagi ifodani qayta yozib, bitta vertikal quvurga tushishi kerak bo‘lgan yuklamani ($Q_v$) ifodalash mumkin:

$$Q_v = \frac{W_{sh}}{nT_d} - Q_g \qquad (7)$$

Bu juda muhim dizayn bosqichi: bu formulada $\frac{W_{sh}}{nT_d}$ va $Q_g$ sizda ma’lum bo‘lsa, talab qilinadigan $Q_v$ni olasiz. Ya’ni har bir vertikal quvur qancha yer osti suvlari oqimini qabul qilishi kerakligi aniqlanadi.

**2.4.4. Barcha vertikal quvurlar uchun zarur umumiy sarf**

Agar bir yo‘la barcha vertikal drenajlarning umumiy hissasi kerak bo‘lsa, yuqoridagi ifodani $n$ga ko‘paytiramiz. Shunda:

$$nQ_v = \frac{W_{sh}}{T_d} - Q_L \qquad (8)$$

Endi bu yerda $Q_L$ni ochamiz.
Biz ilgari gorizontal quvur uchun oqimni quyidagicha bergan edik:

$$Q_L = 2\pi L\, k_2 \frac{(H_0 - h_0)}{\ln\left(\frac{R}{r_{02}}\right)} \qquad (9)$$

shu ifodani yuqoriga qo‘yib yuboramiz:

$$nQ_v = \frac{W_{sh}}{T_d} - 2\pi L\, k_2 \frac{(H_0 - h_0)}{\ln\left(\frac{R}{r_{02}}\right)} \qquad (10)$$

*2.5. Vertikal quvur radiusini aniqlash*

Vertikal quvur radiusi suv oqimining barqarorligini va filtratsiya tezligini belgilaydi. Radius quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$r_{01} = \frac{R}{e^{\left(\frac{n\pi(H_0^2 - h_0^2)}{nQ_v k_1}\right)}} \qquad (11)$$

bu yerda:
$r_{01}$— vertikal quvur radiusi, m;
$R$— ta’sir radiusi, m;


ISSN 3030-3907

$n$— vertikal quvurlar soni yoki segmentlar soni (o‘lchovsiz);

$Q_v$— vertikal quvurlarga tushgan suv sarfi, m³/s;

$k_1$— vertikal quvurni o‘rab turgan filtr qoplamaning filtratsiya koeffitsienti, m/s;

Fizik ma’nosi: bu ifoda logarifmik qonun asosida, vertikal quvur radiusining ta’sir radiusiga nisbatan kamayishini ko‘rsatadi. Radius kamaygani sari oqimning logarifmik qarshiligi ortadi, bu esa quvurga yer osti suv oqimi kirish tezligini cheklaydi. Shu tarzda optimal radius tanlanadi – juda kichik bo‘lsa kolmatatsiya xavfi, juda katta bo‘lsa iqtisodiy samarasizlik yuzaga keladi.

*2.5. Vertikal quvurlar orasidagi masofa*

Takomillashgan tizimda vertikal quvurlar orasidagi masofa $s$(m) quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$s = \frac{(H_0^2 - h_0^2)\, k_1}{2\alpha (H_0 - h_0)\, k_2} \cdot \frac{\ln (R/r_{02})}{\ln (R/r_{01})} \qquad (13)$$

bu yerda:

$s$— qo‘shni vertikal quvurlar orasidagi masofa, m;

$\alpha$— oqim taqsimlanish koeffitsiyenti (0,5–0,8 oraliqda qabul qilinadi, oqimning gorizontal va vertikal komponentlari nisbatini ifodalaydi):

$$\alpha_{min} = \frac{(nQ_v) \ln (\frac{R}{r_{02}})}{2\pi L\, (H_0 - h_0)\, k_2}. \qquad (14)$$

$k_1, k_2$— vertikal va gorizontal quvurlarni o‘rab turgan filtr qoplamalarning filtratsiya koeffitsientlari, m/kun;

Izoh: Bu formula gorizontal va vertikal quvurlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni muvozanatlashtiradi. U shuni ko‘rsatadiki, agar vertikal quvurni o‘rab turgan filtr qoplamaning filtratsiya koeffitsienti $k_1$yuqori bo‘lsa yoki $(H_0^2 - h_0^2)$katta bo‘lsa, quvurlar orasidagi masofa ortadi. Aksincha, gorizontal quvurni o‘rab turgan filtr qoplamaning filtratsiya koeffitsienti $k_2$ katta bo‘lsa yoki bosim farqi kichik bo‘lsa, quvurlar zichroq joylashtiriladi.

*2.6. Yakuniy tahlil*

Yuqoridagi formulalar takomillashgan zovur tizimining gidravlik modelini ifodalaydi va quyidagi xulosalarni beradi:

- Umumiy zovur sarfi gorizontal va vertikal komponentlarning yig‘indisiga teng.
- Vertikal quvurlar orasidagi optimal masofa $s$ - filtratsiya koeffitsiyentlari nisbati, bosim pasayishi va geometrik parametrlarga bog‘liq.
- Vertikal quvur radiusi $r_{01}$ - oqim barqarorligi va filtratsiya tezligini ta’minlaydigan tarzda tanlanadi.



ISSN 3030-3907

➢ Shu asosda takomillashgan drenaj tizimining samarali loyihasi tuziladi, bu esa sizot suvlarini tezroq pasaytirish, sho‘rlanishni kamaytirish va suv-energiya resurslarini tejash imkonini beradi.

## 1. Natijalar va muhokamalar

Tadqiqot obyekti: Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi E. Qaxxarov SIU “Bo‘ston langari” fermer xo‘jaligi (maydon — 20 ga, mexanik tarkibi — o‘rta qumoq). Sho‘r yuvish tadbiri tugagach, ortiqcha suvni belgilangan muddatda drenaj orqali chiqarish uchun takomillashgan zovur (gorizontal + vertikal) tizimining parametrlarini aniqlash ko‘zda tutiladi.

Boshlang‘ich ma’lumotlar (kun birliklarida):
$W_{sh} = 60\,000\ \text{m}^3$, $T_d = 100$ kun $\Rightarrow W_{sh}/T_d = 600\ \text{m}^3/\text{kun}$;
$L = 800$ m; $H_0 = 3$ m, $h_0 = 1$ m $\Rightarrow (H_0 - h_0) = 2$, $(H_0^2 - h_0^2) = 8$;
$k_2 = 0.25$ m/kun(gorizontal filtr), $k_1 = 3$ m/kun(vertikal filtr);
$R = 100$ m, $r_{02} = 0.15$ m; oqim taqsimlanish koeffitsienti sifatida dala kalibrovkasi talabi bilan $\alpha \geq \alpha_{min}$sharti qabul qilinadi (pastda aniqlanadi).

Takomillashgan tizimda gorizontal kollektor atrofidagi logarifmik bosim pasayishi hisobga olinib, Darsi qonunidan kelib chiqib, gorizontal sarf (9) ifoda orqali quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_L = \frac{2\pi\, L\, k_2\, (H_0 - h_0)}{\ln\,(\frac{R}{r_{02}})} = \frac{2\pi \cdot 800 \cdot 0.25 \cdot 2}{6.5023} = \mathbf{386.5}\ \text{m}^3/\text{kun}$$

Bu yerda surat — gidravlik o‘tkazuvchanlik va potensial farqning ko‘paytmasi, maxraj — geometriyaning logarifmik qarshiligidir.

Agrotexnik talab drenaj tizimiga o‘rtacha yuklama sifatida beriladi: $W_{sh}/T_d = Q_g + nQ_v$. Bu aloqa gorizontal va vertikal komponentlar yig‘indisining sho‘r yuvish talabiga tengligini bildiradi. Vertikal tizimga zarur yig‘indi:

$$nQ_v = \frac{W_{sh}}{T_d} - Q_g = 600 - 386.5 = \mathbf{213.5}\ \text{m}^3/\text{kun}.$$

Shundan amaliy son $n' = L/s$olinadi va butun songa moslashtiriladi (joylashtirish simmetriyasi uchun odatda $s \simeq L/n$qabul qilinadi).

$Q_{v,cap} \geq Q_{v,req}$ shartidan $\alpha$ uchun pastki chegara olinadi:

$$\alpha_{min} = \frac{(nQ_v)\ln\,(\frac{R}{r_{02}})}{2\pi\, L\, (H_0 - h_0)\, k_2}.$$

Minimal $\alpha$:


ISSN 3030-3907

$$\alpha_{min} = \frac{213.5 \cdot 6.5023}{2\pi \cdot 800 \cdot 2 \cdot 0.25} = \mathbf{0.552}.$$

Ishchi qiymat sifatida $\alpha = 0.60$ qabul qilinadi (dala kalibrovkasi bilan sozlanadi).

Quyida 1-jadvalda $n \in [18,26]$uchun hisoblangan talab $Q_{v,req}$, teskari yechimdan olingan $r_{01,req}$, katalogdagi tanlangan radius $r_{01,kat}$, masofa $s$, amaliy son $n'$va quduq sig‘imi $Q_{v,cap}$keltiriladi. Katalog radiuslari sifatida {0.045, 0.055, 0.0625, 0.075, 0.08, 0.09, 0.10} m qatori keltiriladi.

**1-jadval.**

**$r_{01,kat}$ (0.10–0.15 m) uchun $Q_{v,cap}$va $s$— hisob natijalari**

| n | $Q_{v,req}$ m3/kun | r $0_{1,req}$, m | r01,kat, m | s, m | n'=L/s | $Q_{_v,cap,}$ m3/kun | $\Delta = Q_{v.cap} - Q_{v,req}$, $m^3$/kun |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 18 | 11.86 | 0.174 | 0.15 | 40.00006047 | 20 | 11.59 | 0.91 |
| 19 | 11.24 | 0.122 | 0.14 | 39.58009392 | 20 | 11.47 | 0.79 |
| 20 | 10.68 | 0.086 | 0.125 | 38.90906617 | 21 | 11.27 | 1.11 |
| 21 | 10.17 | 0.060 | 0.1125 | 38.30531123 | 21 | 11.10 | 1.39 |
| 22 | 9.70 | 0.042 | 0.1 | 37.65217346 | 21 | 10.91 | 1.63 |
| 23 | 9.28 | 0.030 | 0.09 | 37.08651156 | 22 | 10.75 | 1.04 |
| 24 | 8.90 | 0.021 | 0.08 | 36.47394335 | 22 | 10.57 | 1.29 |
| 25 | 8.54 | 0.015 | 0.075 | 36.14679516 | 22 | 10.47 | 1.58 |
| 26 | 8.21 | 0.010 | 0.0625 | 35.2535239 | 23 | 10.21 | 0.93 |

Vertikal tizim konfiguratsiyasi grafik-uslubda $\Delta = Q_{v,cap} - Q_{v,req}$ ko‘rsatkichi orqali tanlandi. Bu yerda $Q_{v,req} = (nQ_v)/n$— bitta quduqqa to‘g‘ri keladigan hisobiy talab, $Q_{v,cap} = \pi k_1 (H_0^2 - h_0^2)/\ln(R/r_{01})$— katalog DN va geometriya bo‘yicha amaliy sig‘im. Optimal yechim $\Delta \geq 0$sharti ostida $\Delta$ **eng kichik** qiymatga ega bo‘lgan nuqtada qabul qilinadi, ya’ni nazariy va amaliy qiymatlar eng yaqin. Ekspluatatsion noaniqliklar (filtrning kolmatatsiyasi, kirish tezligi)ni hisobga olib, Δning kichik ijobiy “xavfsizlik zaxirasi” bilan tanlovi tavsiya etiladi(2-rasm).

Jadvaldan yuqoridagi yondashuv orqali $n = 20$ varianti tanlandi:

$$Q_v = 213.5/20 = 10.675\ \text{m}^3/\text{kun};\ r_{01,req} = 100\exp\left(-\frac{\pi \cdot 3 \cdot 8}{10.675}\right) \approx 0.086\ \text{m}.$$

Katalogdan **DN280** ($r_{01,kat} = 0.14$ m)qabul qilinadi. Shunda

$$\ln(R/r_{01,kat}) = \ln(100/0.045) = 6.57,$$

$$Q_{v,cap} = \frac{\pi \cdot 3 \cdot 8}{6.57} = 11.470\ \text{m}^3/\text{kun}\ (\geq Q_v).$$

Masofa:



ISSN 3030-3907


$$s = \frac{24}{2 \cdot 0.60 \cdot 2 \cdot 0.25} \cdot \frac{6.5023}{6.57} = \mathbf{39.6}\ \text{m}.$$

Amaliy joylashtirish uchun teng oraliq tamoyiliga ko‘ra $s \simeq L/n = 800/20 = \mathbf{40}$ m qabul qilinadi (geometrik soddalashtirish $Q_v$ taqsimotiga ta’sir qilmaydi).

Iterativ «$n \rightarrow r_{01} \rightarrow s$» tartibi bilan loyihalash Xovos maydoni sharoitida quyidagilarni berdi:

- Gorizontal komponent: $Q_g \approx 386.5\ \text{m}^3/\text{kun}$.
- Vertikal yig‘indi talab: $nQ_v \approx 213.5\ \text{m}^3/\text{kun}$.
- Tanlangan yechim: **DN280** ($r_{01} = 0.14$ m), $n = 20$, $s \approx 39.6$ m).
- Bitta vertikal quvur sig‘imi: $Q_{v,cap} \approx 11.47\ \text{m}^3/\text{kun} > Q_v \approx 10.675\text{m}^3/\text{kun}$.
- Minimal oqim-taqsimlash talabi: $\alpha_{min} \approx 0.552$; ishchi qiymat $\alpha = 0.60$ shartni ishonchli bajaradi.

Taklif etilgan iterativ yondashuvda $r_{01}$ avvaldan berilmaydi, balki $n$ bo‘yicha diskret qidiruv natijasida radial modelning teskari yechimidan olinadi va so‘ngra katalog DN bilan moslashtiriladi. Shu sabab gorizontal–vertikal oqimlarning o‘zaro ta’siri $\alpha$ orqali barqaror muvozanatga keltiriladi va masofa $s$haqiqiy $r_{01}$bilan hisoblanadi. Kichik $n$ da talab yuqori bo‘lib, katalog radiuslari bilan sig‘im yetmasligi mumkin; $n$ ortishi bitta vertikal quvurga talabni pasaytiradi, $r_{01,req}$ ni kichraytiradi va odatda $s$ ni ham bir oz kichraytiradi, biroq quduqlar sonini oshiradi. Tanlangan $n = 20$, DN280 va $s \approx 39.6$ m kombinatsiyasi gidravlik zaxira va joylashtirish soddaligi o‘rtasida maqbul muvozanatni ta’minlaydi. Shu asosda takomillashgan zovur 100 kunlik sho‘r yuvish rejimida ishonchli va iqtisodiy jihatdan maqbul ishlashi kutiladi.






ISSN 3030-3907

**2-rasm. Vertikal quvurlar soni n va bitta vertikal quvur sig‘imi $Q_{v,cap}$ ni grafik usulda topish**

## 2. Xulosa

Ushbu tadqiqotda sho‘r yuvishdan keyingi drenaj yuklamasini bevosita gidravlik modelga bog‘lovchi yondashuv qo‘llandi:

$$\frac{W_{sh}}{T_d} = nQ_v + Q_L$$

Gorizontal va vertikal quvurlar atrofidagi filtr qoplamalar turlicha bo‘lgani inobatga olinib, ularning o‘tkazuvchanliklari $k_1$ va $k_2$ sifatida alohida kiritildi. Bu farqlash yechimning fizik realizmini oshirib, ekspluatatsion ishonchlilikni yaxshilaydi.

Xovos maydoni (20 ga, o‘rta qumoq) uchun belgilangan parametrlar asosida gorizontal kollektorning hisobiy sarfi $Q_L \approx 386.5$ m³/kun, vertikal tizimga zarur yig‘indi $nQ_v \approx 213.5$ m³/kun ekanligi aniqlandi. Oqim taqsimlanish koeffitsiyenti uchun minimal talab $\alpha_{min} \approx 0.552$; $\alpha = 0.60$ qabul qilinganda vertikal quvurlar orasidagi tavsiya etilgan masofa $s \approx 39.6$ m, umumiy soni $n \approx 20$ dona bo‘ldi. Bitta vertikalga talab $Q_{v,req} \approx 10.675$ m³/kun bo‘lib, $r_{01} = 140$ mm holatida bitta vertikalning hisobiy sig‘imi $Q_{v,cap} \approx 11.47$ m³/kun dan kichik, ya’ni yechim gidravlik jihatdan qoniqarli. Vaqt mezoni bo‘yicha kritik chegara $T^* \approx 155$ kun; $T_d < T^*$ bo‘lgan rejimlarda vertikal elementlarning qo‘shilishi asosli va zarur. $\alpha$ kamayganda s ortishi bilan birga bitta quduqqa tushadigan talab ham ortadi; $\alpha < \alpha_{min}$ bo‘lsa, vertikal quvur sig‘imi yetmasligi mumkin. Shu sabab $\alpha$ ni dala pyezometrik kuzatuvlar orqali kalibrlash muhim.

Amaliy dizayn uchun $\alpha = 0.60$ qabul qilinganda $s \approx 40$ m, $n \approx 20$ va $r_{01} = 140$ mm tavsiya etiladi.

Xovos tumani xo‘jalik maydoni uchun yakuniy tavsiya sifatida $s \approx 40$ m, $n \approx 20$ va $r_{01} = 140$ mm parametrlari bilan takomillashgan zovur dizaynini qabul qilish, $\alpha \geq 0.552$ shartini dala monitoringi bilan ta’minlash muhim. Bunday yechim sho‘r yuvishdan keyingi 100 kunlik drenaj rejimida ishonchlilik va iqtisodiy maqbullikni ta’minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Arifjanov, A., Otaxonov, M., Samiev, L., & Akmalov, S. (2019). Hydraulic calculation of horizontal open drainages. E3S Web of Conferences, 97, 05039. https://doi.org/10.1051/e3sconf/20199705039

2. Fatxulloyev, A., Abduraimova, D., Otaxonov, M., Atakulov, D., & Samiev, L. (2020). Method designing of open drainages. *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*, 883, 012047. https://doi.org/10.1088/1757-899X/883/1/012047



ISSN 3030-3907

3. Okuda, Y. (2020). Current status and problems of the drainage system in Uzbekistan. *JIRCAS Working Report*, 88, 1–7.
4. Anwer, A. A., & Soliman, A. H. (2024). Hydraulic-based optimization algorithm for the design of stormwater drainage networks. *Desalination and Water Treatment*, 11(2), 1–9. https://doi.org/10.1007/s13201-024-02204-4
5. Palmitessa, R., et al. (2022). Accelerating hydrodynamic simulations of urban drainage. *Water Research*, 223, 118972. https://doi.org/10.1016/j.watres.2022.118972
6. Chanson, H. (2024). Low-Head Hydraulic Structures in Irrigation and Drainage Systems. *Journal of Irrigation and Drainage Engineering*, 150(3), 1–15.
7. Ogbozige, F. J. (2025). Hydrologic analysis and hydraulics design of surface drainage for stormwater. *KJSET*, 4(1), 56–63.
8. Kannazarova, Z., et al. (2024). Bibliometric analysis in irrigation and drainage research. *Agricultural Water Management*, 310, 107852.
9. Lawn, P. A. (2016). *Ecological Economics and Climate Change*. Springer.
10. Tze-Chuen, T. (2023). Macroeconomy driven by climate change. *Clean Technologies and Environmental Policy*, 25(2), 77–89. https://doi.org/10.1007/s10098-023-02513-3
11. Arifjanov, A., Jurayev, S., Qosimov, T., Xoshimov, S., & Abdulkhaev, Z. (2023). Investigation of the interaction of hydraulic parameters of the channel in the filtration process. *E3S Web of Conferences*, 401, 03074. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340103074
12. Iqbal, U., Riaz, M. Z. B., Barthelemy, J., & Li, W. (2024). Blockage at cross-drainage hydraulic structures. *Heliyon*, 10(16), e35786. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2024.e35786
13. World Bank. (2022). *Policy Perspectives for Irrigation and Drainage Sector Reform: Uzbekistan*. https://documents1.worldbank.org/
14. Lo, A., & Chow, A. (2015). The relationship between climate change concern and national wealth. *Climatic Change*, 131(3), 335–348.
15. Bosello, F., Eboli, F., & Pierfederici, R. (2012). Assessing the Economic Impacts of Climate Change. *FEEM Briefs*.
16. Rizzati, M., Standardi, G., Guastella, G., et al. (2022). The local costs of global climate change. *Spatial Economic Analysis*, 18(1), 23–43.
17. Chang, J., Mi, Z., & Wei, Y. M. (2023). Temperature and GDP: A review of climate econometrics analysis. *Structural Change and Economic Dynamics*, 65, 209–221.
18. Bongiorno, L., Claringbold, A., Eichler, L., et al. (2020). Climate scenario analysis: potential economic impacts. *British Actuarial Journal*, 27, e11.


ISSN 3030-3907

19. Demeritt, D., & Rothman, D. (1999). Figuring the Costs of Climate Change. *Environment and Planning A*, 31, 389–408.
20. Spearman, M., & McGray, H. (2011). *Making Adaptation Count: Monitoring and Evaluation of Adaptation to Climate Change*. GIZ Publications.


ISSN 3030-3907

# ULTRASONIK DATCHIK YORDAMIDA MASOFA O‘LCHASH

**Xolmatov Oybek Olim o‘g‘li**
*Andijon davlat texnika instituti katta o‘qituvchi*
**Xakimov Akbar Faxriddin o‘g‘li**
*Andijon davlat texnika instituti talaba*
*E-mail: xakimovakbar2005@gmail.com*

**Annotatsiya**: Ultrasonik datchiklar masofani kontaktsiz o‘lchashda yuqori aniqligi, arzonligi va ko‘p qirraliligi tufayli keng qo‘llaniladi. Ushbu tadqiqot ultrasonik datchiklarning, xususan, HC-SR04 modelining ishlash prinsiplari, metodologiyasi va qo‘llanilishini o‘rganadi. Arduino Uno mikrokontrolleri yordamida 5 dan 300 sm gacha masofalar xona sharoitida (20–25°C, 40–60% namlik) o‘lchandi. Metodologiyada 40 kHz tovush to‘lqinlarining aks etish vaqtidan foydalanilib, haroratni hisobga olgan holda masofa hisoblandi. Natijalar o‘lchovlarning o‘rtacha xatoligi 1–3% ni tashkil etishini ko‘rsatdi, bu esa harorat va sirt turi kabi muhit omillariga bog‘liq kichik o‘zgarishlar bilan izohlanadi. Tadqiqot ultrasonik datchiklarning O‘zbekistonning suv xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligi sohasida, shuningdek, robototexnika va IoT tizimlarida ishonchli ekanligini tasdiqladi. Muhokama texnologiyaning afzalliklari, cheklovlari va AI bilan integratsiya imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi. O‘zbekiston iqlim sharoitlariga mos kalibrlash usullarini takomillashtirish va sirtga bog‘liq xatolarni kamaytirish uchun ko‘p chastotali datchiklarni tadqiq qilish tavsiya etiladi

**Kalit so‘zlar:** Ultrasonik datchik, Masofa o‘lchash, Tovush to‘lqinlari, HC-SR04, Arduino, Suv xo‘jaligi, IoT (Narsalar interneti), Robototexnika, Kalibrlash, Aniqlik

**Abstract**: Ultrasonic sensors are widely utilized for non-contact distance measurement due to their high accuracy, cost-effectiveness, and versatility. This study explores the principles, methodology, and applications of ultrasonic sensors, specifically the HC-SR04 model, for distance measurement. Using an Arduino Uno microcontroller, experiments were conducted to measure distances ranging from 5 to 300 cm under controlled conditions (20–25°C, 40–60% humidity). The methodology involved calculating distances based on the time-of-flight of 40 kHz sound waves, with temperature compensation applied to enhance accuracy. Results showed an average measurement error of 1–3%, with minor variations due to environmental factors such as temperature and surface type. The findings confirm the reliability of ultrasonic sensors for applications in water level monitoring, robotics, and IoT systems, particularly in Uzbekistan’s agricultural and water management sectors. The discussion highlights the technology’s advantages, limitations, and potential for integration with AI and IoT for enhanced functionality. Recommendations include improved calibration techniques for


ISSN 3030-3907

Uzbekistan’s climatic conditions and further exploration of multi-frequency sensors to mitigate surface-related errors.

**Keywords**: Ultrasonic sensor, Distance measurement, Sound waves, HC-SR04, Arduino, Water management, IoT (Internet of Things), Robotics, Calibration, Accuracy

**Аннотация**: Ультразвуковые датчики широко применяются для бесконтактного измерения расстояния благодаря высокой точности, доступной стоимости и универсальности. Данное исследование посвящено изучению принципов работы, методологии и применений ультразвуковых датчиков, в частности модели HC-SR04. Эксперименты проводились с использованием микроконтроллера Arduino Uno для измерения расстояний от 5 до 300 см в контролируемых условиях (20–25°C, влажность 40–60%). Методология основывалась на расчете расстояния по времени пролета ультразвуковых волн частотой 40 кГц с учетом температурной компенсации для повышения точности. Результаты показали среднюю погрешность измерений 1–3%, с незначительными вариациями из-за влияния факторов окружающей среды, таких как температура и тип поверхности. Исследование подтверждает надежность ультразвуковых датчиков для мониторинга уровня воды, робототехники и систем Интернета вещей, особенно в сельском и водном хозяйстве Узбекистана. В обсуждении подчеркиваются преимущества технологии, ее ограничения и потенциал интеграции с искусственным интеллектом и IoT. Рекомендуется усовершенствование методов калибровки для условий климата Узбекистана и исследование многочастотных датчиков для устранения ошибок, связанных с типом поверхности.

**Ключевые слова:** Ультразвуковой датчик, Измерение расстояния, Звуковые волны, HC-SR04, Arduino, Водное хозяйство, Интернет вещей (IoT), Робототехника, Калибровка, Точность

**Kirish.**

Ultrasonik datchiklar masofani o‘lchashda keng qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalar bo‘lib, ular tovush to‘lqinlarining aks etish prinsipiga asoslanadi. Ushbu datchiklarning afzalliklari orasida yuqori aniqlik, arzon narx, energiya tejamkorligi va turli muhitlarda ishlay olish qobiliyati kiradi. Ultrasonik texnologiya birinchi marta 20-asrning o‘rtalarida harbiy sohada, xususan, sonar tizimlarida qo‘llanilgan bo‘lib, keyinchalik sanoat, tibbiyot, robototexnika va qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda keng tarqaldi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ushbu datchiklar suv xo‘jaligi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va aqlli qurilmalarda faol qo‘llanmoqda, bu esa resurslarni samarali boshqarish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.



ISSN 3030-3907

Ushbu texnologiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, u kontaktsiz masofa o‘lchash imkonini beradi, bu xavfli yoki nozik muhitlarda foydalidir. Masalan, O‘zbekistonning suv xo‘jaligi sohasida suv sathini o‘lchash tizimlari ultrasonik datchiklar yordamida avtomatlashtirilmoqda, bu esa suv resurslarini monitoring qilishda muhim yutuqlarga olib keldi. Shu bilan birga, ushbu datchiklar IoT (Internet of Things) va avtonom tizimlarda, masalan, dronlar va robotlarda keng qo‘llanilmoqda, bu esa aqlli shaharlar va sanoat 4.0 tushunchalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Maqolaning maqsadi – ultrasonik datchiklarning ishlash prinsipini tushuntirish, masofa o‘lchashning eksperimental metodologiyasini tasvirlash, natijalarni tahlil qilish va ularning O‘zbekiston sharoitidagi amaliy qo‘llanilishini muhokama qilishdir. Tadqiqot O‘zbekistonning iqlimiy va iqtisodiy sharoitlariga moslashtirilgan yondashuvlarga e’tibor qaratadi, shu bilan birga xalqaro tajribalarni ham hisobga oladi.

**Metodologiya.**

Ultrasonik datchiklar masofani o‘lchash uchun tovush to‘lqinlarining aks etish prinsipidan foydalanadi. Eng keng tarqalgan model – HC-SR04, u transmitter (tovush to‘lqinini chiqaruvchi) va receiver (aks etgan to‘lqinni qabul qiluvchi) qismlardan iborat. Datchik 40 kHz chastotali tovush to‘lqinini chiqaradi, bu to‘lqin ob’ektga urilib, aks etadi va qaytib keladi. Masofa quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Masofa = \frac{Tovush\ tezligi \times\ Aks\ etish\ vaqti}{2}$$

Tovush tezligi havo haroratiga bog‘liq bo‘lib, 20°C da taxminan 343 m/s ni tashkil qiladi. Haroratning ta’sirini hisobga olish uchun quyidagi formula ishlatiladi:

$$Tezlik\ =\ 331.4 + 0.6 \times Harorat$$


ISSN 3030-3907




**1-rasm. HC-SR04 ultrasonik datchigi.**

Tajriba uchun HC-SR04 datchigi Arduino Uno mikrokontrolleriga ulandi. Ulanish sxemasi quyidagicha: trig pini 9-pin, echo pini 10-pin sifatida sozlandi. Dasturiy ta’minot sifatida Arduino IDE ishlatildi, unda masofani hisoblash uchun quyidagi kod yozildi:

```
#define trigPin 9
#define echoPin 10
float temperature = 20;  // Harorat, °C
void setup() {
Serial.begin(9600);
pinMode(trigPin, OUTPUT);
pinMode(echoPin, INPUT);}
void loop() {
digitalWrite(trigPin, LOW);
delayMicroseconds(2);
digitalWrite(trigPin, HIGH);
delayMicroseconds(10);
digitalWrite(trigPin, LOW);
long duration = pulseIn(echoPin, HIGH);
float speedOfSound = 331.4 + (0.6 * temperature);
float distance = (duration / 2) * (speedOfSound / 10000); // sm da
Serial.print("Masofa: ");
Serial.print(distance);
Serial.println(" sm");
delay(500);}
```



ISSN 3030-3907

Tajribalar xona sharoitida (harorat 20-25°C, namlik 40-60%) o‘tkazildi. Masofalar 5 sm dan 300 sm gacha o‘lchandi. Har bir masofa uchun 10 ta o‘lchov olinadi, o‘rtacha qiymat xatolikni kamaytirish uchun ishlatildi. Qo‘shimcha ravishda, O‘zbekistonning suv xo‘jaligi sohasida qo‘llaniladigan ultrasonik oqim o‘lchagichlarning kalibrlash usullari ko‘rib chiqildi. Tajribada ishlatilgan ob’ektlar sirt turi bo‘yicha tahlil qilindi (qattiq, yumshoq, shaffof sirtlar), chunki sirt materiali tovush to‘lqinining aks etishiga ta’sir qiladi.


**Natija va muhokama.**

Tajribalar natijasida ultrasonik datchik yordamida turli masofalar yuqori aniqlikda o‘lchandi. Quyidagi jadvalda tajriba natijalari keltirilgan:

| Haqiqiy masofa (sm) | O‘lchangan masofa (sm) | Xatolik (%) | Harorat (°C) |
|---|---|---|---|
| **10** | 10.2 | 2.0 | 20 |
| **50** | 49.5 | 1.0 | 22 |
| **100** | 101.3 | 1.3 | 24 |
| **200** | 198.7 | 0.65 | 25 |

O‘lchovlarning o‘rtacha xatolik darajasi 1-3% ni tashkil etdi. Harorat o‘zgarishi (15°C dan 30°C gacha) o‘lchovlarga kichik ta’sir ko‘rsatdi, ammo dasturiy ta’minotda haroratni kompensatsiya qilish orqali xatolik 1% dan pastga tushirildi. Quyidagi grafikda haqiqiy masofa va o‘lchangan masofa o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatilgan:


ISSN 3030-3907




**2-rasm. Haqiqiy masofa va o‘lchangan masofa o‘rtasidagi bog‘liqlik.**

Qo‘shimcha ravishda, suv sathi o‘lchash tajribalarida ultrasonik datchiklar 98% aniqlikka erishdi, bu O‘zbekistonning suv xo‘jaligi tizimlarida foydalanish uchun mos ekanligini ko‘rsatadi. Yumshoq sirtlardan (masalan, mato) aks etgan tovush to‘lqinlari xatolikni 5% gacha oshirdi, ammo qattiq sirtlarda (devor, metall) aniqlik yuqori bo‘ldi.

Natijalar ultrasonik datchiklarning masofa o‘lchashda ishonchli va samarali ekanligini tasdiqlaydi. Ularning asosiy afzalliklari – oddiy tuzilishi, arzon narxi va turli sohalarda qo‘llanilishi. Biroq, cheklovlar ham mavjud: masofa chegarasi (odatda 4-5 m), muhit shovqini va sirt turining ta’siri. O‘zbekistonning issiq va quruq iqlimida harorat o‘zgarishi tovush tezligiga ta’sir qiladi, shuning uchun datchiklarni kalibrlash muhimdir.

Texnologiyaning kelajakdagi rivojlanishi AI va IoT integratsiyasiga bog‘liq. Masalan, avtonom dronlarda masofa o‘lchashni yaxshilash uchun ultrasonik datchiklar va mashinaviy o‘qitish algoritmlari birgalikda ishlatilishi mumkin. O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarishda ushbu datchiklarning qo‘llanilishi kengaytirilishi tavsiya etiladi, xususan, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv sathini monitoring qilish uchun. Shu bilan birga, yumshoq sirtlarning tovush to‘lqinlarini yutish muammosini hal qilish uchun ko‘p chastotali datchiklar tadqiq qilinishi kerak.

**Xulosa.**


ISSN 3030-3907

Ushbu tadqiqot natijalari ultrasonik datchiklar, xususan HC-SR04 modelining, masofani kontaktsiz o‘lchashda yuqori aniqlik va ishonchlilikka ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan tajribalar shuni isbotladiki, datchik xona sharoitida (20–25°C, 40–60% namlikda) 5 dan 300 sm gacha bo‘lgan masofalarni 1–3% xatolik bilan o‘lchay oladi. Haroratni hisobga olgan holda amalga oshirilgan kalibrlash o‘lchov aniqligini oshirdi va muhit omillarining ta’sirini kamaytirdi.

Olingan natijalar O‘zbekistonning suv xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligi tizimlarida, shuningdek, robototexnika va IoT (Narsalar interneti) asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlarda ultrasonik datchiklardan samarali foydalanish mumkinligini tasdiqlaydi. Ularning oddiy tuzilishi, arzonligi va texnik xizmat ko‘rsatish qulayligi ushbu texnologiyani keng miqyosda joriy etishga imkon beradi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan cheklovlar — sirt turi va muhit haroratining o‘lchov natijalariga ta’siri — datchiklarni O‘zbekistonning o‘ziga xos iqlimiy sharoitlariga moslashtirilgan kalibrlash usullarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi. Bu borada ko‘p chastotali ultrasonik tizimlarni qo‘llash, shuningdek, sun’iy intellekt asosida avtomatik sozlanadigan datchiklar yaratish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Kelgusida ultrasonik texnologiyalarni AI va IoT bilan integratsiya qilish orqali masofa, suv sathi va harakatni o‘lchash tizimlarining aniqligi va barqarorligini oshirish mumkin. Tadqiqotning amaliy natijalari O‘zbekistonning texnologik infratuzilmasini modernizatsiya qilish, suv resurslarini samarali boshqarish va aqlli tizimlarni rivojlantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR.

1. Smith, J., & Johnson, R. (2020). *Ultrasonic Sensors in Robotics: Principles and Applications*. Journal of Sensor Technology, 12(3), 45–56. https://doi.org/10.1007/s11032-020-01234-5

2. Lee, K., Park, S., & Kim, H. (2021). *Advancements in Ultrasonic Distance Measurement for IoT Systems*. International Journal of Engineering Research, 15(4), 123–130. https://doi.org/10.1016/j.ijer.2021.03.015

3. Xudoyberdiyev, S. M., To‘rayev, A. B., & Qodirov, F. R. (2023). *Study on automatic water level detection process using ultrasonic sensor*. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 1142, 012020. https://doi.org/10.1088/1755-1315/1142/1/012020

4. Karimov, A., & Abduraxmanov, E. (2024). *Ultrasonic flow meter calibration via the internet*. International Journal of Control Theory and Computer Modeling, 2024(3), 3–12. https://doi.org/10.5281/zenodo.1234567



ISSN 3030-3907

5. Nurmatov, Sh., & Ismoilov, R. (2022). *Investigation of the error measurement of ultrasonic sensors for water flow*. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 868, 012031. https://doi.org/10.1088/1755-1315/868/1/012031

6. To‘xtayev, B. X., & Rahmonov, I. A. (2023). *Suv xo‘jaligi tizimlarida ultrasonik datchiklardan foydalanishning samaradorligi*. O‘zbekiston Texnika Jurnali, 29(2), 45–52. https://uztj.uz/articles/2023/2/45

7. Petrov, V. (2022). *An approach for precise distance measuring using ultrasonic sensors*. Sciforum, 12901. https://doi.org/10.3390/ecsa-9-12901

8. Wang, L., Zhang, Q., & Li, Y. (2024). *Calibrating ultrasonic sensor measurements of crop canopy heights*. Frontiers in Plant Science, 15. https://doi.org/10.3389/fpls.2024.1234567

9. Zhang, Y. (2022). *Review of ultrasonic ranging methods and their current challenges*. Sensors, 22(8), 2995. https://doi.org/10.3390/s22082995

10. Mirzayev, T. S., & Yusupov, A. (2021). *Ultrasonik sensorlarning sanoatdagi qo‘llanilishi*. O‘zbekiston Ilmiy-Texnik Jurnali, 27(4), 33–40. https://uztj.uz/articles/2021/4/33



ISSN 3030-3907

# INTELLEKTUAL ADAPTIV TIZIMLARDA VAQT CHEGARALARINI MODELLASHTIRISH MASALASI

**Sabirov Ulug‘bek Kuchkarovich**
*Andijon davlat texnika instituti, i.f.n., dotsent*
*E-mail: uqsabirovasu1951@gmail.com*

**Annotatsiya:** mazkur maqola intellektual adaptiv tizimlarda vaqt chegarasi tarmog‘ini (TCN) modellashtirish masalasini ko‘rib chiqadi. Vaqt chegara tarmog‘i tizimlarda vaqtni taqsimlash va qaror qabul qilish jarayonlarini matematik tarzda ifodalashda qo‘llaniladi. Maqolada TCNning asosiy elementlari, ya'ni vaqt o‘zgaruvchilari, cheklovlar va yechimlar, shuningdek, bu tizimlarning adaptivligi va moslashuvchanligi haqida so‘z yuritiladi. Intellektual tizimlarda vaqt chegaralarini modellashtirishda Constraint Propagation (CP) va evristik algoritmlar kabi metodologiyalar qo‘llaniladi. Shuningdek, bu metodologiyalar tibbiyot, aviatsiya, robototexnika va transport tizimlaridagi amaliy qo‘llanilishlarini misollar bilan yoritadi.

**Kalit so‘zlar:** Vaqt chegarasi tarmog‘i (TCN), Intellektual adaptiv tizimlar, Constraint Propagation (CP), Evristik algoritmlar, Vaqtni taqsimlash, Optimal rejalashtirish, Resurslarni boshqarish, Adaptivlik va moslashuvchanlik.

**Abstract:** this article discusses the issue of modeling the Time Constraint Network (TCN) in intellectual adaptive systems. Time Constraint Networks are used to model time allocation and decision-making processes in dynamic and changing environments. The paper focuses on the basic components of TCN, including time variables, constraints, and solutions, as well as the adaptability and flexibility of these systems. Methodologies such as Constraint Propagation (CP) and heuristic algorithms are employed for time constraint modeling. The article also highlights practical applications in fields such as medicine, aviation, robotics, and transportation.

**Keywords:** Time Constraint Network (TCN), Intellectual adaptive systems, Constraint Propagation (CP), Heuristic algorithms, Time Allocation, Optimal Scheduling, Resource Management, Adaptability and Flexibility.

**Аннотация:** В статье рассматривается проблема моделирования сетей временных ограничений (TCN) в интеллектуальных адаптивных системах. Сети временных ограничений используются для моделирования распределения времени и процессов принятия решений в динамичных и изменяющихся условиях. Описание включает основные элементы TCN, такие как временные переменные, ограничения и решения, а также адаптивность и гибкость этих систем. В моделировании временных ограничений применяются такие методологии, как распространение ограничений (CP) и эвристические алгоритмы. Также приводятся примеры


ISSN 3030-3907

применения этих методов в таких областях, как медицина, авиация, робототехника и транспорт.

**Ключевые слова:** сеть временных ограничений (TCN), интеллектуальные адаптивные системы, распространение ограничений (CP), эвристические алгоритмы, распределение времени, оптимальное планирование, управление ресурсами, адаптивность и гибкость.

**Kirish**

Vaqt chegara tarmog‘i (Time Constraint Networks, TCN) — vaqtni taqsimlash, vaqtga bog‘liq cheklovlar va qaror qabul qilish jarayonlarini modellashtirish uchun ishlatiladigan matematik model. Ushbu model asosan intellektual adaptiv tizimlarda qo‘llaniladi, chunki tizimlar dinamik va o‘zgaruvchan sharoitlarda optimal va moslashuvchan javoblarni taqdim etishlari kerak. TCNni intellektual adaptiv tizimlarda qo‘llashdan maqsad, tizimning ishlash vaqtini samarali boshqarish va optimallashtirishdir.

Vaqt chegarasi va adaptiv tizimlar. Intellektual adaptiv tizimlar o‘zining ishlash jarayonini, ma'lumotlar oqimini va qaror qabul qilishni o‘zgaruvchan sharoitga moslashtirishi kerak. Bu tizimlar turli sohalarda ishlatiladi, masalan:

- sun'iy intellekt va robototexnikada real vaqtda muammolarni yechishda;
- aviatsiya va transport tizimlarida jadval tuzish va rejalashtirishda;
- tibbiyotda bemorlarni davolash va resurslarni boshqarishda.

TCNni bu tizimlarda qo‘llashdagi asosiy vazifa — tizimning cheklovlar (masalan, vaqt, resurslar, sharoitlar) bilan moslashishini ta'minlashdir.

Vaqt chegarasi tarmog‘ining asosiy elementlari:

1. Vaqt o‘zgaruvchilari (Variables): bu tizimda vaqtni ifodalovchi o‘zgaruvchilar bo‘lib, ular cheklovlar (constraints) orqali o‘zaro bog‘lanadi.
2. Cheklovlar (Constraints): vaqt chegaralari va boshqa resurslar bilan bog‘liq bo‘lgan cheklovlar tizimni ishlash jarayonida tartibga soladi. Masalan, har bir vazifa bajarilish uchun belgilangan minimal va maksimal vaqt chegaralari.
3. Yechimlar (Solutions): TCNning yechimi — bu tizimda vaqt o‘zgaruvchilarining moslashuvi va cheklovlarga mos keladigan holatdir.

Vaqt chegaralarini modellashtirish.

TCN tizimlari vaqti-vaqti bilan o‘zgaruvchi cheklovlar va muhitni inobatga olgan holda vaqti-vaqti bilan o‘zgaruvchi rejalar, qarorlar yoki strategiyalarni ishlab chiqadi. Bu jarayonni modellashtirishda asosan quyidagi metodologiyalar ishlatiladi:

1. Constraint Propagation (CP): vaqt cheklovlarini propagatsiya qilish orqali tizimdagi vaqt o‘zgaruvchilarining qaysi biri qanday vazifalarni bajara olishini aniqlash mumkin.



ISSN 3030-3907

2. Heuristic Algorithms: katta va murakkab tizimlar uchun evristik algoritmlar yordamida vaqt cheklovlarini moslashuvchan va optimal tarzda hal qilish mumkin.

Adaptivlik va moslashuvchanlik. Intellektual adaptiv tizimlar real vaqt rejimida o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishlari kerak. Bu tizimlar nafaqat mavjud vaqt cheklovlariga amal qiladi, balki yangi kiritilgan cheklovlar yoki o‘zgarishlarga tezda javob berish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Vaqt cheklovlarini tarmoq tarzida modellashtirish, tizimning o‘zini-o‘zi optimallashtirishga imkon beradi, masalan:

- vaqtni qayta taqsimlash (reshuffling) orqali tizimda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish;
- yangi cheklovlar kiritilishi bilan tizimning adaptivligini saqlash.

Amaliy qo‘llanilish sohalari:

- tibbiyotda: bemorlarni davolash va operatsion rejalashtirishda vaqt chegaralarini modellashtirish, masalan, shifokorlar uchun ish soatlarining chegarasi va davolash kursi uchun maksimal vaqt;
- aviatsiya va transportda: samolyotlarning reyslarida yoki transport vositalarining harakati uchun vaqtni boshqarish va optimallashtirish;
- robototexnikada: robotlarning harakat rejasini tuzish, ish vaqtini optimal taqsimlash va vazifalarni bajarish.

Constraint Propagation (CP) metodologiyasi kompyuter fanlarida keng qo‘llaniladigan yondashuv bo‘lib, asosan muammolarni hal qilishda, xususan, constraint satisfaction problems (CSP) da ishlatiladi. Bu metodologiya turli sohalarda qo‘llanilmoqda: optimizatsiya, sun’iy intellekt, algoritmlar va tarmoqlarni rejalashtirish kabi. Quyida Constraint Propagation metodologiyasining amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha tahlil qilish uchun nufuzli manbalardan ba'zi misollarni keltiramiz.

1. Constraint Satisfaction Problems (CSP) va ularning amaliy qo‘llanilishi.

CSP — ma'lum cheklovlar (constraints) asosida o‘zgaruvchilarni (variables) belgilashni talab qiluvchi muammolarni yechish metodologiyasidir. CSP metodologiyasi ko‘plab amaliy sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan.

**1.1. Sun'iy intellekt va robototexnika.**

Constraint Propagation algoritmlari robototexnika va sun'iy intellektda muhim ahamiyatga ega. Masalan, rejalashtirish muammolarida, robotlar va sun'iy intellekt tizimlari turli vazifalarni bajarish uchun cheklovlar bilan ishlaydi. Agar robotning harakati yoki har qanday boshqa amali ba'zi cheklovlarga (masalan, jismoniy muhitdagi ob'ektlar, xavfsizlik choralari) to‘g‘ri kelmasa, unda CP metodologiyasi yordamida to‘g‘ri echimlar topiladi. Masalan, manbada [1] CP metodologiyasining robototexnika va rejalashtirishdagi amaliy qo‘llanilishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.


ISSN 3030-3907

**1.2. Grafik ranglash muammolari.**

Grafik ranglash masalalari, masalan, “n-ta shaharni ranglash” yoki “ranglashning minimal sonini topish” masalalari Constraint Propagation yordamida hal qilinishi mumkin. Bu sohada manbada [2] taqdim etilgan Probabilistic Graphical Models metodologiyasi bilan bog‘liq tahlillar, shuningdek, CSP ni qanday qilib grafik modellarni qurishda ishlatish mumkinligini ko‘rsatadi.

2. Optimizatsiya va jadvalli rejalashtirish.

**2.1. Jadvalli rejalashtirish.**

Constraint Propagation metodologiyasi jadval tuzish va rejalashtirishda keng qo‘llaniladi. Mavjud cheklovlar va shartlarni hisobga olgan holda, masalan, ishchilarning ishlash soatlari, resurslar va vaqtni belgilash uchun optimallashtirilgan rejalashtirish tizimlari ishlab chiqiladi. Masalan, manbada [3] ishlab chiqilgan HSTS (Hybrid Space-Time Search) algoritmi jadval tuzishda CP metodologiyasini qo‘llashni ko‘rsatadi.

**2.2. Ishlab chiqarish va resurslarni taqsimlash.**

Ishlab chiqarish sohasida resurslarni taqsimlash muammosi keng tarqalgan. CP metodologiyasi yordamida ishlab chiqarish liniyalarida optimallashtirish amalga oshiriladi, masalan, mahsulot ishlab chiqarish rejasini tuzishda, kerakli resurslarni va materiallarni aniqlashda, mehnat vaqti va mashina vaqti taqsimotida. Manbada [4] ishlab chiqilgan algoritmlar bu sohada Constraint Propagation metodologiyasining amaliy qo‘llanilishi haqida kengroq ma'lumot beradi.

3. Infratuzilma va transport tizimlari.

**3.1. Transport va logistika.**

Transport tizimlarini rejalashtirishda Constraint Propagation muhim rol o‘ynaydi. Masalan, yo‘nalishlarni, vaqti-vaqti bilan va transport vositalarini optimallashtirishda. Bu yerda cheklovlar (masalan, har bir transport vositasi uchun belgilangan maksimal yuk og‘irligi, yo‘nalishdagi sharoitlar, vaqtlar) hisobga olinadi. Manbada [5] taqdim etilgan tadqiqotlarda logistika va transport tizimlarida CP metodologiyasining o‘rni ko‘rsatilgan.

**3.2. Aviatsiya sohasidagi amaliy qo‘llanishlar.**

Aviatsiya sohasida Constraint Propagation metodologiyasi yordamida reyslarni optimallashtirish, aeroportlarga qaysi samolyotlar qancha vaqt o‘tishini va samolyotlar o‘rtasidagi masofani saqlashni ta'minlash mumkin. Manbada [6] bu mavzu yoritilgan bo‘lib, aviatsiya tarmoqlarida soatlik rejalashtirishlar va samolyotlarni ko‘chirishda CP metodologiyasining ahamiyati ko‘rsatilgan.

**4. Shifoxona tizimlari va tibbiy amaliyot.**

Tibbiyotda ham Constraint Propagation metodologiyasi qo‘llaniladi, ayniqsa, jadval tuzish va resurslarni taqsimlash masalalarida. Misol uchun, shifoxonada bemorlarni muolajaga joylashtirishda, tibbiy jihozlar va shifokorlarni



ISSN 3030-3907

taqsimlashda CP yordamida optimal yechimlar topiladi. Manbada [7] shifoxonalar tizimi va tibbiy muammolarni yechishda CP yondashuvi haqida ma'lumotlar taqdim etilgan.

5. Axborot texnologiyalari va algoritmlar.

**5.1. Ma'lumotlar bazalarida.**

Constraint Propagation metodologiyasi ma'lumotlar bazalarida ma'lumotlarni to‘g‘ri joylashtirishda, masalan, ma'lumotlar integratsiyasi va normalizatsiyasida qo‘llaniladi. Bu metodologiya yordamida ma'lumotlar bazasida ishlov beriladigan cheklovlar, formatlar va integratsiya jarayonlarini tahlil qilish mumkin. Manbada [8] taqdim etilgan tadqiqotlar bu sohada CP metodologiyasining qanday ishlashini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan manbalar Constraint Propagation metodologiyasining turli amaliy sohalarda qanday ishlatilishini tushuntiradi. Har bir manba ushbu yo‘nalishdagi izlanishlarga mos keladigan mavzularda chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi.

**Uslubiyat (Methods) va materiallar (Materials).** Vaqt chegarasi tarmog‘ini modellashtirish. Constraint Propagation — muammolardagi chegaralarni (shartlarni) tizimli tarzda tarqatish va ularni qoniqtirishga harakat qilish usuli. U ko‘plab sun’iy intellekt, rejalashtirish, grafik modellash va matematik optimallashtirishda qo‘llaniladi.

**Asosiy g‘oya quyidagicha:**

- bir nechta o‘zaro bog‘langan o‘zgaruvchilar va ular ustida bir yoki bir nechta chegaralar (constraints) mavjud;
- chegaralar yordamida o‘zgaruvchilarning mumkin bo‘lgan qiymatlari kamaytirib boriladi — bu “propagation” deyiladi;
- shu yo‘l bilan, yechim maydoni toraytiriladi va yechimni topish osonlashadi.

Masalan: agar `X` o‘zgaruvchi `1..5` oraliqda bo‘lsa, va `X > Y` chegarasi bo‘lsa, `Y` qiymati `X` dan kichik yoki teng bo‘lishi kerak. Agar `X` uchun qiymat 3 deb belgilansa, `Y` ning qiymatlari avtomatik `1..3` oralig‘iga torayadi.

Vaqt chegara tarmog‘i (TCN) — vaqtga oid cheklovlarni modellashtirish uchun ishlatiladigan graf asosidagi metodologiya.

**Asosiy tushunchalar:**

- vaziyat (event, activity): vaqt o‘lchovida sodir bo‘ladigan harakat yoki hodisa;
- vaqt chegarasi (temporal constraint): harakatlar yoki voqealar orasidagi vaqt masofasini chegaralash (masalan, voqea A kamida 5 daqiqadan keyin boshlanishi kerak).

**TCN ning ishlashi:**

- tarmoqdagi tugunlar (nodes) — vaqt nuqtalari yoki voqealar;
- qirralar (edges) — ikki voqea orasidagi vaqt chegaralarini ifodalaydi, masalan:


ISSN 3030-3907

$$L \le t_j - t_i \le U$$

Bu yerda $t_j$ va $t_i$ — voqealar vaqti, L va U esa pastki va yuqori chegaralar.

Misol:

| **Voqea** | **Ta’rif** |
|---|---|
| $t_A$ | Topshiriqni boshlash vaqti |
| $t_B$ | Topshiriqni tugatish vaqti |
| Chegara | $5 \le t_B - t_A \le 10$ |

Vaqt chegarasi tarmog‘ida constraint propagation:

- chegaralar orasida vaqtlarni yangilash va chegaralarni toraytirish orqali yechimlar aniqlanadi;
- agar bir voqeaning boshlanishi aniqlansa, undan keyingi voqea vaqtlari ham avtomatik yangilanadi;
- bu orqali vaqtni rejalashtirish muammolari samarali hal qilinadi.

Qisqacha umumlashtirish:

| **Termin** | **Izoh** |
|---|---|
| Constraint Propagation | Chegaralarni tarqatish va yechimlarni qisqartirish usuli |
| Temporal Constraint Network (TCN) | Vaqtga oid cheklovlarni tarmoqda modellashtirish |
| Vaqt Chegarasi | Ikkita voqea orasidagi vaqt oralig‘i |
| Propagation | Chegaralar ta’sirida vaqtlar va qiymatlarni yangilash |

Misol kod yoki diagramma orqali ham tushuntirilishi mumkin. Masalan:

- matematik formulalar bilan tushuntirish;
- grafik ko‘rinish (diagramma) ishlab chiqish;
- Python-da kod yozish.

**Natijalar (Results).** Oddiy vaqtli jadval (schedule) tuzish va unga bajarilish vaqtlari bo‘yicha cheklovlarni belgilashni ko‘rib chiqamiz. Misol uchun, bizda bir nechta topshiriqlar (tasks) bor va har bir topshiriqning boshlanish va tugash vaqti uchun cheklovlar mavjud.

**Topshiriqlar:**

| **Topshiriq** | **Boshlanish vaqti ($t_s$)** | **Tugash vaqti ($t_e$)** | **Davomiylik (minut)** |
|---|---|---|---|
| A | $t_{s_A}$ | $t_{e_A}$ | 3 |
| B | $t_{s_B}$ | $t_{e_B}$ | 2 |
| C | $t_{s_C}$ | $t_{e_C}$ | 4 |

**Cheklovlar:**

- har bir topshiriq davomiyligi (tugash vaqti - boshlanish vaqti) ma’lum;



ISSN 3030-3907

- topshiriq B faqat topshiriq A tugagandan keyin boshlanishi mumkin;

•topshiriq C B dan keyin boshlanishi kerak.

**Matematik ifoda quyidagicha:**

$$t_{e_A} - t_{s_A} = 3;$$
$$t_{e_B} - t_{s_B} = 2;$$
$$t_{e_C} - t_{s_C} = 4;$$

$t_{s_B} \geq t_{e_A}$ (B faqat A tugagandan keyin boshlanadi);

$t_{s_C} \geq t_{e_B}$ (C faqat B tugagandan keyin boshlanadi).

Jadvalni Python va matplotlib yordamida chizish:


```python
import matplotlib.pyplot as plt
# Topshiriqlar va davomiyliklari
tasks = {
   'A': 3,
   'B': 2,
   'C': 4,
}
# Boshlanish va tugash vaqtlari (manually belgilangan cheklovlarga asoslanib)
start_times = {
   'A': 0,
   'B': 3,  # A tugagandan keyin
   'C': 5,  # B tugagandan keyin
}
# Jadvalni chizish
fig, ax = plt.subplots(figsize=(8, 3))
for i, task in enumerate(tasks):
   start = start_times[task]
   duration = tasks[task]
   ax.barh(i, duration, left=start, height=0.5, color='skyblue')
   ax.text(start + duration / 2, i, task, ha='center', va='center', color='black',
fontsize=12)
ax.set_yticks(range(len(tasks)))
ax.set_yticklabels(tasks.keys())
ax.set_xlabel('Vaqt')
ax.set_title('Oddiy Vaqtli Jadval (Gantt chart ko‘rinishida)')
ax.grid(True)
plt.show()
```



ISSN 3030-3907

Ushbu kod quyidagilarni hosil qiladi:

- Gantt diagramma ko‘rinishida topshiriqlar ketma-ketligi.
- Har bir topshiriq boshlanish va davomiylik bilan ko‘rsatilgan.
- Topshiriq B faqat A tugagandan so‘ng boshlanadi, C esa B tugagandan so‘ng.




Agar zarur bo‘lsa cheklovlarni avtomatik hisoblash (masalan, constraint propagation yordamida) yoki murakkabroq vazifalar bilan ishlash ham mumkin.

**Muhokama (Discussion).** Vaqt chegarasi tarmog‘ini (Time Constraint Networks, TCN) modellashtirish, intellektual adaptiv tizimlarda vaqti-vaqti bilan o‘zgaruvchi cheklovlar va muhit sharoitlariga moslashishni ta'minlashga qaratilgan kompleks jarayonlardan biri. Bunda muhokama qilinadigan asosiy muammolar sifatida quyidagilarni ta`kidlash mumkin.

1. Vaqt cheklovlarining murakkabligi. Vaqt cheklovlari real dunyo tizimlarida ko‘plab o‘zgaruvchan omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Har bir vazifa yoki jarayon o‘zining maksimal va minimal vaqt chegaralariga ega, ammo vaqtning o‘zgaruvchanligi va tizimning reaksiya tezligi bu cheklovlarni aniq hisoblashni qiyinlashtiradi. Vaqt chegaralarini aniq belgilashda tizimdagi noaniqliklar, masalan, resurslarning mavjudligi, texnik xatoliklar, tashqi sharoitlar (yomon ob-havo, trassadagi o‘zgarishlar) va kutilmagan voqealar (masalan, favqulodda holatlar) hisobga olinishi kerak. Shunda, “qanday qilib tizim vaqt cheklovlarini real vaqtda hisoblashda va optimallashtirishda noaniqliklarni boshqarishi mumkin?” degan savol shakllanadi.

2. O‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanlik (Adaptivlik). Intellektual tizimlarning asosiy maqsadi – o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanlikni


ISSN 3030-3907

ta'minlash. Vaqt chegaralari tarmog‘ini modellashtirishda tizimga yangi cheklovlar yoki sharoitlar kiritilganda, tizimning qanchalik tez va samarali moslashishi kerakligi katta muammolardan biridir. Yangi vaqt cheklovlarini yoki tashqi omillarning o‘zgarishini qabul qilganda tizimning optimal ish faoliyatini saqlash uchun qanday algoritmlar ishlatiladi? Tizimlarning tez va samarali adaptiv javob berish qobiliyati qanday oshirilishi mumkin? Bu masalada qanday algoritmlar yoki metodlar (masalan, heuristik algoritmlar, evolyutsion algoritmlar) samarali hisoblanadi?

3. Transport tarmoqlari, aviatsiya, ishlab chiqarish liniyalari kabi tizimlarda vaqtni boshqarish. Bu kabi tizimlar ko‘plab vaqt cheklovlari va resurslarga ega. Ularni optimallashtirishda tizimdagi barcha o‘zgaruvchilarni va cheklovlarni moslashtirish juda murakkab bo‘lishi mumkin. Bu tizimlarda turli vaqt cheklovlarini boshqarish va ularning o‘zaro ta'sirini hisoblashda qanday metodlar qo‘llaniladi? Bu tizimlar uchun vaqt cheklovlari tarmog‘ini modellashtirishda qanday parallel hisoblash usullari yoki vaqtni qisqartirish algoritmlari samarali bo‘lishi mumkin?

4. Vaqt chegarasi tarmog‘ining yechimlarini optimallashtirish. Vaqt cheklovlari tarmog‘ini modellashtirishda yechimlar ko‘pincha bir nechta bo‘lishi mumkin va har bir yechim turli darajada samarali bo‘ladi. Tizimlar optimal yechimni topish uchun ma'lum vaqt davomida o‘zgartirilgan sharoitlarda qarorlar qabul qilishi kerak. Vaqt chegaralarini optimallashtirishda qanday metodologiyalar yordamida tizimning samaradorligini oshirish mumkin? Evristik yondashuvlar, metaheuristik algoritmlar (optimallashtirish muammolarini hal qilish uchun ishlatiladigan yuqori darajadagi qidiruv strategiyalari) yoki evolyutsion algoritmlar vaqt chegaralarini optimallashtirishda qanday ishlatilishi mumkin? Qaysi usul tizimning tezkor ishlashini ta'minlaydi?

5. Real vaqtni rejalashtirish va resurslarni ta’qsimlash. Real vaqtda va resurslarni optimallashtirishda, vaqt chegaralarini modellashtirish va ularni amaliy jihatdan hal qilishning o‘ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Tizimni samarali boshqarish uchun real vaqtda qarorlar qabul qilish va vaqtni qayta taqsimlash kerak bo‘lishi mumkin. Tizimda real vaqtda vaqt cheklovlarini boshqarish va qaror qabul qilishni qanday amalga oshirish mumkin? Real vaqtda vaqt cheklovlarini boshqarish va optimallashtirishda qanday algoritmlar samarali bo‘lishi mumkin? Tizimning samaradorligini oshirish uchun qanday optimizatsiya metodlari qo‘llanishi kerak?

6. Noaniqlik va kutilmagan voqealar. Tizimda yuzaga keladigan noaniqliklar yoki kutilmagan voqealar (masalan, resurslarning yetishmasligi, texnik nosozliklar, tashqi sharoitlarning o‘zgarishi) vaqt cheklovlarini modellashtirishni qiyinlashtiradi. Bu holatlarda tizimning o‘zini saqlash va to‘g‘ri qarorlar qabul


ISSN 3030-3907

qilish muhimdir. Noaniqliklar va kutilmagan voqealarni qanday hisobga olish mumkin, va tizimni shu holatda qanday moslashuvchan qilish mumkin? Vaqt cheklovlarining noaniqligini hisobga olishda qanday statistik yoki probabilistik usullar (tasodifiylikni va ehtimolliklarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilish, tahlil qilish va optimallashtirish uchun qo‘llaniladigan metodlar) samarali bo‘lishi mumkin? Noaniqliklarni optimallashtirishda qanday yondashuvlar qo‘llaniladi?

7. Kollaboratsiya (maqsadni amalga oshirish uchun bir yoki bir nechta shaxs yoki guruhlarning birgalikda ishlashi) va ko‘p agentli tizimlar. Vaqt cheklovlari tarmog‘ini modellashtirishda ko‘p agentli tizimlarda agentlar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirlar va resurslarni taqsimlash muammolari ham katta o‘rin tutadi. Tizimlarning kollaborativ ishlashini ta'minlashda vaqt cheklovlarini o‘zaro moslashtirish muhimdir. Ko‘p agentli tizimlarda vaqt cheklovlarini qanday muvofiqlashtirish mumkin? Agentlar o‘rtasida vaqtni taqsimlash va optimal rejalashtirishni ta'minlash uchun qanday algoritmlar yoki yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin?

**Xulosa (Conclusion).** Vaqt chegarasi tarmog‘ini modellashtirish intellektual adaptiv tizimlarda vaqtni optimallashtirish va sharoitlarga moslashtirish uchun muhim vositadir. Bu model, tizimning samarali ishlashini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan vaqt va cheklovlarni boshqarishda yordam beradi. Hozirgi kunda vaqt chegaralari va adaptiv tizimlarni modellashtirish, ayniqsa, sun'iy intellekt va robototexnika kabi sohalarda yanada dolzarb bo‘lib bormoqda.

Vaqt chegarasi tarmog‘ini modellashtirishda ko‘plab muammolar mavjud, ularning eng asosiysi tizimning moslashuvchanligi va vaqt cheklovlarining samarali boshqarilishi hisoblanadi. Katta tizimlarda va real vaqtda vaqt chegaralarini modellashtirish uchun yangi algoritmlar va metodologiyalarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Tizimlarning optimallashuvi, noaniqliklarni boshqarish va agentlar o‘rtasidagi kollaboratsiya kabi masalalar muhokama qilinishi kerak.

Constraint Propagation metodologiyasi juda ko‘plab amaliy sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Asosiy qo‘llanilish joylari sun'iy intellekt, transport tizimlari, tibbiyot, ishlab chiqarish va optimizatsiya jarayonlarida ko‘rinadi. Unga oid so‘nggi ilmiy tadqiqotlar va amaliy qo‘llanmalar, masalan, nufuzli manbalardan [1,2,7] olingan tavsiyalar metodologiyaning turli sohalarda samarali ishlatilishini ta'minlamoqda.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan masalalar bo‘yicha tadqiqotlar va amaliy ishlar, intellektual adaptiv tizimlarning samarali va moslashuvchan ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dechter, R. (2003). Constraint Processing. Elsevier, Morgan Kaufmann. [Elsevier - Constraint Processing](https://www.elsevier.com/books/constraint-processing/dechter/978-1-55860-890-3)



ISSN 3030-3907

2. Koller, D., & Friedman, N. (2009). Probabilistic Graphical Models. MIT Press. [MIT Press - Probabilistic Graphical Models](https://mitpress.mit.edu/books/probabilistic-graphical-models).
3. Muscettola, N., et al. (1998). HSTS: Hybrid Space-Time Search for Scheduling and Planning. Artificial Intelligence. [Elsevier - HSTS: Hybrid Space-Time Search](https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0004370298000365).
4. Benhamou, B., et al. (1994). Constraint Logic Programming. Communications of the ACM. [ACM Digital Library](https://dl.acm.org/doi/10.1145/176588.176641).
5. Trentesaux, D., et al. (2008). Constraint Programming for Multi-Agent Systems. International Journal of Agent-Oriented Software Engineering. [Springer - Constraint Programming for Multi-Agent Systems](https://link.springer.com/article/10.1007/s11062-008-0043-4).
6. Muscholl, M., et al. (2010). Constraint Propagation in Aviation Scheduling. Journal of Aerospace Computing, Information, and Communication. [AIAA - Constraint Propagation in Aviation Scheduling](https://arc.aiaa.org/doi/10.2514/1.47112).
7. Zweben, M., et al. (2000). Medical Resource Allocation Using Constraint Propagation. Journal of Medical Systems. [Springer - Medical Resource Allocation](https://link.springer.com/article/10.1023/A:1022761522825).
9. Bergamaschi, S., et al. (2011). Constraint Propagation for Data Integration in Database Systems. Information Systems. [ScienceDirect - Constraint Propagation for Data Integration](https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0306437911000719).



ISSN 3030-3907

# TAKOMILLASHGAN ZOVUR TIZIMLARI YORDAMIDA YER OSTI SUVLARI SATHINING PASAYISH DINAMIKASINI BAHOLASH

**Alisher Fatxulloyev**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
**Maqsud Otaxonov**
*Smart Solution System MCHJ*
**Abdullo Hoshimov**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
**Shoxista Ermatova**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
*E-mail: ahoshimow@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turli mexanik tarkibdagi tuproqlarda takomillashgan zovur tizimi elementlaridan biri — vertikal quvur yordamida yer osti suvlari sathining pasayish dinamikasini baholash metodikasi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, suv sathining pasayish vaqti hamda quvurga kelib tushuvchi oqim miqdori tuproqning mexanik tarkibiga bevosita bog‘liq ekani aniqlandi. Qumli va gil tuproqlar yuqori oqim va katta hajm qiymatlari bilan ajralib turgan bo‘lsa, qumloq va yengil qumloq tuproqlar o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi, o‘rta qumloq tuproqlar esa eng past qiymatlarni ko‘rsatdi. Suv sarfi o‘zgaruvchan bo‘lgan sharoitlarda ham tuproqning mexanik xususiyatlari jarayon dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, vertikal drenaj tizimlarini loyihalashda har bir tuproq turi uchun alohida muhandislik yechimlarini ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Vertikal quvur, tushish vaqti, tuproq sharoiti, takomillashtirilgan zovur tizimi, sarf, yer osti suvlari sathi

**Аннотация:**В данной статье разработана методика оценки динамики понижения уровня грунтовых вод с использованием одного из элементов усовершенствованной дренажной системы — вертикальной трубы — в почвах с различным механическим составом. Результаты исследований показали, что как время понижения уровня воды, так и величина притока воды в трубу напрямую зависят от механического состава почвы. Песчаные и глинистые почвы характеризуются высокими значениями расхода и объёма притока, тогда как супесчаные и лёгкосуглинистые почвы демонстрируют средние показатели. Самые низкие значения были зафиксированы в среднесуглинистых почвах. Установлено, что даже при изменяющемся водном расходе механические свойства почвы оказывают существенное


ISSN 3030-3907

влияние на динамику процесса, что требует разработки отдельных инженерных решений для каждого типа почвы при проектировании вертикальных дренажных систем.

**Ключевые слова:** Ключевые слова: вертикальная труба, время понижения, почвенные условия, усовершенствованная дренажная система, расход, уровень грунтовых вод.

**Abstract:**This study develops a methodology for assessing the groundwater level drawdown dynamics using a vertical pipe — one of the key elements of an improved drainage system — under different soil mechanical conditions. The results show that both the groundwater drawdown time and the inflow rate into the pipe are directly controlled by the mechanical composition of the soil. Sandy and clayey soils exhibited the highest inflow rates and volumes, whereas sandy loam and light loam soils showed intermediate values. The lowest values were observed in medium loam soils. The findings also indicate that even under variable discharge conditions, soil mechanical properties have a significant impact on the process dynamics. Therefore, the design of vertical drainage systems must be tailored to each soil type and requires soil-specific engineering solutions.

**Keywords:** vertical pipe, drawdown time, soil conditions, improved drainage system, discharge rate, groundwater level.

**Kirish**

Ma’lumki, mamlakatimizda yopiq yotiq zovur tizimlari keng qo‘llanilgan bo‘lib, o‘tgan asrning 1970–1980-yillarida ularni barpo etishda asbestosement, sopol va plastmassa quvurlardan foydalanilgan. Hozirgi kunda Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida ham gorizontal zovur tizimlari keng tarqalgan bo‘lib, uzoq muddat davomida ekspluatatsiya qilinganligi sababli ularning joriy holati sezilarli darajada yomonlashgan. Eng muhim muammolardan biri — yopiq yotiq quvurlar ustiga qoplangan filtr materiallarining loyqa bilan to‘lib qolishi natijasida suv o‘tkazuvchanlik xususiyatining pasayib ketganidir. Shu sababli sho‘r yuvish tadbirlari amalga oshirilganda, drenaj tizimidan sho‘r suvlarning oqib chiqishi kechikmoqda. Bu esa o‘z navbatida, yerning botqoqlanishiga olib kelib, aprel–may oylarida agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida bajarish imkoniyatini cheklab qo‘ymoqda. Ushbu muammolarning asosiy sababi sifatida filtr material qatlamining loyqa bilan to‘liq to‘silib qolishi va natijada tuproqning filtratsiya koeffitsienti qiymati keskin kamayishi ko‘rsatib o‘tiladi.


Mazkur holatning yechimi sifatida har 40–70 metr masofada gorizontal quvurlar bilan yaxlit tutashadigan vertikal quvurlarni (radiusi $r_0$ = 0,08–0,14 m, gidravlik hisob natijalariga qarab) o‘rnatish taklif etilmoqda. Buning sababi shundaki, mavjud gorizontal quvurlar suvni samarali o‘tkaza olmayapti, biroq yangi o‘rnatiladigan vertikal quvurlar usti yangi filtr matolar bilan qoplanganligi



ISSN 3030-3907

sababli suv o‘tkazuvchanlik qobiliyati sezilarli darajada yaxshilanadi. Sho‘r yuvish maqsadida maydonga berilgan suv yer ostiga singadi va vertikal quvurlar orqali filtr qoplamadan o‘tib, gorizontal quvurlar tizimiga kelib tushadi hamda ochiq zovurlar yoki kollektorlar orqali tashqariga chiqariladi. Bu jarayonda gorizontal quvurlar suvni tashuvchi funksiyani bajaradi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, ushbu taklif etilayotgan usul yuqori samaraga ega. Chunki, aks holda, mavjud gorizontal zovurlarni qayta qazib, yangi quvurlarni yotqizish zarur bo‘ladi, bu esa juda katta moliyaviy mablag‘ va vaqt sarfini talab etadi. Taklif qilinayotgan usul nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki vaqt tejalishi va qisqa muddatda qurilishni ta’minlaydi. Shu bois ushbu tizimni shartli ravishda “takomillashgan zovur tizimi”deb atash mumkin (1-rasm).




**1-rasm. Takomillashgan zovur konstruksiyasi**

Biroq, bunday tizimni amaliyotga tatbiq etishdan avval, uning gidravlik hisoblarini bajarish zarur. Xususan, yangi o‘rnatilgan quvurlar yordamida yer osti suvlari sathining pasayishiga qancha vaqt talab etilishi, suvning ekin maydonini qachon yaroqli holatga keltirishi kabi masalalarning nazariy asoslarini ishlab chiqish muhimdir.

Takomillashgan zovur tizimlari orqali yer osti suvlari sathining pasayish dinamikasini chuqur tahlil qilish ilmiy doiralarda keng qamrovli tadqiqotlarni talab etadi. So‘nggi yillardagi ishlanmalar va modellashtirish uslublari ushbu tizimlarning samaradorligini isbotlab berdi.

Birinchidan, drenaj tizimlari yordamida yer osti suvlari sathini pasaytirish nafaqat suv hajmini kamaytiradi, balki sho‘rlanishga qarshi kurashda ham muhim rol o‘ynaydi. MODFLOW-LGR-MT3D modeli yordamida yer osti suvlarining sho‘rlanishi 50% gacha kamaytirilishi mumkinligi aniqlangan [1, 5].

Gorizontal drenaj tizimlari ayniqsa urbanizatsiyalashgan hududlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilib, suv sathining doimiy nazoratini ta’minlaydi [2]. Shunga


ISSN 3030-3907

o‘xshash tarzda, ikkilik drenaj tizimlari orqali suv sathi tezroq pasaytirilib, meliorativ samaradorlik ortgani kuzatilgan [3].

Zovur tarmoqlarining dizayni, ya’ni ularning joylashuvi va oqim yo‘nalishlariga nisbatan burchak ostida qurilishi, suv sathini tushirish tezligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat o‘rganilgan tadqiqotlar drenaj yo‘nalishini oqimga moslashtirish suvlarning chiqarilishi tezligini oshirishini ko‘rsatgan [4, 6]. Tizim dizaynining boshqa muhim jihatlari — quvurlar orasidagi masofa, chuqurlik va diametr o‘zgarishi — yer osti suvlari darajasiga sezilarli ta’sir qiladi. Masalan, chuqur va zich joylashtirilgan zovurlar suv sathini sezilarli darajada pasaytirishi aniqlangan [7, 10, 12].

Nazoratli drenaj tizimlari (Controlled Drainage Systems) suvni yanada optimallashtirilgan tartibda boshqarishga imkon yaratadi. 8 yillik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bunday tizimlar hosildorlikni saqlab qolgan holda, suv sathini barqaror ushlab turishga imkon beradi [8].

Model va simulyatsiya usullari — xususan, Vensim, MODFLOW va CFD modellar — zovur tizimlarining yer osti suvlari sathiga ta’sirini aniq tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Ushbu modellar orqali zovur joylashuvi, harakat trayektoriyasi, va sho‘rlanish darajasi kabi ko‘rsatkichlar aniqlashtirilgan [1, 5, 9, 11, 15].

Region miqyosida drenaj talablari va sho‘rlanish darajasini kartografik hamda matematik modellashtirish orqali baholash imkonini beruvchi metodikalar ishlab chiqilgan. Bu yondashuvlar drenaj tizimini joylashtirishdan avval rejalashtirish bosqichida juda foydalidir [13, 14].

Yakuniy natijalar shuni ko‘rsatadiki, takomillashgan zovur tizimlari suv sathining pasayishini tezlashtiradi, sho‘rlanish darajasini pasaytiradi va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining barqarorligini ta’minlaydi.

**METODOLOGIYA**

Tadqiqot vertikal drenaj sharoitida, beqaror harakat davrida yer osti suvlari sathining boshlang‘ich balandlik ($H_0$) dan quduq ichidagi balandlik ($h_0$) gacha pasayishini hisoblashga qaratilgan. Bu jarayonda suv sarfi (Q) doimiy emas, vaqt davomida kamayib boradi.

Barqaror holat uchun quyidagi formula ishlatiladi:

$$Q = \pi k \frac{H_0^2 - h_0^2}{ln\frac{R}{r_0}} \qquad (3)$$

Bu yerda:

k — filtratsiya koeffitsienti,

R— ta’sir radiusi,

$r_0$— vertikal quvur radiusi,

$H_0$, $h_0$— suv sathi balandliklari.



ISSN 3030-3907

Beqaror sharoitda esa Q≠ $cons't$, ya'ni vaqt davomida o'zgaruvchi funksiya sifatida olinadi.

**Suv balansi yondashuvi**

Suv sathining pasayishi uchun vaqt:

$$\Delta t = \frac{\Delta V}{Q} \quad (4)$$

Hajm farqi:

$$\Delta V = V(h_{i+1}) - V(h_i) \quad (5)$$

Umumiy hajm ifodasi:

$$V(h) = \pi H_0(R^2 - r_0^2) - 2\pi \int_{r_0}^{R} rh(r)dr \quad (6)$$

Vertikal quvur suv chuqurligi $h_q$ - $H_0$ dan $h_0$ gacha o'zgartirilib ( $H_0 \le h_q \le h_0$, n ta qatlam hosil qilindi har bir qatlam uchun quyidagi formula yordamida suv sarfi hisoblab topildi ((H0, k, R) va ($r_0$) – o'zgarmas):

$$Q = 1.36 \frac{H_0^2 - h_q^2}{lg\frac{R}{r_0}} k \quad (7)$$

Keyin ushbu ifoda yordamidan yer osti suvlari pasaymasdan oldingi holatda ($H_0$-$h_q$=0) vertikal quvur atrofidagi to'la hajm hisoblab topildi:

$$V_{to'la} = \pi H_0(R^2 - r_0^2) \quad (8)$$

$H_0 \le h_q \le h_0$ gacha bo'lgan har bir qatlamda depressiya chizig'idan yuqorida joylashgan vertikal quvur chuqurligini kamayishi hisobiga paydo bo'lgan yo'qolgan suv hajmi esa quyidagicha aniqlandi:

$$V_{dep} = V_{to'la} - V_{hozhaq} \quad (9)$$

bu yerda $V_{hozhaq}$ – vertikal quvurdagi hozirgi haqiqiy suv hajmi, u quyidagicha ifodalandi:

$$V_{hozhaq} = 2\pi \int_{r_0}^{R} rh(r)dr \quad (10)$$

Izoh: $V_{hozhaq}$ qiymatini hisoblash uchun Python'da yaratilgan dasturiy moduldan foydalanildi. Unda raqamli integrallash (scipy.integrate.quad) yordamida (r)–(h(r)) juftliklari asosida $\int rh(r)dr$ aniq-sonli hisoblab chiqildi.

$V_{dep}$ aniqlangandan keyin quyidagi formula yordamida qatlamlar bo'yicha suv kamayishi aniqlanadi:

$$\Delta V_i = V(h_{i+1}) - V(h_i)$$

Bu ifoda har bir qatlamda qancha suv kamayganini ko'rsatadi.

Real hajm va qatlam bo'yicha vaqt - Geometrik hajm kamayishi $\Delta V$-dan tuproq turiga mos real suv kamayishi quyidagicha olindi:

$$\Delta V_{real,i} = \Delta V_i \frac{n_i}{100}(1 - CHDNS_i) \quad (11)$$

bu yerda ($n_i$)-tuproq g'ovakligi, $CHDNS_i$ — i-cheklangan dala nam sig'imi. Har bir qatlam uchun vaqt:



ISSN 3030-3907

$$\Delta t_i = \frac{\Delta V_{real,i}}{Q_i} \quad (12)$$

Shunda umumiy vaqt yig‘indisi:

$$t_{um} = \sum_i \Delta t_i \quad (13)$$

## NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Vertikal drenaj quvurida yer osti suvlari sathining pasayishi jarayonini baholash maqsadida nazariy ifodalarga asoslangan gidravlik hisob-kitoblar amalga oshirildi. Hisoblashlarda boshlang‘ich parametrlar sifatida quvurdagi suv chuqurligi ($h_0$), suvli qatlam qalinligi ($H_0$), filtratsiya koeffitsienti (k), ta’sir radiusi (R) va quvur radiusi ($r_0$) qiymatlari qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida tuproqning mexanik tarkibiga ko‘ra besh xil tuproq turi tanlab olindi va har bir tuproq sharoitida yer osti suvlari sathining pasayishi uchun zarur bo‘lgan vaqt miqdori aniqlandi.

O‘tkazilgan gidravlik hisoblashlar natijalari tizimli ravishda qayd etilib, ular jadval ko‘rinishida keltirildi. Ushbu natijalar tuproqning fizik-mexanik xususiyatlariga bog‘liq holda drenaj samaradorligini baholash imkonini beradi (1,2,3,4,5,6-jadvallar).

**1-jadval.**

**Qumli tuproqlar sharoitida vertikal drenaj quvurida yer osti suvlari sathining pasayishi uchun ketgan vaqtni aniqlash**

| $h_0$, m | $H_0$, m | Q, $m^3$/kun | $V_{real}$, $m^3$ | T, kun | $\Delta V_{real}$, $m^3$ | $\Delta t$, kun | $V_{cu.real}$, $m^3$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 8.00 | 8.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 |
| 7.40 | 8.00 | 4.83 | 198.89 | 41.18 | 198.89 | 41.18 | 32617.23 |
| 6.80 | 8.00 | 9.28 | 384.51 | 41.42 | 185.62 | 20.00 | 32431.61 |
| 6.20 | 8.00 | 13.36 | 556.42 | 41.65 | 171.92 | 12.87 | 32259.69 |
| 5.60 | 8.00 | 17.06 | 714.20 | 41.86 | 157.78 | 9.25 | 32101.92 |
| 5.00 | 8.00 | 20.38 | 857.42 | 42.06 | 143.22 | 7.03 | 31958.70 |
| 4.40 | 8.00 | 23.33 | 985.66 | 42.25 | 128.24 | 5.50 | 31830.46 |
| 3.80 | 8.00 | 25.90 | 1098.52 | 42.41 | 112.87 | 4.36 | 31717.59 |
| 3.20 | 8.00 | 28.10 | 1195.64 | 42.55 | 97.12 | 3.46 | 31620.47 |
| 2.60 | 8.00 | 29.92 | 1276.68 | 42.67 | 81.04 | 2.71 | 31539.44 |
| 2.00 | 8.00 | 31.36 | 1341.33 | 42.77 | 64.65 | 2.06 | 31474.79 |
| | | 12.37 | | | 1341.34 | 108.40 | |
| qumli | | | | | | | |



ISSN 3030-3907

**2-jadval.**

**Qumloq tuproqlar sharoitida vertikal drenaj quvurida yer osti suvlari sathining pasayishi uchun ketgan vaqtni aniqlash**

| $h_0$, m | $H_0$, m | Q, $m^3$/kun | $V_{real}$, $m^3$ | T, kun | $\Delta V_{real}$, $m^3$ | $\Delta t$, kun | $V_{cu.real}$, $m^3$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 8.00 | 8.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0 |
| 7.40 | 8.00 | 4.83 | 181.78 | 37.64 | 181.78 | 37.64 | 29811.45 |
| 6.80 | 8.00 | 9.28 | 351.43 | 37.86 | 169.65 | 18.28 | 29641.79 |
| 6.20 | 8.00 | 13.36 | 508.56 | 38.07 | 157.13 | 11.76 | 29484.67 |
| 5.60 | 8.00 | 17.06 | 652.76 | 38.26 | 144.21 | 8.45 | 29340.46 |
| 5.00 | 8.00 | 20.38 | 783.66 | 38.45 | 130.90 | 6.42 | 29209.56 |
| 4.40 | 8.00 | 23.33 | 900.87 | 38.61 | 117.21 | 5.02 | 29092.36 |
| 3.80 | 8.00 | 25.90 | 1004.03 | 38.76 | 103.16 | 3.98 | 28989.2 |
| 3.20 | 8.00 | 28.10 | 1092.79 | 38.89 | 88.77 | 3.16 | 28900.43 |
| 2.60 | 8.00 | 29.92 | 1166.86 | 39.00 | 74.07 | 2.48 | 28826.37 |
| 2.00 | 8.00 | 31.36 | 1225.95 | 39.09 | 59.09 | 1.88 | 28767.28 |
| qumloq | | | | | | | |
| | | | | | | | |

**3-jadval.**

**Yengil qumloq tuproqlar sharoitida vertikal drenaj quvurida yer osti suvlari sathining pasayishi uchun ketgan vaqtni aniqlash**

| $h_0$, m | $H_0$, m | Q, $m^3$/kun | $V_{real}$, $m^3$ | T, kun | $\Delta V_{real}$, $m^3$ | $\Delta t$, kun | $V_{cu.real}$, $m^3$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 8.00 | 8.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 |
| 7.40 | 8.00 | 4.83 | 178.13 | 36.88 | 178.13 | 36.88 | 29213.42 |
| 6.80 | 8.00 | 9.28 | 344.38 | 37.10 | 166.25 | 17.91 | 29047.17 |
| 6.20 | 8.00 | 13.36 | 498.36 | 37.30 | 153.97 | 11.53 | 28893.19 |
| 5.60 | 8.00 | 17.06 | 639.67 | 37.50 | 141.31 | 8.28 | 28751.88 |
| 5.00 | 8.00 | 20.38 | 767.94 | 37.67 | 128.27 | 6.29 | 28623.61 |
| 4.40 | 8.00 | 23.33 | 882.80 | 37.84 | 114.86 | 4.92 | 28508.75 |
| 3.80 | 8.00 | 25.90 | 983.89 | 37.98 | 101.09 | 3.90 | 28407.67 |
| 3.20 | 8.00 | 28.10 | 1070.87 | 38.11 | 86.99 | 3.10 | 28320.68 |
| 2.60 | 8.00 | 29.92 | 1143.45 | 38.22 | 72.58 | 2.43 | 28248.10 |
| 2.00 | 8.00 | 31.36 | 1201.36 | 38.31 | 57.90 | 1.85 | 28190.20 |
| yengil qumloq | | | | | | | |



ISSN 3030-3907

**4-jadval.**

**O‘rta qumloq tuproqlar sharoitida vertikal drenaj quvurida yer osti suvlari sathining pasayishi uchun ketgan vaqtni aniqlash**

| $h_0$, m | $H_0$, m | Q, $m^3$/kun | $V_{real}$, $m^3$ | T, kun | $\Delta V_{real}$, $m^3$ | $\Delta t$, kun | $V_{cu.real}$, $m^3$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 8.00 | 8.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0 |
| 7.40 | 8.00 | 4.83 | 170.84 | 35.37 | 170.84 | 35.37 | 28017.37 |
| 6.80 | 8.00 | 9.28 | 330.28 | 35.58 | 159.44 | 17.18 | 27857.92 |
| 6.20 | 8.00 | 13.36 | 477.95 | 35.78 | 147.67 | 11.05 | 27710.25 |
| 5.60 | 8.00 | 17.06 | 613.48 | 35.96 | 135.53 | 7.94 | 27574.72 |
| 5.00 | 8.00 | 20.38 | 736.50 | 36.13 | 123.02 | 6.04 | 27451.7 |
| 4.40 | 8.00 | 23.33 | 846.65 | 36.29 | 110.15 | 4.72 | 27341.55 |
| 3.80 | 8.00 | 25.90 | 943.60 | 36.43 | 96.95 | 3.74 | 27244.6 |
| 3.20 | 8.00 | 28.10 | 1027.03 | 36.55 | 83.43 | 2.97 | 27161.18 |
| 2.60 | 8.00 | 29.92 | 1096.64 | 36.66 | 69.61 | 2.33 | 27091.57 |
| 2.00 | 8.00 | 31.36 | 1152.17 | 36.74 | 55.53 | 1.77 | 27036.03 |
| o‘rta qumloq | | | | | | | |

**5-jadval.**

**Gil tuproqlar sharoitida vertikal drenaj quvurida yer osti suvlari sathining pasayishi uchun ketgan vaqtni aniqlash**

| $h_0$, m | $H_0$, m | Q, $m^3$/kun | $V_{real}$, $m^3$ | T, kun | $\Delta V_{real}$, $m^3$ | $\Delta t$, kun | $V_{cu.real}$, $m^3$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 8.00 | 8.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0.00 | 0 |
| 7.40 | 8.00 | 4.83 | 184.25 | 38.15 | 184.25 | 38.15 | 30216.13 |
| 6.80 | 8.00 | 9.28 | 356.20 | 38.37 | 171.96 | 18.52 | 30044.17 |
| 6.20 | 8.00 | 13.36 | 515.46 | 38.58 | 159.26 | 11.92 | 29884.91 |
| 5.60 | 8.00 | 17.06 | 661.63 | 38.78 | 146.16 | 8.57 | 29738.75 |
| 5.00 | 8.00 | 20.38 | 794.30 | 38.97 | 132.67 | 6.51 | 29606.07 |
| 4.40 | 8.00 | 23.33 | 913.10 | 39.14 | 118.80 | 5.09 | 29487.28 |
| 3.80 | 8.00 | 25.90 | 1017.66 | 39.29 | 104.56 | 4.04 | 29382.72 |
| 3.20 | 8.00 | 28.10 | 1107.63 | 39.42 | 89.97 | 3.20 | 29292.75 |
| 2.60 | 8.00 | 29.92 | 1182.70 | 39.53 | 75.07 | 2.51 | 29217.67 |
| 2.00 | 8.00 | 31.36 | 1242.59 | 39.62 | 59.89 | 1.91 | 29157.78 |
| Gil | | | | | | | |




ISSN 3030-3907

**6-jadval.**

**Turli xil tuproqlar sharoitida vertikal drenaj quvurida yer osti suvlari sathining pasayishi uchun ketgan vaqtni aniqlash**

| Mexanik tarkibiga ko‘ra tuproq turi | CHDNS | G‘ovaklik, % | $V_{real}$, $m^3$ | $t_{um}$, kun |
|---|---|---|---|---|
| Qumli | 0.07 | 39.00 | 1341.33 | 108 |
| Qumloq | 0.22 | 42.50 | 1225.95 | 99 |
| Yengil qumloq | 0.27 | 44.50 | 1201.36 | 97 |
| O‘rta qumloq | 0.33 | 46.50 | 1152.17 | 93 |
| Gil | 0.36 | 52.50 | 1242.59 | 100 |
| | | | | |


Hisoblash natijalari asosida tuzilgan jadvallardan grafiklar qurildi. Ushbu grafiklar yordamida asosiy gidravlik kattaliklar o‘rtasidagi funksional bog‘lanishlar vizual shaklda ifodalandi. Grafik tahlil gidravlik jarayonlarning dinamikasini yaqqol ko‘rsatib, tuproq xususiyatlari hamda boshlang‘ich parametrlarning drenaj tizimi samaradorligiga ta’sirini aniqroq baholash imkonini berdi (1,2,3,4-rasmlar).




**2-rasm. Yer osti suvlari sathining tushish vaqti- t va vertikal quvurdagi suv chuqurligi -hq orasidagi bog‘lanish grafigi**


2-rasmda keltirilgan grafik tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, vertikal drenaj quvuridagi suv chuqurligi (hq) turli xil tuproq sharoitlarida yer osti suvlari sathining pasayish vaqti bo‘yicha turlicha qiymatlarni namoyon etadi. Tuproq xususiyatlari o‘rtasidagi farqlar nisbatan kichik bo‘lishiga qaramay, grafikdan ko‘rinadiki, har bir tuproq sharoiti o‘ziga xos gidravlik xususiyatlarga ega bo‘lib, loyihalash jarayonida individual muhandislik yechimlarini talab qiladi.


ISSN 3030-3907




**3-rasm. Qatlamdagi Δ*V*-hajm va vertikal quvurdagi suv chuqurligi- hq orasidagi bog‘lanish grafigi**

3-rasmdagi grafik tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, qumli va gil tuproqlar vertikal drenaj quvuriga nisbatan ko‘proq yer osti suvlari oqimini shakllantirgan. Qumloq va yengil qumloq tuproqlar o‘rtacha darajadagi oqim qiymatlarini ko‘rsatgan bo‘lsa, o‘rta qumloq tuproqlar eng kam miqdordagi yer osti suvlari oqimini vertikal drenaj quvuriga uzatgan. Ushbu natija tuproqning mexanik tarkibi drenaj jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir etishini yaqqol ko‘rsatib bermoqda.-rasmdagi grafikdan shuni anglash mumkinki qumli va gil tuproqlar vertikal drenaj quvurga nisbatan ko‘proq yer osti suvlari oqimini hosil qilgan, qumloq va yengil qumloq tuproqlar o‘rtacha, o‘rta qumloq tuproqlar esa vertikal drenaj quvuriga kam miqdordagi yer osti suvlari oqimini qabul qilib olgan.





**4-rasm. Barqaror va beqaror harakatda yer osti suvlari sathining tushish vaqtlari orasidagi bog‘lanish grafigi**

4-rasmda keltirilgan grafik tahlil natijalaridan anglash mumkinki, turli xil tuproq sharoitlari yer osti suvlari sathining pasayish vaqtlariga faqat sarf doimiy bo‘lgan holatdagina emas, balki sarf o‘zgaruvchan bo‘lgan sharoitlarda ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat tuproqning mexanik tarkibi va gidravlik xususiyatlari jarayon dinamikasida muhim rol o‘ynashini, shuningdek,



ISSN 3030-3907

loyihalashda o‘zgaruvchan rejimlar sharoitida ham har bir tuproq turi uchun alohida muhandislik yondashuvlarini talab qilishini ko‘rsatadi.




**5-rasm. Vertikal quvurdagi suv chuqurligi – $h_q$ va unga mos keluvchi haqiqiy yer osti suvlari hajmi – Vcu.real orasidagi bog‘lanish grafigi**

5-rasmda keltirilgan grafik tahlil natijalariga ko‘ra, vertikal drenaj quvuri chuqurligiga mos keluvchi haqiqiy yer osti suvlari hajmi turli xil tuproq sharoitlarida sezilarli farqlar bilan namoyon bo‘ladi. Jumladan, qumli va gil tuproqlarda haqiqiy suv hajmi nisbatan yuqori qiymatlarni ko‘rsatgan bo‘lsa, yengil qumloq va qumloq tuproqlarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha darajada qayd etilgan. O‘rta qumloq tuproqlarda esa haqiqiy yer osti suvlarining hajmi past qiymatlar bilan ifodalanadi (6-rasm).




**5-rasm. Turli xil tuproq sharoitida yer osti suvlari sathining tushish vaqti**

## XULOSALAR VA AMALIY TAVSIYALAR


ISSN 3030-3907

O‘tkazilgan gidravlik hisoblashlar va grafik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, turli xil tuproq sharoitlari vertikal drenaj quvurida yer osti suvlari sathining pasayish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki:

✓ Suv sathining pasayish vaqti ham, quvurga kelib tushuvchi oqim miqdori ham tuproqning mexanik tarkibiga bevosita bog‘liqdir.

✓ Qumli va gil tuproqlar yuqori oqim va katta hajm qiymatlari bilan ajralib tursa, qumloq va yengil qumloq tuproqlar o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi. O‘rta qumloq tuproqlar esa eng past qiymatlarni qayd etdi.

✓ Suv sarfi o‘zgaruvchan bo‘lgan holatlarda ham tuproqning mexanik xususiyatlari jarayon dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, loyihalashda har bir tuproq uchun alohida muhandislik yechimlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

**Amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat:**

1. Vertikal drenaj tizimlarini loyihalashda tuproqning fizik-mexanik xususiyatlari (filtratsiya koeffitsienti, g‘ovaklik, suv o‘tkazuvchanlik) majburiy ravishda hisobga olinishi lozim.
2. Qumli va gil tuproqlarda suv oqimi ko‘proq bo‘lgani uchun drenaj quvurlari o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgan konstruksiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.
3. O‘rta qumloq tuproqlar uchun esa suv oqimi kam bo‘lgani sababli drenaj tizimlari zichroq joylashtirilishi yoki chuqurligi optimallashtirilishi talab etiladi.
4. Drenaj tizimlarini monitoring qilishda turli tuproq sharoitlaridagi gidravlik jarayonlarning o‘zgaruvchanligi inobatga olinib, doimiy kuzatuv va davriy hisob-kitoblar olib borilishi zarur.
5. Amaliyotda olingan natijalar keyinchalik gidravlik modellarni takomillashtirish va qishloq xo‘jaligi maydonlarida samarali suv resurslari boshqaruvini tashkil qilishda qo‘llanishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yang, Y., Zhu, Y., Wu, J., Mao, W., Ye, M.-L., & Yang, J. (2022). Development and application of a new package for MODFLOW-LGR-MT3D for simulating regional groundwater and salt dynamics with subsurface drainage systems. Agricultural Water Management.
2. Arifjanov, A., Samiev, L., Abdulkhaev, Z., Abduraimova, D., Yusupov, S., & Kaletová, T. (2022). Model of urban groundwater level management in drainage systems. Acta Hydrologica Slovaca.
3. Balun, O. (2021). Drainage system construction influence on the groundwater level of reclaimed soils. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 852.
4. Abd-Elaziz, W., Elsaiad, A., Sallam, G., Kuriqi, A., Ahmed, A. A., & Abd-Elaty, I. (2025). Performance of subsurface drainage systems considering groundwater flow directions and network alignment. Frontiers in Earth Science.
5. Nozari, H., & Liaghat, A. (2014). Simulation of Drainage Water Quantity and Quality Using System Dynamics. Journal of Irrigation and Drainage Engineering.



ISSN 3030-3907

6. Turchenyuk, V., Kropyvko, S. M., Koptyuk, R., & Volk, P. P. (2024). Investigation of the groundwater level dynamics in the rice system under different parameters of irrigation and drainage network. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science.
7. Liu, Q., Mou, X., Cui, B., & Ping, F. (2017). Regulation of drainage canals on the groundwater level in a typical coastal wetlands. Journal of Hydrology, 555, 463–478.
8. Ramoška, E., Bastienė, N., & Šaulys, V. (2011). Evaluation of controlled drainage efficiency in Lithuania. Irrigation and Drainage, 60.
9. Biliaiev, M., & Kozachyna, V. (2025). Modeling of groundwater hydrodynamics in flooded areas. Ukrainian Journal of Civil Engineering and Architecture.
10. Xingye, Q. (2008). Dynamic control of drainage and calculation method of drainage spacing. Journal of Hydraulic Engineering.
11. Yimer, E. A., Yadollahi, S., Riakhi, F.-E., et al. (2023). A groundwater level-based filtering to improve the accuracy of locating agricultural tile drain and ditch networks. Int. J. Appl. Earth Obs. Geoinformation, 122.
12. Kravchuk, A., Kravchuk, O., Chabaniuk, R., & Kravchuk, O. (2023). To the method of distribution drainage pipelines calculation with sloping groundwater level. Problems of Water supply, Sewerage and Hydraulic.
13. Kumar, K., Singh, J., & Gupta, S. (2006). Investigations on surface and subsurface drainage requirements at regional scale. Irrigation and Drainage, 55.
14. Brandyk, A., Kaca, E., Oleszczuk, R., Urbański, J., & Jadczyszyn, J. (2020). Conceptual Model of Drainage-Sub Irrigation System Functioning. Sustainability.
15. Abdurrasheed, A., Yusof, K., Takaijudin, H., et al. (2020). An integrated technique for assessing flow parameters through subsurface drainage module systems. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 476.


ISSN 3030-3907

# PID BOSHQARUVI VA UNI IKKI BO‘G‘INLI ROBOT MANIPULYATORDA QO‘LLASH

**Xolmurotov Botirjon Tursinboyevich**
***Andijon davlat texnika instituti, dotsent***
***E-mail: xolmurotovbotirjon@gmail.com***
***Tel:+998(93) 2259880***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ikki bo‘g‘inli robot manipulyatori uchun PID (proportional–integral–derivative) boshqaruv algoritmi asosida boshqarish tizimi tahlil qilingan. Tadqiqotda manipulyatorning harakat tenglamalari Lagrange usuli yordamida hosil qilindi va MATLAB muhitida modellashtirildi. PID parametrlarining ($K_p$=100, $K_i$=20, $K_d$=10) turli qiymatlarida tizimning barqarorlik xususiyatlari o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri tanlangan PID koeffitsiyentlari manipulyator bo‘g‘inlarining harakat aniqligini oshiradi, tebranishlarni kamaytiradi hamda xato signalini minimal darajaga keltiradi. Maqolada olingan natijalar robot manipulyatorlarni sanoat jarayonlarida aniq va engil boshqarish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** PID boshqaruvi, robot manipulyator, 2DOF model, MATLAB, barqarorlik, avtomatik boshqaruv.

**Аннотация.** В данной статье исследуется система управления двухзвенным робот-манипулятором на основе алгоритма PID (пропорционально-интегрально-дифференцирующего). Уравнения движения манипулятора получены методом Лагранжа и смоделированы в среде MATLAB. При различных значениях параметров PID (Kp=100, Ki=20, Kd=10) проведён анализ устойчивости системы. Результаты показывают, что правильно выбранные коэффициенты PID повышают точность движения звеньев манипулятора, снижают колебания и минимизируют сигнал ошибки. Полученные выводы имеют практическое значение для точного и плавного управления промышленными роботами.

**Ключевые слова:** PID управление, робот-манипулятор, модель 2DOF, MATLAB, устойчивость, автоматическое управление.

**Abstract.** This paper presents the control analysis of a two-degree-of-freedom (2DOF) robotic manipulator using a Proportional–Integral–Derivative (PID) control algorithm. The manipulator’s dynamic equations were derived via the Lagrange method and simulated in MATLAB. System stability was analyzed for different PID parameter sets (Kp=100, Ki=20, Kd=10). The results demonstrate that properly tuned PID coefficients enhance motion precision, reduce oscillations, and minimize tracking error. The obtained outcomes have practical significance for achieving smooth and accurate control of robotic manipulators in industrial automation applications.



ISSN 3030-3907

**Keywords:** PID control, robotic manipulator, 2DOF model, MATLAB, stability, automatic control.

**Kirish.**

So‘nggi yillarda robototexnika tizimlarida boshqaruv algoritmlarining aniqligi va barqarorligi masalasi dolzarb muammo sifatida ko‘rilmoqda. Xususan, ko‘p bo‘g‘inli manipulyatorlar sanoat, tibbiyot, kosmik tadqiqotlar va xizmat robotlarida keng qo‘llanmoqda. Ushbu tizimlar uchun ishonchli boshqaruvni ta’minlash mexanik konstruktsiya, sensor ma’lumotlari va aktuatorlar dinamikasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

PID (Proportional–Integral–Derivative) boshqaruvi — eng ko‘p ishlatiladigan klassik boshqaruv usullaridan biri bo‘lib, soddaligi, ishonchliligi va real vaqtli moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. U manipulyator bo‘g‘inlarining harakatini aniq izlashni, barqaror holatdagi xatoni kamaytirishni va ortiqcha tebranishlarni bostirishni ta’minlaydi.

Ko‘p sonli ilmiy manbalarda PID boshqaruvi turli mexanik tizimlarga tatbiq etilgan bo‘lsa-da, ikki bo‘g‘inli manipulyatorlar uchun ularning nolinear (chiziqsiz) xususiyatlari sababli optimal sozlash masalasi hanuz ochiq qolmoqda. Shu sababli ushbu tadqiqotda 2DOF manipulyator modeli asosida PID boshqaruvining dinamik samaradorligi o‘rganildi va MATLAB muhitida modellashtirish natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqotdan maqsad — PID parametrlarining manipulyator barqarorligiga, aniqligiga va xato signaliga ta’sirini tahlil qilish hamda optimal boshqaruv koeffitsiyentlarini tanlash orqali tizim sifatini yaxshilashdir.

**Metodika.** 2-bo‘g‘inli manipulyatorning matematik modeli.

Ikki bo‘g‘inli manipulyator — bu harakatlanish erkinligi 2 ta bo‘lgan mexanik tizim bo‘lib, u inson qo‘liga o‘xshash tarzda tekislikda harakatlana oladi. Bunday manipulyatorlar asosan ikkita aylanma bo‘g‘indan tashkil topadi.

Tizimning dinamikasi **Lagrange tenglamasi** asosida ifodalanadi:

$$\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial T}{\partial \dot{q}_i}\right) - \frac{\partial T}{\partial q_i} + \frac{\partial V}{\partial q_i} = \tau_i, \quad i = 1, 2$$

bu yerda:

$q_1, q_2$ - bo‘g‘in burchaklari

$\dot{q}_1, \dot{q}_2$ - ularning burchak tezliklari

$T$ - kinetik energiya

$V$ - potensial energiya

$\tau_1, \tau_2$ - har bir bo‘g‘inga ta’sir etuvchi boshqaruv momentlari.

Kinetik energiya ifodasi:

$$T = \frac{1}{2} m_1 (L_1 \dot{q}_1)^2 + \frac{1}{2} m_2 [L_1^2 \dot{q}_1^2 + L_2^2 (\dot{q}_1 + \dot{q}_2)^2 + 2 L_1 L_2 \dot{q}_1 (\dot{q}_1 + \dot{q}_2) \cos q_2]$$



ISSN 3030-3907

Potensial energiya esa:

$$V = m_1 g L_1(1 - \cos q_1) + m_2 g[L_1(1 - \cos q_1) + L_2(1 - \cos(q_1 + q_2))]$$

Shu asosda manipulyatorning harakat tenglamalari quyidagicha yoziladi:

$$M(q)\ddot{q} + C(q,\dot{q})\dot{q} + G(q) = \tau$$

bu yerda:

$M(q)$ - inertsiya matritsasi,

$C(q,\dot{q})$ - Koriolis va markazdan qochma kuchlar matritsasi,

$G(q)$ - tortishish kuchlari vektori,

$\tau$ - PID boshqaruv orqali hosil qilinadigan momentlar vektori.

**PID boshqaruv algoritmi.**

PID boshqaruv signali quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$u(t) = K_p e(t) + K_i \int e(t)dt + K_d \frac{de(t)}{dt}$$

bu yerda:

$e(t)=q_{ref}(t)-q(t)$ - xato signali,

$K_p$, $K_i$, $K_d$ - mos ravishda proporsional, integral va differensial koeffitsiyentlar.

Mazkur tadqiqotda quyidagi qiymatlar tanlandi:


$$K_p=100,\ K_i=20,\ K_d=10$$

Boshqaruv signali manipulyatorning ikkala bo‘g‘iniga quyidagicha tatbiq etiladi:

$$\tau_1=u_1(t),\ \tau_2=u_2(t)$$

2DOF manipulyator modeli chizmasi

Quyidagi chizma ikki bo‘g‘inli manipulyatorning sxematik ko‘rinishini ifodalaydi:




Bu modelda birinchi bo‘g‘in bazaga biriktirilgan, ikkinchi bo‘g‘in esa birinchisiga ulanadi. Har ikkala bo‘g‘inga alohida PID boshqaruv signali beriladi.

| Parametr | Belgilanish | Qiymat | O‘lchov birligi |
|---|---|---|---|
| 1-bo‘g‘in uzunligi | $L_1$ | 1 | m |
| 2-bo‘g‘in uzunligi | $L_2$ | 1 | m |
| 1-bo‘g‘in massasi | $m_1$ | 1 | kg |
| 2-bo‘g‘in massasi | $m_2$ | 1 | kg |




ISSN 3030-3907

| | | | |
|---|---|---|---|
| Gravitatsiya | g | 9.81 | m/s² |
| PID koeffitsiyentlari | $K_p$, $K_i$, $K_d$ | 100, 20, 10 | — |

**Natijalar.**


**Simulyatsiya natijalari.** Tadqiqot natijasida ikki bo‘g‘inli manipulyatorning PID boshqaruv ostidagi harakati MATLAB muhitida modellashtirildi. Simulyatsiya 5 soniya davomida bajarilib, manipulyatorning har ikki bo‘g‘ini uchun burchak o‘zgarishlari, xatolik va boshqaruv signallari o‘lchandi.
Quyidagi grafiklar modellashtirishdan olingan natijalarni tasvirlaydi.

**Bo‘g‘in burchaklarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi.** *$q_1(t)$ va $q_2(t)$* - manipulyator bo‘g‘inlarining burchak harakati.




**Tahlil.** 1-bo‘g‘in ($q_1$) 0 dan 45° gacha, 2-bo‘g‘in ($q_2$) esa 0 dan 30° gacha silliq harakatlanadi. 1,2–1,5 s oralig‘ida o‘tkinchi jarayon kuzatiladi, so‘ng tizim barqarorlashadi. Har ikkala bo‘g‘inning yakuniy qiymatga yetishi PID boshqaruv samarali ishlaganini ko‘rsatadi.


**Xatolik funksiyasi (e(t)) grafigi.** Xatolik funksiyasi vaqt bo‘yicha o‘zgaradi:




**Tahlil.** Boshlang‘ich vaqtda xatolik yuqori (taxminan 0.7 rad), ammo 2 soniya ichida 0 ga yaqinlashadi. Bu PIDning differensial (D) komponenti tebranishlarni kamaytirganini va tizimning barqarorligini ta’minlaganini ko‘rsatadi.

**Boshqaruv signali (PID chiqish) grafigi.** Har ikki bo‘g‘inga uzatilgan boshqaruv signallari ($\tau_1$, $\tau_2$) quyidagicha:


ISSN 3030-3907




**Tahlil.** Boshqaruv momenti dastlab yuqori qiymatga ega bo‘ladi (dinamik o‘tish davri sababli), keyin esa kamayib, barqaror holatga o‘tadi. Bu manipulyator mexanik qarshiliklarini yengish uchun zarur boshlang‘ich kuchni aks ettiradi.

**Xulosa.** Tadqiqotda ikki bo‘g‘inli manipulyator uchun PID boshqaruv tizimi ishlab chiqildi va MATLAB muhitida modellashtirildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki:

- PID algoritmi manipulyatorning barqarorligi va aniqligini sezilarli oshiradi.
- Harakat jarayonida o‘tkinchi tebranishlar qisqarib, ustma-ust chiqish minimal bo‘ldi.
- Tizim 2 soniya ichida barqaror holatga erishdi va xatolik nolga yaqinlashdi.
- Modellashtirish natijalari PID boshqaruvning real robot tizimlarida amaliy qo‘llanishi mumkinligini isbotlangan.

## ADABIYOTLAR

1. A. Singh, R. Kumar, “Design and simulation of PID controller for robotic manipulator using MATLAB/Simulink,” IEEE Access, vol. 9, pp. 24562–24571, 2021.

2. J. Park, H. Lee, “Adaptive PID control of a two-link robotic arm under external disturbances,” Robotics and Autonomous Systems, vol. 141, pp. 103798, 2021.

3. Botirjon, X., & Dilshodbek, T. (2024). OMBORDAGI MAHSULOTLARNI TAQSIMLASHNI AVTOMATLASHTIRISH. FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR, 1(10), 25-27.

4. Y. Zhao, K. Tanaka, “Dynamic modeling and control of 2-DOF manipulator using Lagrange formulation and PID tuning,” Mechanics & Control Letters, vol. 65, pp. 39–45, 2023.



ISSN 3030-3907

# MOYLI TRANSFORMATORLARNI XIZMAT QILISH MUDDATINI ANIQLASHDA YUKLAMA TOKLARINING KORELYATSIYASINI HISOBLASH

**Tog‘aymurodov San’at Zafar o‘g‘li**
*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti doktoranti*
*E-mail: togaymurodovsanat1509@gmail.com*
**Rasulova Barchinoy Ilhomiddin qizi**
*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti doktoranti*
*E-mail: Rasulova.barchinoy95@gmail.com*

**Annotatsiya**: Ushbu maqola moyli transformatorlarda yuklama toki spektri va vaqt bo‘yicha dinamikasidan kelib chiqadigan eng issiq nuqta haroratini modellashtirish hamda izolyatsiya umriga ta’sirini baholashga bag‘ishlangan. Taklif etilgan yondashuvda yuklama ko‘rsatkichi aniqlanadi, yog‘ning yuqori harorati va chulg‘amning eng yuqori harorati issiqlik ko‘tarilish eksponentlari asosida bog‘lanadi. O‘tish jarayonlari eksponensial yaqinlashuv modeli bilan ifodalanadi hamda muhit, yog‘ va o‘ram komponentlarining yig‘ma termik ta’siri sifatida qabul qilinib yakunda yuklama toki va muhit hosil qilgan eng issiq nuqtaning izolyatsiyaga ta’siri hisoblab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Yuklama toki, eksponensial bog‘lanish, nominal harorat, o‘ramlardagi harorat, Arrhenius qonuni, magnit o‘zak, kumulyativ zarar, konstruktiv resurs.

**Аннотация:** Данная статья посвящена моделированию температуры наиболее нагретой точки, возникающей в результате спектра тока нагрузки и его временной динамики в маслонаполненных трансформаторах, а также оценке её влияния на срок службы изоляции. В предложенном подходе определяется коэффициент нагрузки, при этом температура верхних слоёв масла и температура наиболее нагретой точки обмотки связываются на основе экспоненциальных зависимостей теплового подъёма. Переходные процессы описываются экспоненциальной моделью приближения, а совокупное тепловое воздействие окружающей среды, масла и обмоток рассматривается как единая система. В заключение рассчитывается влияние наиболее нагретой точки, возникающей под действием тока нагрузки и окружающих условий, на изоляцию.

**Ключевые слова:** ток нагрузки, экспоненциальная зависимость, номинальная температура, температура обмоток, закон Аррениуса, магнитный сердечник, кумулятивное повреждение, конструктивный ресурс.

**Annotation:** This article is devoted to modeling the hottest-spot temperature arising from the load current spectrum and its time dynamics in oil-immersed transformers, as well as to evaluating its effect on insulation life. In the proposed



ISSN 3030-3907

approach, the load factor is determined, and the top-oil temperature and the winding hottest-spot temperature are linked based on thermal rise exponents. Transient processes are expressed through an exponential approximation model, and the combined thermal influence of the ambient, oil, and winding components is considered. Finally, the impact of the hottest spot generated by the load current and ambient conditions on the insulation is calculated.

**Keywords:** Load current, exponential relationship, nominal temperature, winding temperature, Arrhenius law, magnetic core, cumulative damage, structural lifetime.

**Kirish**

Elektr ta’minoti tizimida moyli transformatorlarning xizmat muddati asosan yuklama toki spektri va vaqt bo‘yicha dinamikasidan kelib chiqadigan eng issiq nuqta harorati orqali belgilanadi hamda transformatorlarning yuklama tokining oniy qiymati moy haroratiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biri sifatida baholanadi. Amaliy modelda tokning yuklama qiymati (1) formula orqali aniqlanadi [1].

$$K(t)=\frac{I(t)}{I_{nom}} \qquad (1)$$

Bu yerda K(t)– tok yuklanishning ulush qiymati, I(t)– chiquvchi tokning vaqt bo‘yicha oniy qiymati, $I_{nom}$– transformatorning tokining ma’lumotidagi chiquvchi nominal tok.

(1) ifoda orqali aniqlangan yuklanish darajasi va shu orqali yuklama tokining oniy qiymati nominaldagi bilan taqqoslab olinadi. Yuklama toki transformator haroratining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va Arrhenius tipidagi eskirish funksiyasi orqali yo‘qotilgan umr integrallanishi natijasida uning xizmat muddatini o‘zgarishini aniqlash imkoni bo‘ladi. Transformatorlardagi eng issiq nuqta harorati uning chulg‘amlarida bo‘lganligi sababli, $t_{e.i}$– transformatorning eng issiq nuqtasining gradient qiymati ta’sir etuvchi temperaturalarning yig‘indisi sifatida qaraladi hamda izolyatsiya qog‘ozining umrini belgilovchi, moy sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi harorat nuqtasi sanaladi. Uning umumiy ifodasini quyidagicha yozish mumkin [2].

$$t_{e\,i} = t_{muhit}+t_{m.max}+t_{o‘r.max} \qquad (2)$$

Bu yerda: $t_{muhit}$ – muhit harorati, $t_{m.max}$ – moy eng yuqori harorati, $t_{o‘r.max}$ – chulg‘amlarning maksimal harorati $t_{e.i}$ – transformatorni eng yuqori harorat nuqtasini baholovchi miqdorga faqatgina haroratlar yig‘indisi ta’sir ko‘rsatibgina qolmay yuklama tokining yuklanish miqdori ham muhim ahamiyat kasb etadi. (2) formula orqali umumiy holda transformatorlardagi eng issiq nuqta haroratini aniqlash mumkin bo‘ladi [3].

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Transformatorning yuklama toki uning issiqlik rejimini aniqlovchi asosiy omil hisoblanadi. León-Martínez va boshqalar (2023) yuklama tokining garmonik



ISSN 3030-3907

spektri va uning issiqlik yo‘qotishlariga ta’sirini baholab, harmoniklar natijasida chulg‘am alyuminiy yo‘qotishlari 15–25 % gacha ortishini aniqladilar. Pejovski (2017) esa yuklama tokining shakli va amplitudasi o‘zgarishi transformatorning issiqlik barqarorligini buzishini ko‘rsatadi. Shu sababli, yuklama toki vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan bo‘lganda, issiqlik o‘tish jarayonlari dinamik modellashtirishni talab qiladi. Eng issiq nuqta harorati izolyatsiya qarishining asosiy ko‘rsatkichi sifatida IEEE C57.91-2011 va IEC 60076-7 standartlarida keltirilgan. Arrhenius qonuni bo‘yicha harorat 6 °C ga oshsa, izolyatsiya umrining yarmi kamayadi. Shunga asosan Chen va boshqalar (2024) issiqlik ko‘tarilish eksponentlari yordamida transformatorning issiqlik o‘tish modelini ishlab chiqib, yog‘ va chulg‘am komponentlari uchun vaqt kechikish konstantalarini aniqlashdi. Ularning ishlari transformator ichidagi issiqlik gradientlarini aniqlashda eksponensial yaqinlashuv modelining aniqligini tasdiqlaydi [4,5].

Ko‘plab tadqiqotlar yuklama toki va harorat orasidagi bog‘lanishni eksponensial yoki differensial shaklda ifodalaydi. Masalan, Amrollahi (2011) garmonik yuklar ostida transformator yo‘qotishlari va umrini baholashda termik vaqt konstantasini kiritgan. Unga ko‘ra, issiqlik ko‘tarilish tezligi yuklama tokining kvadratiga proporsional hisoblanadi. Yuqoridagi aniqlanishlarga asosan metodologiyamizni shakllantiramiz.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Moyli transformatorlarda izolyatsion moyning harorati ko‘tarilishini yoki tushishiga asosan yuklama toklarining qiymati ta’sir ko‘rsatadi hamda aniqlangan har bir o‘sish yoki kamayish qiymatlatlari transformatorning haroratiga ham bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Harorat ortishi transformatorlarning eng issiq nuqtasi, ularning moyining sirt qismidagi haroratga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Izolyatsiyaga va transformator haroratiga ta’sir ko‘rsatuvchi nuqta sifatida ayni shu nuqta qaraladi. Shu xulosaga muvofiq eng yuqori haroratga ega nuqta harorati yuklama 237okening qiymatidan kelib chiqib quyidagicha bog‘lanishga ega bo‘ladi [6].

$$T_{max.y} = t_{nom} \cdot \left(\frac{K^2 R+1}{R+1}\right)^n \qquad (3)$$

Bu yerda $t_{nom}$– transformatorning nominal holatdagi harorati, K – yuklanish darajasi, R–o‘ramdagi yoqotishlarning magnit o‘zakdagi yoqotishlarga nisbati, n–issiqlik ko‘tarilish eksponenti.

(3) formula orqali aniqlangan transformator yog‘ining eng issiq nuqtasi ifodasini yana ham aniqroq shaklda (4) formula bilan ifodalaymiz [7].

$$T_{max.y} = t_{nom} \cdot \left(\frac{K^2 \frac{P_1}{P_2}+1}{\frac{P_1}{P_2}+1}\right)^n \qquad (4)$$



ISSN 3030-3907

Bu yerda $P_1$– nominal yuklamadagi o‘ramlardagi yo‘qotishlar, $P_2$– Magnit o‘zakdagi nominal yuklamadagi yo‘qotishlar

Keyingi qadamda $t_{max.y}$ ning haroratiga chiqquncha qancha harorat ko‘tarilganini aniqlab olamiz

$$\Delta t = t_{max\ y} - (t_{max\ y} - t_0)\, e^{\frac{-\tau}{\tau max}} \qquad (5)$$

Bu yer $\Delta t$ yog‘ haroratining maksimal harorat va dastlabki harorat o‘rtasidagi farqi, $t_{max.y}$– yog‘ning ustki qismidagi maksimal harorat, $t_0$– yuklanishdan oldingi harorat, $-\tau$– $t_{max}$ga chiqish vaqti $\tau_{max}$– maksimal qancha vaqt shu haroat saqlanib turilganligi.

Keyingi qadamda o‘ramlarning haroratini ham e’tiborga olgan holda hisoblaymiz chunki o‘ramlarning qizishi ham izolyatsiya umriga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi o‘ramning $t_{e.i}$ ga nisbatan harorati (6) formula orqali aniqlaymiz.

$$T_{o‘r.max}=t_{o‘r.n}\cdot K^m \qquad (6)$$

Bu yerda $t_{o‘r.max}$– o‘ramning maksimal harorati, $t_{o‘r.n}$– o‘ramning nominal holdagi harorati, K– yuklanish darajasi, m– termik yuklama eksponenti.

Keyingi bosqichda o‘ram harorati dastlabki bilan taqqoslaganda qanchaga oshganligini aniqlab olamiz [8].

$$\Delta t_{o‘r}=t_{o‘r.max}-(t_{o‘r.max}-t_{o‘r.n})e^{\frac{-\tau}{\tau max}} \qquad (7)$$

Yakunda izolyatsiyaning qarishiga sabab bo‘ladigan umumiy haroratlarning yig‘indisi orqali eskirish va qarish jarayonini aniqlaymiz. (8) formula moyli transformatorlarda izolyatsiyaga eng ko‘pi bilan qancha harorat ta’sir etishini aniqlash formulasi bo‘lib bu orqali izolyatsiyaning yuklama tokining o‘zgarishi natijasida qanchaga qarishini aniqlash imkonini beradi.

$$T_{e.i}=t_{tashqi}+t_{o‘r}+t_{moy} \qquad (8)$$

Eng asosiy va hal qiluvchi qadam hisoblanadigan izolyatsiyaning qarish tezligini aniqlash aniq ketma ketlik asosida davom etmay exponensial ko‘rinishda o‘zgarib uni hisoblash uchun reaksiya tezligi qanchaga tezlashganini aniqlashga qaratilgan Arrhenius tenglamasidan foydalanamiz chunki Arrhenius tenglamasi reaksiyaning qanchalik tez amalga oshishi hamda jarayonni borishi qanchalar tezlashganligini aniqlashda qo‘llaniladigan asosiy qonun hisoblanadi [9].

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Transformatorning konstruktiv resursini xizmat muddati yuqoridagilarga asosan aniqlanadi hamda qarish tezlanishi (9) formula orqali aniqlanadi.

$$F_{AA}(t)=exp\left(\frac{\frac{E_a}{R}}{t_n+273.15}-\frac{\frac{E_a}{R}}{t_{e.i}+273.15}\right) \qquad (9)$$

Bu yerda $E_a$– furanlar ajralishida talab qilinadigan energiya miqdori yoki aktivatsiya energiyasi R– universal gaz doimiysi $t_n$ – transformatorning normal temperaturasi ishlash holatidagi $t_{e.i}$– transformatorning eng issiq nuqtasining


ISSN 3030-3907

harorati. Hisoblashlar ayni bir vaqt uchun endi jarayon murakkablashsa ko‘rinish farq qiladi va har bir oraliq vaqt uchun Arrheniuss qonunini qo‘llash shart hisoblanadi.

Shunga muvofiq quvvat 20MVA va kuchlanishi 110/6KV li transformatordan olingan qiymatlar asosida metodologiyani tadqiq qiladigan bo‘lsak, 1-jadval ma’lumotlariga tayanib yuklama tokining o‘zgarishini ko‘rib chiqamiz.

**1-jadval**


**Yuklama tokining o‘zgarishi va unga bog‘liq issiqlik parametrlari**

| № | Yuklanish darajasi (Load level, %) | Yuklama toki (I, A) | Eng issiq nuqta harorati (θhst, °C) | Yog‘ harorati (θoil, °C) | Vaqt (t, soat) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 60 % (yengil yuklama) | 1100 | 68 | 55 | 2 |
| 2 | 80 % (normal ish rejimi) | 1460 | 82 | 65 | 4 |
| 3 | 100 % (nominal yuklama) | 1830 | 98 | 75 | 6 |
| 4 | 120 % (qisqa muddatli ortiqcha yuk) | 2190 | 112 | 85 | 8 |
| 5 | 140 % (avariyaviy yuklama) | 2560 | 128 | 96 | 10 |

1-jadvalga muvofiq yuklama toklarini simulyatsiyasini MATLAB SIMULINK dasturida tekshirib ko‘ramiz hamda natijada yuklama toklarining haroratga bog‘liqlik korelyatsiyasini 3D ko‘rinishda hosil qilamiz.



ISSN 3030-3907




**1-rasm. Yuklama toklarining haroratga bog‘liqlik 3D ko‘rinishi**

Olingan xulosalarga movofiq, harorat o‘zgarishining ekvivalent qarish tezlanishini aniqlab olamiz. Chunki moyli transformatorlarda harorat o‘zgarishi, yuklama toklarining oniy qiymatlari bir xil bo‘lmasligi sababli izolyatsiyaning qarish tezlanishi ayni bir qonuniyat ketma-ketligi bo‘yicha o‘zgarmaydi. Ayni shu sabab uchun ham qarish tezlanishining ekvivalent qiymatini (10) ifoda orqali aniqlaymiz hamda maqsad qilingan yuklama toklari ta’sirida izolyatsiyaning eskirishini eksponensial ifodasini hosil qilamiz [10-14].

$$F_{EQA}=\frac{\sum_{i=1}^{n} F_{AA}\Delta t}{\sum_{i=0}^{n} \Delta t} \qquad (10)$$

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqoladagi analiz va tahlillar asosida xulosa shundan iboratki, transformatorda qarish tezlanishi aniqlangandan so‘ng bevosita umrni hisoblash imkoniyati mavjud bo‘ladi. Aniqlanishlar va ketma-ketliklar faqat yuklama tokining o‘zgarishiga qarab xulosa qilingan, transformatorlarda boshqa kumulyativ zarar ulushlari ham transformator umrini qisqarishiga sabab bo‘ladi. Transformatorlarning titrashi natijasida yuzaga keladigan mexanik zararlarning yig‘indisi, transformator differensial himoyasidan olinadigan va transformator himoya tizimlarining ishlashi natijasida yuzaga keladigan kumulyativ zararlarning yig‘indisi ham transformatorlarni konstruktiv resurslarining qisqarishiga sabab bo‘ladigan boshqa omillar sirasiga kiradi.


ISSN 3030-3907

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tog‘aymurodov S.Z., Ataullayev N.O., Rasulova B.I “Moyli transformatorlarni qolgan xizmat qilish muddatini birlamchi parametrlaridan kelib chiqqan holda tashxislash” Konchilik Xabarnomasi jurnali, Navoiy 2025 DOI:10.54073/GV.2025.3.102.021, 98-103 betlar
2. S.Z. Tog‘aymurodov “Transformatorlarning ishlash jarayonlarida temperaturaning o‘zgarishi va uning ta‘sir natijasida magnit o‘zakning ferromagnit xususiyatini yo‘qotish sabablari” Journal of Advances in ENERGY Engineering Technology Vol.6(18) Navoi, 2025, 37-41 betlar
3. Ataullayev A.O., Tog‘aymurodov S.Z. “Transformatorlarda magnit o‘tkazgichlarining tashqi elektr maydonini kuchaytirishi sabablari” Farg‘ona davlat texnika universiteti ilmiy texnik jurnali–2025/29/4 Farg‘ona, 103-107 betlar.
4. V. León-Martínez, E. Peal, C. A. M. Montero, L. M. Cárdenas, “Assessment of Load Losses Caused by Harmonic Currents”, *Environments*, 2023, Article ID 177, 1-17 betlar
5. JRB Leynes, “Design of a Load Monitoring System for a Distribution Transformer”, *European Journal of Engineering and Technology Research (EJ-ENG)*, 2024, 12-17 betlar
6. D. Pejovski, “Impact of different harmonic loads on distribution transformer”, *Procedia Engineering*, Elsevier, 2017, Vol. [4], 28-33–betlar
7. J. Faiz, “Derating of transformers under non-linear load current and harmonics”, *IET Electric Power Applications*, 2015, Vol. 9, No. 6, 402– 409 betlar
8. H. Chen et al., “Assessment of voltage harmonics’ impact on the maximum temperature in transformers”, *Scientific Reports*, 2024, 63-69 betlar
9. Александров Г.Н. Режимы работы трансформаторов // Учебное пособие / Санкт-Петербург 2006 г. 143. с.
10. Серебряков А.С. Трансформаторы // Учебное пособие для вузов /Издательский дом МЭИ, -Москва 2013г. 361. с.
11. О.У. Зохидов, М.В. Меркулов. Исследование потенциала и эффективности применения возобновляемой энергии на горных предприятиях Республики Узбекистан. Новые идеи в науках о Земле, 2021г. 57-61 с.
12. O.U. Zokhidov, O.O. Khoshimov, S.S. Khalilov. Experimental analysis of microges installation for existing water flows in industrial plants. E3S Web of Conferences, 2023.
13. О.У. Зохидов, Б.Х. Шомуродов. СБШ-250МН бурғилаш дастгоҳи қурилмаларининг энергия самарадорлигини ошириш бўйича илмий таҳлил ва техник ечимлар. Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие, 2024 г. 42-51с.



ISSN 3030-3907

14. S.K. Alimhodzhaev, O.U. Zakhidov, M.H. Taniev Asynchronous phase rotor generators for power planes operating parallel with a network. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 2019 y. 79-86 p.p.



ISSN 3030-3907

УДК: 621.314.25

# ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ ПОДДЕРЖКИ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В РАЗВИТИИ SMART GRID: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И АРХИТЕКТУРА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СРЕДЫ

**Абдуллабекова Д.Р.**
***Ташкентский университет информационных технологий, кафедра «СЭС», доцент.***
***E-mail: abdullabekova_94@mail.ru***
**Шукуруллоев С.А.**
***Ташкентский университет информационных технологий, кафедра «СЭС», ассистент.***

Где, $U_{\text{порог}}$ - это калиброванный порог, обеспечивающий баланс между чувствительностью и защитой от ложных сигналов в адаптивной системе. Фазовый анализ, дополненный данными микропроцессорного блока, подтвердил стабильность, исключая ложные срабатывания при помехах. Тестирование на асимметричных нагрузках показало снижение ошибок на 15% по сравнению с разработанную моделью.

При испытании, система выдержала помехи за счет фильтру Кальмана, минимизируя гармонические искажения. Добавлена компенсация вихревых токов в трансформаторе, что увеличило стабильность $U_0$ на 10%. Сравнение с микропроцессорным устройством подтвердило снижение ложных сигналов на 20% в условиях электромагнитных наводок [7,8].


**РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ**

Синхронность отклика каналов, дополненная данными микропроцессорного блока и температурным профилем, подчеркивает комплексность системы.


Продолжая направления, проведено тесты в среде MATLAB Simulink.



ISSN 3030-3907




**А)**





**Б)**


**Рисунок 2. Схема испытаний интегрированного блока в MATLAB Simulink (адаптировано: ММД на концах, ТН для $U_0$, логика фильтрации для ЭС с ВИЭ).**



ISSN 3030-3907




**А)**





**Б)**


**Рисунок 3. Характеристика определения ОЗЗ по $\Delta I_{дифф}$ с ОЗЗ (б) и без ОЗЗ (а) (рост $I_0$ при замыкании, моделирование для энергетических комплексов).**



ISSN 3030-3907




**А)**





**Б)**


**Рисунок 4. Характеристика определения однофазных замыканий на землю по $I_{уст}$ с ОЗЗ (б) и без ОЗЗ (а)**



ISSN 3030-3907




**А)**




**Б)**

**Рисунок 5. Характеристика определения однофазных замыканий на землю по сигналу блока управления. с ОЗЗ (б) и без ОЗЗ (а)**

Микропроцессорный блок, расширяющий функционал, демонстрирует высокую чувствительность (1 мкА), селективность (98%) и адаптивность, подтверждая готовность к внедрению в интеллектуальные сети с учётом масштабируемости и устойчивости к внешним факторам в ЭС горной промышленности. Результаты испытаний интегрированного блока в ЭС приведена в таблице 1 [9,10].



ISSN 3030-3907

**Таблица-1.**

**Результаты испытаний интегрированного блока в ЭС**

| Сценарий | $\Delta I_{\text{дифф}}$ (А) | $U_0$ (В) | Устойчивость к помехам (%) | Селективность (%) | Время (с) |
|---|---|---|---|---|---|
| Нормальный | <0.01 | ~0 | 100 | 100 | - |
| ОЗЗ в ЭС | 0.1 | 10 | 98 | 98 | 0.02 |
| С помехами (гармоники) | 0.05 | 5 | 95 | 95 | 0.03 |
| Изменение ёмкости (+20%) | 0.15 | 12 | 97 | 96 | 0.04 |
| Климат (темп.50°C) | 0.12 | 9 | 96 | 97 | 0.025 |

## ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Amirov S. F., Ataullaev N.O. Performance of Magnitemodulying Carrent Sensor// International Jornal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. ISSN(Online): 2350 – 0328. Vol. 3, Issue 7, July 2016. – 2337 – 2346.
2. Amirov S. F., Ataullaev N.O. Performance of Magnitemodulying Carrent Sensor// International Jornal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. ISSN(Online): 2350 – 0328. Vol. 3, Issue 7, July 2016. – 2337 – 2346.
3. N. Ataullayev, *G. Tatkeyeva, I. Kurabayev, X. Murodov*, Experimental research of the developed method to determine the network insulation for ungrounded AC systems in laboratory conditions // International Conference on Electrical, Computer and Energy Technologies (ICECET), Prague, Czech Republic, 2022, September.
4. N.Ataullayev, A.Ataullayev, B.Q.Muxammadov, Neytrallari yerga ulanmagan 6 kv kuchlanishli iste'molchilarning signalizasiya tizimini nazorat qilish uchun magnitomadulyasion o'zgartirgichlar // Материалы Республиканской научно-технической конференции. "Актуальные проблемы систем электроснабжения". –Ташкент, 25-26 сентябрь 2021. – С.234-236.
5. N. Ataullayev, *A. Norqulov, B. Muxammadov, A. Majidov, I. Tog'ayev*, Principles of protection against single phase earth faults in networks with capacitive current compensation // E3S Web of Conferences, Volume 548, X International Conference on Advanced Agritechnologies, Environmental Engineering and Sustainable Development (AGRITECH-X 2024), 12 July 2024.
6. Абрамович, Б.Н. Проблемы обеспечения энергетической безопасности предприятий минерально-сырьевого комплекса / Б.Н. Абрамович, Ю.А. Сычев // Записки Горного института. – 2016. – т. 217 - С. 132-139.
7. Алексеев, В. П. Цифровая фильтрация сигналов на основе быстрого вейвлет преобразования / В. П. Алексеев, К. В Аксёнов // Вестник



ISSN 3030-3907

Поморского университета. Серия: Естественные науки. – 2011. – № 2. – С. 84–89.
8. Андреев, В.А. Релейная защита и автоматика систем электроснабжения: учебное пособие / В.А. Андреев – М.: Высшая школа, 1991.-496 с.
9. Андреев, В.А. Релейная защита и автоматика систем электроснабжения: учебное пособие / В.А. Андреев – М.: Высшая школа, 1991.-496 с.
10. Бедрицкий И.М. Сравнительный анализ аналитических выражений для аппроксимации кривых намагничивания электротехнических сталей // Электрика – 2011. – №7. – С. 38-40.


ISSN 3030-3907

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБОРУДОВАНИЯ НА СОВРЕМЕННЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНАЛАХ

**Шадманов Саидбек Абдуваитович**

***Андижанский государственный технический институт Старший преподаватель кафедры "Транспортная логистика"***

***E-mail: Shodmonovsayidbek@gmail.com***

***Тел.: +998 99-321-79-89***

**Аннотация.** В данной статье анализируется значение современного технологического оборудования в повышении эффективности логистических терминалов. Будут изучены возможности снижения скорости, безопасности и стоимости грузопотока за счет интеграции автоматизированных транспортных систем, цифровых платформ управления, энергосберегающих устройств и интеллектуальных систем управления. Также в статье сравниваются перспективы внедрения этих технологий в условиях Узбекистана, существующие препятствия и международный опыт.

**Ключевые слова:** Логистический терминал, технологическое оборудование, автоматизация, цифровизация, энергоэффективность, транспортная система, мультимодальная логистика.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada logistika terminallari samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologik uskunalarning ahamiyati tahlil qilingan. Avtomatlashtirilgan transport tizimlari, raqamli boshqaruv platformalari, energiya tejovchi qurilmalar va intellektual boshqaruv tizimlarini integratsiya qilish orqali yuk tashish tezligi, xavfsizligi va narxini kamaytirish imkoniyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada ushbu texnologiyalarni O‘zbekiston sharoitida joriy etish istiqbollari, mavjud to‘siqlar va xalqaro tajriba taqqoslangan.

**Kalit so‘zlar:** Logistika terminali, texnologik jihozlar, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, energiya samaradorligi, transport tizimi, multimodal logistika.

**Abstract.** This article analyzes the significance of modern technological equipment in enhancing the efficiency of logistics terminals. The possibilities of improving speed, safety, and reducing the cost of cargo flow through the integration of automated transport systems, digital management platforms, energy-saving devices, and intelligent control systems will be examined. The article also compares the prospects for implementing these technologies in Uzbekistan, existing obstacles, and international experience.

**Keywords:** Logistics terminal, technological equipment, automation, digitalization, energy efficiency, transport system, multimodal logistics.

**Введение.**

В XXI веке логистика стала не просто транспортировкой, а сложной системой, координирующей потоки информации, технологий и энергии. Сердце этой системы - современный логистический терминал. Технологический уровень терминала напрямую влияет на скорость товарооборота, стоимость логистических услуг и уровень обслуживания клиентов. Основные вызовы, стоящие сегодня перед логистическими терминалами: обработка высокого грузопотока в короткие сроки, работа с цифровым документооборотом, экономия энергоресурсов, обеспечение экологической безопасности [1].

В ответ на эти требования в логистических терминалах по всему миру внедряется современное оборудование, такое как AGV (automated guided vehicles), TOS (terminal operating system), мониторинг на основе ИИ и IoT, устройства, работающие на солнечной энергии, системы интеллектуальной безопасности [2-5].

1. Основные направления технологического оснащения

2. Автоматизированная техника

AGV (Automated Guided Vehicles): автоматические тележки доставляют грузы до места назначения, снижают человеческий фактор, конвейерные системы и сенсорные панели [6]:

Автоматическое регулирование и сортировка грузов, роботы-манипуляторы: используются для подъема тяжелых и опасных грузов.

**Таблица-1**

| Разделы терминала | Как работает AGV |
|---|---|
| Склад | Автоматически перемещает багаж между полками |
| Зона приема | Перемещает груз от места разгрузки к месту сортировки |
| Погрузочно-разгрузочная зона | Перевозка грузов между машинами и кранами |

***Цифровизация и программное управление***

• TOS (Terminal Operating System): управляет всей деятельностью терминала из единого центра. Геостратегическое расположение: Андижан - крупнейший промышленный город Ферганской долины. Международный грузопоток осуществляется по трассе А373 (Ош, Бишкек, Китай). В городе Андижан много производителей (автомобилестроение, сельское хозяйство, легкая промышленность), что повышает требования к эффективному управлению грузопотоками через ТОС.2 [7,8].



ISSN 3030-3907




**Рисунок 1. Терминальная операционная системаМультимодальный терминал соответствует проекту.**

Если терминал в Андижане является мультимодальным (автомобильным, железнодорожным, возможно, воздушным), TOS координирует грузоперевозки в соответствии с этим форматом. Можно добавить отдельные модули для каждого маршрута: например, отдельные реестры для железнодорожной платформы

Оптимизирует работу персонала и техники. Такие техники, как AGV, reach stacker, forklift, координируются через TOS. Работники получают и выполняют задания через мобильные устройства - это уменьшает количество ошибок, увеличивает скорость.

Соответствует требованиям цифровой логистики

• В режиме реального времени через TOS:

• Местоположение багажа

• Кому принадлежит

• Сколько грузовиков стоит в очереди

• Отслеживание количества свободных мест на складе

WMS (Warehouse Management System): оптимизация складов, размещение, отслеживание движения, системы отслеживания грузов в режиме реального времени (GPS + RFID): отслеживает движение грузов с точностью.

Энергосберегающие технологии

• Внутреннее энергоснабжение с использованием солнечных панелей.

• Электрофоркифты и техника для снижения загрязнения воздуха.

• Светодиодное освещение и интеллектуальный контроль энергии.

Системы безопасности

• Алгоритмы раннего обнаружения и реагирования на угрозы на основе видеоаналитики, систем распознавания лиц, контроля температуры, ИИ

**3. *Перспективы применения в условиях Узбекистана***

**3.1. Географические преимущества**



ISSN 3030-3907

Узбекистан - транзитный хаб, расположенный в центре Центральной Азии. Увеличиваются грузопотоки по железной дороге Китай-Кыргызстан-Узбекистан и Транскаспийскому коридору. Это ускорит внедрение терминальных технологий.

**3.2. Проблемы**

• Технический износ: большая часть существующих терминалов основана на технике более 20 лет. Отсутствие цифровых платформ, высокая потребность в квалифицированных кадрах, финансовые ограничения и сложность доступа к кредитам.

**3.3. Решения**

• Внедрение автоматизированных технологий на основе государственно-частного партнерства.

• Направление иностранных инвестиций на технологическое обновление.

• Использование грантов международных донорских организаций (АБР, ВБ, ЮНЕСКАП).

• Подготовка местных кадров через логистические техникумы и центры.

**РЕЗУЛЬТАТЫ И АНАЛИЗ**

В ходе исследования показано, что благодаря цифровым системам управления (WMS - Warehouse Management System, TMS - Transport Management System) значительно улучшены возможности автоматического контроля складских процессов, отслеживания грузопотока, мониторинга в реальном времени.





**Рисунок 2.** Система управления складом

С помощью IoT-устройств температура, движение и безопасность грузов находятся под постоянным контролем.

1. Оцифровка
2. Автоматизация.



ISSN 3030-3907

На многих передовых терминалах AGV (Automated Guided Vehicles), конвейеры, дроны и роботизированные манипуляторы уменьшают участие человека в погрузке и разгрузке грузов. Это приводит к увеличению скорости процесса на 20-40% и снижению погрешности на 60%.

**3. Энергоэффективность:**

В европейских терминалах с помощью энергосберегающих технологий, таких как солнечные панели, системы автоматического освещения и системы охлаждения и балансировки, потребление электроэнергии снижается на 30-50%. Это не только снижает издержки, но и отвечает требованиям зеленой экономики.

**4. В условиях Узбекистана:**

Несмотря на то, что на логистических терминалах страны уже сделаны некоторые первые шаги в этом направлении, темпы технологической модернизации идут медленно. Необходимо совершенствование инвестиционного климата, квалификации кадров и нормативно-правовой базы.

**Заключение.** Результаты исследования показывают, что технологическое совершенствование является решающим фактором в превращении современного логистического терминала в эффективно функционирующую систему. В качестве основных направлений определены следующие выводы

1. Расширение цифровизации необходимо внедрить системы WMS/TMS для каждого логистического терминала. Это повышает точность контроля грузопотока.

2. Привлечение инвестиций в автоматизацию позволит сэкономить время и ресурсы, снизить зависимость от человеческого фактора за счет автоматизации погрузочно-разгрузочных работ.

3. Переход на зеленую энергию позволит снизить негативное воздействие на окружающую среду за счет солнечной энергии, светодиодного освещения и теплоизоляции, оптимизировать затраты.

4. Необходимо повысить квалификацию инженерно-технических работников и разработать новые регламенты для внедрения технологий подготовки кадров и развития правовой базы. На этой основе логистическая система Узбекистана может занять конкурентоспособную позицию не только на внутреннем рынке, но и в международном транзите за счет ускорения цифровой трансформации.

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Азиатский банк развития. Транспортная стратегия CAREC 2030. Manila: ADB (2022).



ISSN 3030-3907

2. Открытый логистический фонд Цифровые логистические системы: лучшие практики. Берлин (2023).
3. Всемирный банк (2021). Торговое содействие в Центральной Азии. Вашингтон, округ Колумбия.
4. ЮНЕСКАП (2020). Развитие сухих портов в Азии и Тихоокеанском регионе. Бангкок.
5. Гулямов, С., и Мирзакаримов, Д. (2022). "Таможня и цифровая логистика в Узбекистане." Узбекский журнал торговли, 4 (1), 25-39.
6. Zhang, W. (2020). "Автоматизация в грузовых терминалах: тенденции и инновации." Азиатский транспортный журнал, 7 (2), 55-72.
7. Xomidov Anvarbek Ahmadjon o‘g‘li, Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich. (2022). ТЕМПЕРАТУРА ДАТЧИКА. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 62-66. Получено с http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/65
8. Xomidov Anvarbek Ahmadjon o‘g‘li, Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich. (2022). Компьютер и система мониторинга на борту. Eurasian Scientific Herald, 9, 64-71. Получено с https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1703


ISSN 3030-3907

# XINAZOLON-4 VA 2-SELENO-5,7-DIMETIL PIRIDO (2,3-D) PIRIMIDINON-4 NI MIS(II) TUZLARI BILAN ARALASH LIGANDLI KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI VA TADQIQOTI

**Norqobilov Mirtemir Elboy o‘g‘li**
***Magistr, Qarshi davlat universiteti***
**Qurbonnazarov Axror Jumag‘ul o‘g‘li**
***Magistr, Qarshi davlat universiteti***
**Yakubov Erkin Shomuratovich**
***k.f.n., professor, Qarshi davlat universiteti***
***E-mail: erkinyakubov084@gmail.com***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xinazolon-4 va uning 2-seleno-5,7-dimetil pirido (2,3-d) pirimidinon-4 hosilasining mis(II) tuzlari bilan oddiy hamda aralash ligandli kompleks birikmalarini sintez usullari keltirilgan. Tadqiqot davomida esa, sintez qilingan oddiy hamda aralash ligandli kompleks birikmalarni tarkibi elementga analiz, elektr o‘tkazuvchanligi, fazoviy tuzilishi esa, infraqizil (IQ) – spektri, elektron paramagnit rezonansi (EPR) – spektrilari yordamida o‘rganilgan. Olingan ma’lumotlar asosida oddiy hamda aralash ligandli kompleks birikmalarning fazoviy tuzilish formulalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar**: Xinazolon-4, 2-Seleno–5,7–dimetil pirido-[2,3-d] pirimidinon-4, ligand, kvadratli piramida, elektrodonor atom, bidentat birikish, infraqizil - spektroskopiyasi, elektron paramagnit rezonansi - spektroskopiyasi, aralash ligandli kompleks birikmalar, koordinatsiya, markaziy ion.

**Аннотация:** В статье представлены методы синтеза простых и смешаннолигандных комплексов хиназолона-4 и его производного 2-селено-5,7-диметилпиридо(2,3-d)пиримидинона-4 с солями меди(II). В ходе исследований изучен состав синтезированных простых и смешанных лигандных комплексов с помощью элементного анализа, электропроводность, пространственная структура с помощью инфракрасных (ИК) спектров и спектров электронного парамагнитного резонанса (ЭПР). На основании полученных данных представлены пространственные структурные формулы комплексных соединений с простыми и смешанными лигандами.

**Ключевые слова**: Хиназолон-4, 2-селено–5,7–диметилпиридо-[2,3-d]пиримидинон-4, лиганд, квадратная пирамида, атом донора электронов, бидентатная связь, инфракрасная спектроскопия, электронный парамагнитный резонанс - спектроскопия, смешанные лигандные комплексные соединения, координация, центральный ион.

**Abstract:** The article presents methods for the synthesis of simple and mixed-ligand complexes of quinazolone-4 and its derivative 2-seleno-5,7-



*ISSN 3030-3907*

dimethylpyrido(2,3-d)pyrimidinone-4 with copper(II) salts. During the research, the composition of the synthesized simple and mixed ligand complexes was studied using elemental analysis, electrical conductivity, and spatial structure using infrared (IR) spectra and electron paramagnetic resonance (EPR) spectra. Based on the obtained data, spatial structural formulas of complex compounds with simple and mixed ligands are presented.

**Keywords**: Quinazolone-4, 2-seleno-5,7-dimethylpyrido-[2,3-d]pyrimidinone-4, ligand, square pyramid, electron donor atom, bidentate bond, infrared spectroscopy, electron paramagnetic resonance spectroscopy, mixed ligand complexes, coordination, central ion.

**Kirish**

Ma’lumki, biologik faol bo‘lgan organik birikmalar tarkibida biometallarni kiritilishi ularni nafaqat zararli tomonlarini kamaytiribgina qolmasdan balki, ko‘pgina hollarda biologik faolligini oshiradi yoki yangi biologik xususiyatlarni namoyon qiladi. Shuning uchun yangi, yuqori effektli biopreparatlarni sintezlash va ularni zamonaviy usullar yordamida o‘rganish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi o‘rganilmagan xinazolon-4 va uning 2-seleno–5,7–dimetil pirido-[2,3-d] pirimidinon-4 hosilasini Cu(II) tuzlari bilan oddiy hamda aralash ligandli kompleks birikmalarini sintezlash. Tadqiqotning vazifalari esa, sintez qilingan kompleks birikmalarni tarkibi va fazoviy tuzilishlarini zamonaviy usullar (elektr o‘tkazuvchanligini o‘rganish, elementga analiz, IQ – spektri hamda EPR – spektrlari) dan olingan ma’lumotlar asosida tahlil qilish va fazoviy tuzilish formulalarini taklif etishdan iborat.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Hozirgi kunda biologik jihatdan faol bo‘lgan tarkibi, tuzilishi va xossalari bir-biridan keskin farq qiladigan, tarkibida turli xil donor atomlar tutgan hamda kompleks birikmalar hosil qilishga moyil bo‘lgan juda ko‘plab organik va noorganik faol ligandlar mavjud bo‘lib, ularning eng asosiy sinflaridan biri xinazolon–4 va uning hosilalari hisoblanadi.

Xinazolon–4 va uning hosilalari qatorida gerbitsid, fungitsid, bakteritsid va farmakologik xususiyatlarni namayon qiluvchi ko‘plab faol birikmalar aniqlangan. Masalan, 2-metilxinazolon–4 nerv sistemasini tinchlantiruvchi, haroratni tushiruvchi preparat sifatida metakvolon va ortonal yoki motonol nomi bilan tibbiyotda ishlatilmoqda [1]. Karboksimetilaminoxinazolon–4 paxta viltiga qarshi, uning kompleks birikmalari esa bo‘g‘doy zang kasalliklariga qarshi 80%, zararli nematod chuvalchanglariga qarshi 80-100 % faol ekanligi aniqlangan [2], [3].

Xinazolon-4 va uning hosilalarini sintezi, ularning fizik-kimyoviy hamda biologik xususiyatlari haqida bir qancha ishlar bajarilgan va jurnallarda maqolalar



ISSN 3030-3907


e’lon qilingan bo‘lsada, ularning kompleks birikmalari kam o‘rganilgan. Ayniqsa, xinazolon-4 ning hosilasi 2-seleno–5,7–dimetil pirido-[2,3-d] pirimidinon-4 ning aralash ligandli kompleks birikmalari o‘rganilmagan. Shuning uchun xinazolon-4 va uning hosilasi 2-seleno–5,7–dimetil pirido-[2,3-d] pirimidinon-4 ni mis(II) tuzlari bilan oddiy hamda aralash ligandli kompleks birikmalarini sintezlash, ularni tarkibi va tuzilishlarini zamonaviy usullarda o‘rganish katta ahamiyatga egadir.

Xinazolon-4 tarkibida ikkita azot va bitta kislorod tutgan, 2-seleno–5,7–dimetil pirido-[2,3-d] pirimidinon-4 (SePP) esa, tarkibida 2 ta azot, bitta kislorod va selen tutgan kuchli kompleks hosil qiluvchi ligand hisoblanadi. Shuning uchun xinazolon-4 va 2-seleno–5,7–dimetil pirido-[2,3-d] pirimidinon-4 larni d-metallar bilan oddiy hamda aralash ligandli kompleks birikmalarini sintezlash, ligand tarkibidagi qaysi donor atomlari orqali markaziy ion bilan koordinatsion bog‘ hosil qilishini aniqlash, yangi sintez qilingan kompleks birikmalarni fizik-kimyoviy xossalarini hamda biologik faolliklarini zamonaviy usullar yordamida o‘rganish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir [2].

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Xinazolon-4 va uning hosilasi 2-seleno–5,7–dimetil pirido-[2,3-d] pirimidinon-4 – oq va sariq kristall moddalar bo‘lib, oddiy erituvchilarda qiyin eriydi. Sintez qilingan koordinatsion birikmalari esa, organik erituvchilarda ligandga nisbatan yaxshi eriydi.

Xinazolon-4 va uning hosilalari tarkibida donor atomlarining (N, Se, O) bo‘lishi, ularning har xil tautomeriyalarga uchrashi va shu donor atomlar hisobiga metallar bilan har xil koordinatsiyaga uchrashi ham nazariy, ham amaliy jihatdan qiziqish uyg‘otadi. Xinazolon-4 oq kristal modda bo‘lib, bir qancha toutomeriya holatlarida bo‘lishi mumkin [1], [2], [4]:





A B C

Tajribalar natijasida A:B:C=7:2:1 nisbatlarda bo‘lishi aniqlangan [1], [2], [5].

Xinazolon-4 ning hosilasi 2-seleno–5,7–dimetil pirido-[2,3-d] pirimidinon-4 (SePP) tarkibidagi harakatchan vodorodlar hisobiga eritmada bir necha xil toutomerik holatlarda bo‘lishi mumkin [1]:


ISSN 3030-3907



Shuning uchun bunday faol kompleks hosil qiluvchi ligandlarning kompleks birikmalarini sintezlash, tarkibini, fazoviy tuzilishlarini hamda turli xil xossalarini o‘rganish qiziqish uyg‘otadi. Chunki bunday ligandlar metallar bilan har xil ko‘rinishda koordinatsiyaga uchrab, turli xil tarkibli va tuzilishli koordinatsion birikmalarni hosil qiladi [6], [7], [8].

**$CuNO_3 \cdot Xz \cdot 2H_2O$** kompleks birikmasini sintez qilish uchun (1 mmol) xinazolon-4 tuzini eritmasiga (1 mmol) $Cu(NO_3)_2 \cdot 3H_2O$ tuzini eritmasini aralashtirib turgan holda tomchilatib qo‘shildi. Bir soat 50-60$^0$C da qizdirgan holda, magnitli aralashtirgichda aralashtirildi. To‘q yashil rangli cho‘kma tushdi. Cho‘kmani filtrlab, suvli etanol aralashmasi bilan yuvildi. Suvli etanol aralashmasi bilan yuvishdan maqsad xinazolon-4, $Cu(NO_3)_2 \cdot 3H_2O$ tuzlari suvli etanol aralashmasida eriydi va filtrdan o‘tib ketadi. Kompleks birikma esa, erimaydi va fil’trda qoladi. Toza kompleks birikmani xona haroratida quritib, og‘irligini o‘lchab, reaksiya unumi (87%) aniqlandi.

Suyuqlanish temperaturasini o‘rganilganda 336$^0$C da suyuqlanmasdan parchalanib ketishi ko‘zatildi. Tparchal.=336$^0$C.

**$Cu(Xz)_2 \cdot 3H_2O$** kompleks birikmasini sintez qilish uchun (1 mmol) $Cu(NO_3)_2 \cdot 3H_2O$ tuzining eritmasiga (1 mmol) xinazolon-4 tuzi eritmasidan tomchilatib qo‘shilganda Me:L=1:1 nisbatdagi $CuNO_3 \cdot Xz \cdot 2H_2O$ tarkibli kompleks birikmasi cho‘kmaga tushadi. Bu cho‘kmaning ustiga yana (1 mmol) xinazolon-4 tuzi eritmasidan qo‘shilganda cho‘kma erib, ko‘k rangli eritma hosil bo‘ladi. Bir soat 50-60$^0$C da qizdirgan holda, magnitli aralashtirgichda aralashtirdik. Eritma xona haroratida bug‘latildi. Cho‘kmani filtrlab, suv va spirt aralashmasi bilan yuvdik. Cho‘kma dastlab xona haroratida keyin 40-50$^0$C da quritildi. Ko‘k rangli kompleks birikmasi ajratib olindi. Reaksiya unumi-53%, suyuqlanish temperaturasi Tsuyuq. = 282$^0$C ekanligi aniqlandi.

**$Cu(Xz) \cdot (SePP) \cdot H_2O$** tarkibli aralash ligandli kompleks birikmasini sintez qilish uchun (1 mmol) xinazolon-4 tuzini eritmasiga (1 mmol) $Cu(NO_3)_2 \cdot 3H_2O$ tuzini eritmasini aralashtirib turgan holda tomchilatib qo‘shilganda to‘q yashil cho‘kma ya’ni $CuNO_3 \cdot Xz \cdot 2CH_3OH$ kompleks birikmasi hosil bo‘ladi.


ISSN 3030-3907

$CuNO_3 \cdot Xz \cdot 2CH_3OH$ kompleks birikmasining ustiga (1mmol) 2-seleno–5,7–dimetil pirido-[2,3-d] pirimidinon-4 tuzi eritmasidan oz-ozdan qo‘shganimizda dastlabki to‘q yashil cho‘kma erib ketadi va asta-sekin kul rang cho‘kma, ya’ni $Cu(Xz)(SePP) \cdot H_2O$ kompleks birikmasi hosil bo‘ladi. Cho‘kma filtrlanib, suvli spirt bilan bir necha marta yuvildi va xona haroratida quritildi. Reaksiya unumi-52%, suyuqlanish temperaturasi Tsuyuq. = $274^0$C ekanligi aniqlandi.

**Xinazolon-4, 2-seleno-5,7-dimetil pirido (2,3-d) pirimidinon-4 va ularning kompleks birikmalarini ba’zi fizik-kimyoviy xossalari**


| № | Birikmalar | Rangi | Molekulyar massasi | Elementlarning miqdori (%) | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Me | C | N | Se | H |
| 1 | Xinazolon-4 | Oq | 146 | - | 65,05<br>65,75 | 19,24<br>19,17 | - | 4,2<br>4,3 |
| 2 | 2-seleno-5,7-dimetil pirido (2,3-d) pirimidinon-4 | Och sariq | 253 | - | 47,43 | 11,06 | 31,22 | 3,95 |
| 3 | $CuNO_3 \cdot Xz \cdot 2H_2O$ | To‘q yashil | 306 | 20,63<br>20,91 | 31,14<br>31,37 | 13,75<br>13,72 | - | 3,0<br>2,9 |
| 4 | $Cu(Xz)_2 \cdot 3H_2O$ | Ko‘k | 406 | 15,32<br>15,76 | 47,03<br>47,29 | 13,56<br>13,80 | - | 3,9<br>3,9 |
| 5 | $Cu(Xz)(SePP) \cdot H_2O$ | Kul rang | 477 | 13,41<br>13,21 | 45,28<br>45,14 | 11,74<br>11,58 | 16,1<br>16,0 | 3,3<br>3,4 |

Xinazolon-4 ni infraqizil spektrida ν(C=O) guruhiga tegishli yutilish chiziqlari1710 $sm^{-1}$ sohada, N-H bog‘larini valent tebranishlariga tegishli yutilish chiziqlari esa, 3200 $sm^{-1}$ sohada namoyon bo‘lishi o‘rganildi [3, 4].

2-Seleno-5,7-dimetil pirido (2,3-d) pirimidinon-4 ni infraqizil – spektrida 2 va 4 chi holatlardagi ν(C=Se) hamda ν(C=O) guruhlariga tegishli nur yutilish chiziqlarini 1675 va 1715 $sm^{-1}$ sohalarda, 1 va 3 chi holatlardagi N-H guruhlariga tegishli nur yutilish chiziqlari esa, 3200 hamda 3190 $sm^{-1}$ sohalarda namoyon bo‘lishi kuzatildi.


$CuNO_3 \cdot Xz \cdot 2H_2O$, $Cu(Xz)_2 \cdot 3H_2O$ tarkibli kompleks birikmalarning infraqizil spektrlarida liganddagi ν(C=O) guruhiga tegishli yutilish chiziqlarini 1710 $sm^{-1}$ dan 1690 $sm^{-1}$ gacha kamayishi, 3200 $sm^{-1}$ da N-H bog‘larini valent tebranishlariga tegishli yutilish chiziqlarini kompleks birikmalarning IQ-spektrlarida kuzatilmasligi xinazolon-4 ni markaziy ion bilan uchinchi holatdagi azot va to‘rtinchi holatdagi kislorod orqali to‘rt xalqali metallosikl hosil qilgan holda, bidentat birikayotganligidan dalolat beradi.


ISSN 3030-3907





Cu(Xz)(SePP)·$H_2O$ tarkibli aralash ligandli kompleks birikmani IQ-spektrida xinazolon-4 va 2-seleno-5,7-dimetil pirido (2,3-d) pirimidinon-4 larni infraqizil–spektrida uchinchi holatdagi N-H bog‘lariga tegishli nur yutilish chiziqlarini 3190-3200 $sm^{-1}$ sohalarda kuzatilmasligi hamda ligandlarda 1710-1715 $sm^{-1}$ sohada namoyon bo‘layotgan to‘rtinchi holatdagi karbonil guruhiga ν(C=O) tegishli nur yutilish chiziqlarini 1705 $sm^{-1}$ sohaga qadar pastki sohaga siljishi xinazolon-4 va 2-seleno-5,7-dimetil pirido (2,3-d) pirimidinon-4 larni markaziy ion bilan uchinchi holatdagi azot va to‘rtinchi holatdagi kislorod orqali to‘rt xalqali metallosikl hosil qilgan holda, bidentat birikayotganligini ko‘rsatdi [3], [9], [10].

Hosil bo‘lgan Cu(Xz)(SePP)·$H_2O$ tarkibli aralash ligandli kompleks birikmani tuzilish formulasi quyidagicha taklif etildi:





Kompleks birikmalarning EPR- spektrlari o‘rganilib, hosil bo‘layotgan anizatrop parametrlari ($g_{\parallel}$=2,214, A=150 va $g_{\perp}$=2,058) aniqlandi. EPR- spektridan olingan ma’lumotlar ham xinazolon-4 va 2-seleno-5,7-dimetil pirido (2,3-d) pirimidinon-4 larni markaziy ion bilan uchinchi holatdagi azot hamda to‘rtinchi holatdagi kislorod orqali bidentat birikayotganligini tasdiqladi [7], [8], [9], [10].


ISSN 3030-3907




**$Cu(Xz)_2 \cdot 3H_2O$ kompleks birikmasini DMSO dagi EPR-spektri.**

Olingan natijalarga asoslanib, mis(II) tuzlari xinazolon-4 bilan Me:L=1:1 va 1:2 tarkibli kompleks birikmalar hosil qilishi o‘rganildi. $CuNO_3 \cdot Xz \cdot 2H_2O$ tarkibli kompleks birikmaning ustiga 2-seleno-5,7-dimetil pirido (2,3-d) pirimidinon-4 tuzi eritmasi qo‘shilganda $Cu(Xz)(SePP) \cdot H_2O$ tarkibli aralash ligandli kompleks birikma hosil bo‘lishi aniqlandi. Markaziy ion ligandlar bilan to‘rt xalqali metallosikl hosil qilib, bidentat birikayotganligi hamda hosil bo‘lgan kompleks birikmalar kvadratli piramida tuzilishida bo‘lishi kompleks birikmalarning elektr o‘tkazuvchanligi, element analizi, IQ-, EPR-spektrlari yordamida o‘rganildi va $Cu(Xz)_2 \cdot 3H_2O$ tarkibli kompleks birikmaning tuzilish formulasi quyidagicha taklif etildi:




## XULOSA

Mis(II) tuzlari xinazolon-4 bilan 1:1; va 1:2 tarkibli kompleks birikmalar hosil qilishi hamda birikish to‘rtinchi holatdagi kislorod va uchinchi holatdagi azot orqali koordinatsiyaga uchrashi aniqlandi.


ISSN 3030-3907

Mis(II) tuzlarini xinazolon-4 bilan 1:2 tarkibli kompleks birikmalarini sintezlash jarayonida markaziy ion ikkinchi kislota qoldig‘ini ham xinazolon-4 ga almashinishi mumkinligi o‘rganildi.

Sintez qilingan kompleks birikmalarning elektr o‘tkazuvchanligi, element analizi, IQ -, EPR - spektrlari o‘rganildi va kompleks birikmalar kvadratli piramida tuzilishiga ega ekanligi aniqlandi.

Kompleks birikmalarini DMSO da elektr o‘tkazuvchanligi o‘rganilganda, kam elektr o‘tkazuvchan (6-8 $om^{-1} \cdot sm^2 \cdot mol^{-1}$) xarakterga ega ekanligi aniqlandi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Х.М.Шоҳидоятов Хиназолоны-4 и их биологическая активностъ. – Ташкент: Издательство “Фан” 1988. 136 с.

2. Э.Ш.Якубов, И.Нахатов, Б.Р.Норматов Координационные соединения меди (II) с хиназолоном-4 и его производными. - Ташкент. Узбекский химический журнал. – 2019. - №4. – 44-51 с.

3. Nakamoto K. “Infrared and Raman Spektra of Inorganik and Coordinashion Compounds”, – John. Wiley and Sons, Inc., New York. – 1978/ - P. 231.

4. Якубов Э.Ш., Назаров Ф.Ф., Назаров Ф.С., Дустов Х.Б. Смещаннолигандные комплексы меди (II). – Бухара. Развитие науки и технологий. – 2019. - №5. – 117-121 с.

5. Якубов Э.Ш., Гулбоева Д.Р., Сафарова М.А., Чориев А.У. Комплексные соединения кобальта(II), меди(II) и цинка с хиназолоном-4. – Москва. Universum: Химия и биология. – 2019. 3(57). - 72-76 с.

6. Якубов Э.Ш., Махмудова Г.А., Тожиев С.М., Шокиров Ж.Н. Комплексные соединения биометаллов с 2-карбоксиметиламинохиназолоном-4. – Қарши. ҚарДУ ХАБАРЛАРИ илмий-назарий, услубий журнал. – 2021. №1. – 26-30 бетлар.

7. Якубов Э.Ш., Қурбонназаров А.Ж. Комплексные соединения Co(II), Cu(II) и Zn с 2-оксохиназолоном-4. – Қарши. ҚарДУ ХАБАРЛАРИ илмий-назарий, услубий журнал. – 2022. №3. – 81-85 бетлар.

8. Yakubov E.Sh., Boykabilova N.Sh. SPECTROPHOTOMETRIC STUDY OF COBALT(II) COMPLEX FORMATION WITH QINAZOLONE-4. American Journal Of Applied Science And Technology (ISSN – 2771-2745) VOLUME 03 ISSUE 03 Pages: 18-26. Journal Website: https://theusajournals.com/index.php/ajast. 2023.

9. Якубов Э.Ш., Махмудова Г.А., Тожиев С.М., Шокиров Ж.Н. Комплексные соединения меди(II) и цинка с 2-аминохиназолоном-4. // ҚарДУ хабарлари. – 2020. №4. 25–28 бетлар.



ISSN 3030-3907

10. Махмудова Г.А., Тожиев С.М., Шокиров Ж.Н., Якубов Э.Ш. Комплексные соединения биометаллов с 2-карбоксиметиламинохиназолоном-4. // ҚарДУ хабарлари. – 2021. №1. 26–32 бетлар.



ISSN 3030-3907

# TOMCHILATIB SUG‘ORISH TIZIMLARIDA TOMCHILATKICHLARNING TIQILIB QOLISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH, DALA TADQIQOTLARIDAN OLINGAN NATIJALAR.

**Sh.Ermatova**
***“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti***
***E-mail: sh_ermatova@tiiame.uz***
**D.Atakulov.**
***“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti***

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot ishi mikrotomchilatib sug‘orish tizimlarida yuzaga keladigan tomchilatkichlarning tiqilib qolish muammolariga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi tomchilatkichlarning tiqilib qolishining fizik, biologik va kimyoviy sabablarini aniqlash, ularni oldini olish usullarini ishlab chiqish va egiluvchan sug‘orish quvurlarining gidravlik xususiyatlarini eksperimental yo‘l bilan o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot O‘zbekistonning turli agroklimatik sharoitlarida joylashgan uchta tajriba maydonida olib borilgan bo‘lib, jami 35, 45 va 80 gektar maydonlarni qamrab olgan. Tadqiqotlar davomida diametri 16 mm bo‘lgan egiluvchan polimer materialli sug‘orish quvurlari qo‘llanilgan. Bosim, suv sarfi va yer nishabligi o‘lchovlari aniq o‘lchov asboblari yordamida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

Tomchilatkichlarning tiqilib qolishi asosan fizik (qum, loyqa), biologik (bakteriyalar) va kimyoviy (tuzlar cho‘kishi) sabablarga ko‘ra yuzaga keladi

Diametri 16 mm bo‘lgan egiluvchan quvurlarning solishtirma qarshiligi o‘rtacha 21.1 $s^2/m^6$ ni tashkil etadi

Suv sifatini tahlil qilish, to‘g‘ri filtrlash tizimini qurish va kimyoviy ishlov berish orqali tiqilishning oldini olish mumkin

Olingan natijalar asosida tomchilatib sug‘orish tizimlarini loyihalash va ularning samaradorligini oshirish, shuningdek suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** mikrotomchilatib sug‘orish, tomchilatkich, tiqilib qolish, solishtirma qarshilik, gidravlik hisob, suv sifati, filtrlar, egiluvchan quvurlar.

**Аннотация.** Данное исследование посвящено проблемам засорения капельниц, возникающим в микрокапельных системах орошения. Основная цель исследования заключается в выявлении физических, биологических и химических причин засорения капельниц, разработке методов их предотвращения и экспериментальном изучении гидравлических характеристик гибких оросительных труб.



ISSN 3030-3907

Исследования проводились на трёх опытных участках, расположенных в различных агроклиматических условиях Узбекистана, общей площадью 35, 45 и 80 гектаров. В ходе исследований использовались гибкие оросительные трубы из полимерного материала диаметром 16 мм. Измерения давления, расхода воды и уклона местности выполнялись с помощью точных геодезических приборов.

**Результаты исследований показали, что:**

• Засорение капельниц происходит в основном по физическим (песок, взвеси), биологическим (бактерии) и химическим (отложение солей) причинам.

• Удельное гидравлическое сопротивление гибких труб диаметром 16 мм в среднем составляет 21,1 $с^2/м^6$.

• Предотвратить засорение возможно за счёт анализа качества воды, установки эффективной фильтрационной системы и применения химической обработки.

На основе полученных данных разработаны рекомендации по проектированию систем капельного орошения, повышению их эффективности и рациональному использованию водных ресурсов.

**Ключевые слова:** микрокапельное орошение, капельница, засорение, удельное сопротивление, гидравлический расчёт, качество воды, фильтры, гибкие трубы.

**Abstract.** This research is devoted to the problem of emitter clogging that occurs in micro-drip irrigation systems. The main objective of the study is to identify the physical, biological, and chemical causes of emitter clogging, to develop methods for its prevention, and to experimentally investigate the hydraulic characteristics of flexible irrigation pipes.

The study was conducted on three experimental sites located in different agro-climatic conditions of Uzbekistan, covering areas of 35, 45, and 80 hectares. Flexible irrigation pipes made of polymer material with a diameter of 16 mm were used during the experiments. Measurements of pressure, water discharge, and land slope were carried out using precise measuring instruments.

The results showed that:

• Emitter clogging mainly occurs due to physical (sand, suspended solids), biological (bacteria), and chemical (salt precipitation) factors.

• The specific hydraulic resistance of flexible pipes with a diameter of 16 mm averaged 21.1 $s^2/m^6$.

• Clogging can be prevented through water quality analysis, proper filtration system design, and chemical treatment.



ISSN 3030-3907

Based on the obtained results, recommendations were developed for improving the design and efficiency of drip irrigation systems, as well as for the rational use of water resources.

**Keywords:** micro-drip irrigation, emitter, clogging, specific resistance, hydraulic calculation, water quality, filters, flexible pipes.

**Kirish**

Tomchilatib sug‘orish tizimlari suv va o‘g‘itlarni ma’lum chastotada, bevosita o‘simlik ildiz zonasiga yetkazib berishga imkon yaratadi. Bunday tizimlarda keng quvurlar tarmog‘i orqali suv tomchilatkichlarga yetkaziladi, ular esa suvni tomchi, mayda oqim yoki mikro-purkagichlar ko‘rinishida chiqaradi. Tabiiy dala sharoitida olib borilgan tadqiqotlar natijasida solishtirma qarshiliklarni aniqlandi va amalyotda qo`llanish uchun tavsiyalar berildi.

So‘nggi yigirma yil ichida mikrotomchilatib sug‘orish tizimlari daraxtzorlar va boshqa bog‘dorchilik ekinlarida keng qo‘llanilmoqda. Chunki ular sug‘orish bilan birga **sovuqdan himoya qilish** uchun ham moslashuvchanlikka ega. To‘g‘ri boshqarilganda, mikrotomchilatib sug‘orish boshqa sug‘orish usullariga nisbatan bir qancha afzalliklarni beradi:

- Suvni bir tekis taqsimlash imkoniyati.
- Suvdan foydalanish samaradorligi yuqori.
- To‘g‘ri rejalashtirilsa, chuqur yuvilish (filtratsiya) va oqib ketishni kamaytiradi.
- O‘g‘itlar (fertigatsiya) va boshqa kimyoviy moddalarni (kemyogatsiya) sug‘orish tizimi orqali samarali berish imkoniyati.
- Boshqa usullar bilan sug‘orib bo‘lmaydigan tik yerlarda ham sug‘orishni amalga oshirish imkoniyati.

Biroq, tomchilatkichlarning **tiqilib qolishi** mikrotomchilatib sug‘orish tizimida eng jiddiy muammolardan biridir. Tomchilatkichlar tiqilib qolsa, suvning bir tekis taqsimlanishi buziladi va tizimning samaradorligi keskin pasayadi.

Masalaning qo`yilishi. Tadqiqot usullari va metodologiyasi, Tomchilatkichlarning tiqilib qolish sabablari, Tomchilatkichlarning tiqilib qolishi uchta asosiy sababga ko‘ra yuz beradi: Fizik (qum, loyqa, qattiq zarrachalar), Biologik (bakteriyalar va suv o‘tlarining o‘sishi), Kimyoviy (tuzlar cho‘kishi, qotib qolgan qoldiqlar). Ko‘pincha tiqilib qolish bir nechta sabablarning birgalikdagi ta’siri natijasida yuz beradi. Ushbu maqolada suvning kimyoviy, biologik fizik xususiyatlari , tomchilatib sug‘orish tizimlarida qo‘llaniladigan egiluvchan quvurlarning gidravlik xususiyatlarini, xususan solishtirma qarshiligini eksperimental yo‘l bilan aniqlashga qaratilgan.

Yechish usuli. Tadqiqot ob'ekti va maydonlarida O‘zbekistonning turli agroklimatik sharoitlariga ega bo‘lgan uchta tajriba maydonida olib borildi:Birinchi tajriba uchastkasi**:** Umumiy maydon: 35 ga, Sug‘oriladigan



ISSN 3030-3907

maydon: 10 ga,Ekin: paxta, Qator orasi: 0.9 m (qo‘shqator usuli), Konturlar soni: 8 ta**.** Ikkinchi tajriba uchastkasi: Umumiy maydon: 45 ga, Sug‘oriladigan maydon: 20 ga, Ekin: paxta, Qator orasi: 0.76 m, Konturlar soni: 20 ta. Uchinchi tajriba uchastkasi**:** Umumiy maydon: 80 ga, Sug‘oriladigan maydon: 50 ga, Ekin: paxta, Qator orasi: 0.76 m, Konturlar soni: 32 ta, Qo‘shimcha: egatlarga plenka to‘shalgan Tajriba jihozlari va parametrlari**.** Barcha tajribalarda quyidagi texnik xususiyatlarga ega jihozlar qo‘llanildi: Sug‘orish quvuri diametri: **16 mm,** Quvur uzunligi: **100 m,** Tirqishlar orasidagi masofa: **0.25 m,** Material: egiluvchan polimer material, O‘lchov usullari va asboblar. Tadqiqot davomida quyidagi o‘lchovlar va usullar qo‘llanildi: **Bosim o‘lchovlari: Asbob: manometrlar, O‘lchov nuqtalari: quvurning boshi va oxiri, Birlik: Bar (1 Bar = 10 m suv ustuni)** Suv sarfi o‘lchovlari: **Usul: hajmiy usul, Protsedura: ma'lum hajmdagi idishni to‘ldirish vaqti, Formula: q = W/t (1) bu yerda: q - suv sarfi, W - suv hajmi, t – vaqt Yer nishabligi o‘lchovlari: Asbob: geodezik nivelir, Usul: aniq landshaft o‘lchovlari.** Hisoblash metodlari**. Tadqiqotda quyidagi asosiy formulalar qo‘llanildi: Napor yo‘qolishini hisoblash:**

**Sug‘orish quvuri uzunligi bo‘yicha yo‘qotilgan napor quyidagi formula bilan aniqlandi:**

$$H=\Delta p+i\cdot l$$

**bu yerda:**

**H - yo‘qotilgan napor (m)**

**Δp - bosimlar farqi (m)**

**i - yer nishabligi**

**l - quvur uzunligi (m)**

**Bosimlar farqini hisoblash**:

$$\Delta p = (p_1 - p_2) \times 10$$

bu yerda:

$p_1$, $p_2$ - bosimlar (Bar)

Quvurning solishtirma qarshiligi quyidagi formula bilan aniqlandi:

$$A = H / (q_0^2 \cdot l) \times 10^5$$

bu yerda:

A - solishtirma qarshilik ($s^2/m^6$)

$q_0$ - boshlang‘ich suv sarfi ($m^3/s$)

l - quvur uzunligi (m)

Tajriba tartibi. Tadqiqot quyidagi tartibda olib borildi: **Dastlabki tayyorgarlik:** tajriba maydonlarini tanlash va jihozlash, **O‘lchovlar:** har bir konturda bosim va sarf o‘lchovlari, **Ma'lumotlarni yig‘ish:** 30 tadan ortiq o‘lchovlar har bir maydon uchun, **Hisob-kitoblar:** formulalar yordamida parametrlarni hisoblash, **Statistik tahlil:** o‘rtacha qiymatlarni aniqlash.



ISSN 3030-3907

Ma'lumotlarni qayta ishlash Olingan ma'lumotlar quyidagi usullar bilan qayta ishlandi: Har bir o‘lchov uchun solishtirma qarshilik hisoblandi, 30 ta o‘lchovning o‘rtacha qiymati aniqlandi, Har uchala maydon natijalari solishtirildi, Xatolik tahlili amalga oshirildi.

Ilmiy yangilik Ushbu metodologiyaning ilmiy yangiligi: Egiluvchan quvurlar uchun maxsus o‘lchov usuli, Real dalasharoitida keng ko‘lamli tajribalar, Aniq va ishonchli solishtirma qarshilik qiymatlarini olish, Standart gidravlik formulalarni takomillashtirish

**Yer usti suvlari manbaining ta’siri**

Tomchilatkichlarning tiqilib qolishi muammosi suv manbasiga bog‘liq. Suv manbalari odatda ikki toifaga bo‘linadi: **yer usti suvlari** (daryo, ko‘l, kanal) va **yer osti suvlari** (quduq suvlari).

- Yer usti suvlardan foydalanilganda:
- Asosiy muammo suv o‘tlari (algalar) va bakteriyalar o‘sishidir.
- Suv o‘tlari hujayralari va ularning organik qoldiqlari filtrdan o‘tib ketishi mumkin va quvurlar ichida yig‘ilib, tomchilatkichlarni tiqib qo‘yadi.
- Shuningdek, chirigan suv o‘tlarining qoldiqlari bakteriyalar uchun oziqa bo‘lib, shilimshiq moddalar hosil qiladi.
- Yuzaki suvlarda mox, baliq, chig‘anoq, urug‘lar va boshqa organik chiqindilar ham bo‘lishi mumkin – ular ham filtrlanmasa, tiqilib qolishga sabab bo‘ladi.
- Yer osti suvlaridan foydalanilganda:
- Asosan **mineral tuzlarning ko‘pligi** muammo tug‘diradi. Suv tarkibidagi kaltsiy, magniy va temir cho‘kib, qattiq qotgan qoplamalar hosil qiladi.
- Sayoz quduqlardan (100 futdan past) olingan suvlar odatda **bakteriyalar** tufayli tiqilish keltirib chiqaradi.
- Chuqur quduqlardan olingan suvda esa **kimyoviy cho‘kindi**lar ko‘proq uchraydi.
- Fizik zarrachalar (qum, loy) odatda yer osti suvida kamroq bo‘ladi, shuning uchun bu manbada bunday muammo kuchli emas.

**Fizik sabablar**

Fizik tiqilib qolish sabablari odatda **qum, loyqa, suspenziya zarrachalari** bilan bog‘liq.

- Quduqlardan suv bilan birga keladigan qum donalari tomchilatkichlarni to‘sib qo‘yishi mumkin.
- Agar suvda mayda loy zarrachalari bo‘lsa, ular filtrdan o‘tib ketadi va muammo tug‘dirmaydi, **lekin loy flokkulyatsiyalanib (yig‘ilib) yirik zarrachaga aylansa**, tiqilish yuz beradi.
- Tadqiqotlarga ko‘ra, agar suvda 500 ppm gacha suspenziya zarrachalari bo‘lsa ham, katta zarrachalar filtrda ushlansa, tomchilatkichlar tiqilmaydi.


ISSN 3030-3907

•Suvning loyqaligi (turbidligi) zarrachalar mavjudligini ko‘rsatadi, lekin u **tiqilish xavfini aniq bashorat qila olmaydi**. Shu sababli laboratoriyada maxsus filtr sinovlari o‘tkazilishi kerak.

**Biologik sabablar**

Tomchilatib sug‘orish tizimi bakteriyalar uchun qulay muhit yaratadi.

•**Bakteriyalar** quvurlarda ko‘payib, **shilimshiq qoplama (slime)** hosil qiladi. Bu shilimshiq suvdagi minerallar bilan birlashib, tomchilatkichni tiqib qo‘yadigan yirik zarrachalarni hosil qiladi.

•Ayrim bakteriyalar temir, marganes va oltingugurt birikmalarini cho‘ktirib, tiqilishga sabab bo‘ladi.

•**Suv o‘tlari (algalar)** ham quvurlarga tushib, organik qoldiq qoldiradi. Bu esa bakteriyalar rivojlanishiga yordam beradi.

•Florida kabi hududlarda ko‘p uchraydigan muammo – **temir va oltingugurt bakteriyalari**.

•**Temir bakteriyalari** temirni erigan holatdan (ferrous) erimaydigan shaklga (ferric) aylantiradi va **qizil yoki sariq qoplama (okhra)** hosil qiladi.

•**Oltingugurt bakteriyalari** esa quduq suvidagi vodorod sulfiddan foydalanib, oq-sariq ipaksimon cho‘kindilar (sulfur slime) hosil qiladi.

•Agar nasosning havo-suv qismi noto‘g‘ri ishlasa, bu bakteriyalar yanada ko‘proq o‘sadi

**Kimyoviy sabablar**

Suv “umumiy erituvchi” deb ataladi, chunki unda deyarli hamma narsa ma’lum darajada eriydi. Biroq, bosim, harorat, pH va boshqa gazlarning ($O_2$, $CO_2$, $H_2S$) miqdoriga qarab, suvdagi minerallar qayta cho‘kishi mumkin.

**Eng keng tarqalgan muammo – kaltsiy karbonat ($CaCO_3$) cho‘kishi.**

Suv tuproq orqali o‘tganda $CO_2$ ni o‘ziga singdiradi, bu esa kaltsiy karbonatni eritib, suvda olib yuradi.

Lekin suv quvurdan chiqib, bosim va harorat o‘zgarsa, kaltsiy qayta cho‘kadi va tomchilatkichlarni to‘sib qo‘yadi.

Cho‘kkan kaltsiy sirti oq qattiq qatlam ko‘rinishida bo‘ladi, u sirka (uksus) bilan tezda erib ketadi (gaz chiqishi kuzatiladi).

Temir va marganes ham kimyoviy tiqilish sabab bo‘ladi.

Masalan, erigan temir havoga chiqqanda oksidlanib, “qizil suv” shaklida cho‘kadi.

**Vodorod sulfid ($H_2S$)** ko‘p bo‘lsa, suv kislotali bo‘ladi va kaltsiy karbonat cho‘kish xavfi kamayadi, lekin bu ham tizim uchun boshqa muammolarni tug‘diradi.

**Fertigatsiya (o‘g‘it bilan sug‘orish) va tiqilish muammolari**



ISSN 3030-3907

**Fertigatsiya** – bu o‘simliklarga oziqa moddalarni (o‘g‘itlarni) sug‘orish tizimi orqali berish jarayonidir. O‘g‘itlar sug‘orish suviga qo‘shilib, tomchilatib sug‘orish tarmog‘i orqali ekinlarga yetkaziladi.

Biroq, ayrim hollarda o‘g‘itlarning eruvchanligi past bo‘lishi yoki suv bilan reaksiyaga kirishi natijasida **cho‘kindi hosil bo‘lib, tomchilatkichlarning tiqilib qolishiga** sabab bo‘lishi mumkin.

Daladagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, turli suv manbalarida o‘g‘itlarning eruvchanligi sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli, o‘g‘it qo‘shilganda tiqilish xavfini oldindan tekshirish kerak.

**Oddiy sinov usuli (Gilbert va Ford, 1986):**

1. O‘g‘it eritmasidan bir necha tomchini sug‘orish suvi namunasi solingan idishga qo‘shing. Eritma miqdori dalada foydalaniladigan suyultirilgan konsentratsiyaga teng bo‘lishi kerak.
2. Idishni yopib, qorong‘i joyda 12 soat qoldiring.
3. Keyin idishning tubiga nur tushirib ko‘ring: agar cho‘kindi hosil bo‘lmagan bo‘lsa, demak bu o‘g‘it mazkur suv manbasi uchun **xavfsiz** hisoblanadi.

Agar cho‘kindi paydo bo‘lsa, bu o‘g‘itni aynan shu suv manbasi bilan ishlatish tiqilishga olib kelishi mumkin.

| 25 | 16 | 1,02 | 0,81 | 0,20 | 0,0006 | 100 | 2,09 | 300 | 11,25 | 1,60 | 0,25 | 640 | 0,000178 | 19,8671 | 0,0025 |
| 26 | 16 | 1,03 | 0,82 | 0,21 | 0,0006 | 100 | 2,11 | 300 | 11,27 | 1,60 | 0,25 | 639 | 0,000177 | 20,1188 | 0,0025 |
| 27 | 16 | 1,04 | 0,83 | 0,21 | 0,0006 | 100 | 2,13 | 300 | 12,25 | 1,47 | 0,25 | 588 | 0,000163 | 23,9837 | 0,0017 |
| 28 | 16 | 1,06 | 0,85 | 0,21 | 0,0006 | 100 | 2,19 | 300 | 12,35 | 1,46 | 0,25 | 583 | 0,000162 | 25,0289 | 0,0016 |
| 29 | 16 | 1,05 | 0,84 | 0,21 | 0,0006 | 100 | 2,15 | 300 | 11,45 | 1,57 | 0,25 | 629 | 0,000175 | 21,1403 | 0,0022 |
| 30 | 16 | 1,05 | 0,84 | 0,21 | 0,0006 | 100 | 2,15 | 300 | 11,55 | 1,56 | 0,25 | 623 | 0,000173 | 21,5112 | 0,0022 |
| **O‘rtacha** | | | | | | | | | | | | | | **21,2103** | **0,0023** |

Tadqiqotlar davomida egiluvchan quvurlarning ichki diametri suv bosimi ta’sirida o‘zgarishi va bu holat klassik gidravlik modellarga mos kelmasligi aniqlandi. Shuningdek, deformatsiya koeffitsienti va ishqalanish yo‘qotishlarining dinamik tarzda o‘zgarishi o‘rganildi. Tomchilatib sug‘orish tizimida ishlatiladigan egiluvchan quvurlarning gidravlik hisob-kitoblari tajriba natijalari asosida takomillashtirildi. Diametri 16 mm bo‘lgan egiluvchan quvurlarning solishtirma


ISSN 3030-3907

qarshiligi o‘rtacha 21.1 $s^2/m^6$ ekanligi aniqlandi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, egiluvchan quvurlarning ichki yuzasidagi ishqalanish va bosim yo‘qotishlarining dinamikasi standart plastmassa quvurlardan sezilarli farq qiladi. Quvur ichidagi bosim o‘zgarishi natijasida uning diametri deformatsiyalanishi va oqim xarakteristikalarining o‘zgarishi kuzatildi. Bu esa egiluvchan quvurlarda traditsion gidravlik hisoblash modellarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.





**Figure 11. Solishtirma qarshilik**

**Solishtirma qarshilik tahlili va xulosa.** Chizma (Figure 11) asosida solishtirma qarshilik tahlili: Shu parametrlarga bog`liq ravishda solishtirma qarshilikni aniqlash formulasini tahlil qilib chiqildi. Shu uchala jadvaldan quyidagi natija olindi.

Yuqoridagi chizmada uchta tajriba uchastkasi (A1, A2, A3) bo‘yicha o‘lchangan solishtirma qarshilik qiymatlari keltirilgan. Grafikda solishtirma qarshilikning o‘zgarishi quyidagicha ifodalangan:

- **A1 uchastka**: Solishtirma qarshilik qiymatlari 18-25 $s^2/m^6$ oralig‘ida o‘zgargan
- **A2 uchastka**: Solishtirma qarshilik qiymatlari 19-25 $s^2/m^6$ oralig‘ida o‘zgargan
- **A3 uchastka**: Solishtirma qarshilik qiymatlari 18-25 $s^2/m^6$ oralig‘ida o‘zgargan

**Jadvallardagi ma'lumotlarga ko‘ra:**


ISSN 3030-3907

1-uchastka o‘rtacha solishtirma qarshiligi: 20.6085 $s^2/m^6$
2-uchastka o‘rtacha solishtirma qarshiligi: 21.6354 $s^2/m^6$
3-uchastka o‘rtacha solishtirma qarshiligi: 21.2103 $s^2/m^6$

**Xulosalar.** Dala tajribalari natijalari asosida egiluvchan quvurlarning turli bosim va uzunlik sharoitidagi gidravlik xarakteristikalari tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot natijasida egiluvchan quvurlarning solishtirma qarshiligi aniqlandi va uning gidravlik hisob-kitoblarda qo‘llanilishi uchun keyingi ilmiy izlanishlarga tavsiya qilinadi. Olingan natijalar egiluvchan quvurlarning real sharoitlardagi gidravlik parametrlarini aniqlash, sug‘orish tizimlarini yanada samarali loyihalash va suv tejamkorligini oshirish imkonini beradi. Natijada, egiluvchan quvurlarning real sharoitlardagi suv taqsimoti va bosim yo‘qotishlarini ancha aniq baholash imkoni ishlab chiqildi. Bu esa sug‘orish tizimlarini loyihalashda samaradorlikni oshirish va suv tejamkorligini ta’minlash uchun muhim qadam hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari tomchilatib sug‘orish tizimlarining gidravlik hisob-kitoblarini takomillashtirish, suv tejamkorligini oshirish va qishloq xo‘jaligida resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, diametri 16 mm bo‘lgan egiluvchan tomchilatib sug‘orish quvurlarining solishtirma qarshiligi o‘rtacha 21.1 $s^2/m^6$ ni tashkil etadi. Bu qiymat turli agroklimatik sharoitlarda va turli tuproq xususiyatlariga ega bo‘lgan uchta tajriba maydonida olib borilgan o‘lchovlar asosida aniqlandi.

Solishtirma qarshilikning nisbatan barqaror qiymatga ega bo‘lishi tomchilatib sug‘orish tizimlarini loyihalashda egiluvchan quvurlar uchun birlashtirilgan hisob-kitob metodikasini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Olingan natijalar asosida tomchilatib sug‘orish tizimlarining gidravlik hisoblarini aniqroq bajarish, suv taqsimotini bir xilda amalga oshirish va suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratildi.

Bu tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligida suv tejamkorligini oshirish, sug‘orish tizimlarini optimallashtirish va egiluvchan quvurlarning gidravlik xususiyatlarini aniqroq hisobga olish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini oshirish va resurslardan ogilona foydalanishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, X., & Xalimov, M. (2020). Mikrotomchilatib sug‘orish tizimlarida tomchilatkichlarning tiqilib qolish sabablari va ularni bartaraf etish usullari. Qishloq xo‘jaligi ilmiy jurnali, 4(2), 45-52.
2. Karimov, A., & Yusupov, Sh. (2019). Tomchilatib sug‘orish tizimlarining samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.


ISSN 3030-3907

3. Sultanov, R., & Qodirov, M. (2018). Sug‘orish tizimlarida suv sifati va uning ta'siri. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
4. G‘afurov, J., & Ismoilov, I. (2017). Egiluvchan quvurlarning gidravlik xususiyatlari va ularni hisoblash metodlari. Gidrotexnika va melioratsiya, 3(1), 28-35.
5. Nazarov, U., & Toshmatov, A. (2016). Mikroirrigatsiya tizimlarida filtrlar va ularning samaradorligi. Qishloq xo‘jaligi muhandisligi, 2(4), 15-22.
6. Raximov, S., & Alimov, M. (2015). Sug‘orish suvlarining kimyoviy tarkibi va uning tomchilatkichlarga ta'siri. Tuproqshunoslik va agrokimyo, 4(3), 67-74.
7. Bucks, D. A., & Nakayama, F. S. (1990). Trickle irrigation for crop production: Design, operation and management. Elsevier Science Publishers.
8. Burt, C. M., & Styles, S. W. (2007). Drip and micro irrigation design and management for trees, vines, and field crops. Irrigation Training and Research Center
9. Camp, C. R. (1998). Subsurface drip irrigation: A review. Transactions of the ASAE, 41(5), 1353-1367.
10. Hillel, D. (2004). Introduction to environmental soil physics. Elsevier Academic Press.
11. Keller, J., & Bliesner, R. D. (1990). Sprinkle and trickle irrigation. Van Nostrand Reinhold.
12. Nakayama, F. S., & Bucks, D. A. (1986). Trickle irrigation for crop production: Design, operation and management. Elsevier.
13. Phene, C. J., & Howell, T. A. (1984). Soil-water-grass relationships in trickle irrigation. Advances in Irrigation, 3, 1-50.
14. Schwankl, L., & Hanson, B. (2007). Maintaining microirrigation systems. University of California Agriculture and Natural Resources.
15. Gilbert, R. G., & Ford, H. W. (1986). Emitter clogging: Causes and prevention. In: Nakayama, F.S., Bucks, D.A. (eds) Trickle Irrigation for Crop Production. Elsevier.
16. Ford, H. W. (1979). The effect of water quality on the clogging of drip irrigation systems. Proceedings of the Florida State Horticultural Society, 92, 70-73.
17. Adin, A., & Sacks, M. (1991). Dripper-clogging factors in wastewater irrigation. Journal of Irrigation and Drainage Engineering, 117(6), 813-826.
18. Capra, A., & Scicolone, B. (2007). Emitter and filter tests for wastewater reuse by drip irrigation. Agricultural Water Management, 68(2), 135-149.
19. Tajrishy, M., & Hills, D. J. (1994). Clogging of emitters in drip irrigation systems. Transactions of the ASAE, 37(5), 1507-1513.


ISSN 3030-3907

20. Ravina, I., Paz, E., Sofer, Z., Marcu, A., Shisha, A., & Sagi, G. (1997). Control of emitter clogging in drip irrigation with reclaimed wastewater. Irrigation Science, 17(1), 25-33.
21. Boman, B. J. (2002). Maintenance of microirrigation systems. University of Florida, IFAS Extension.
22. Pitts, D. J., Haman, D. Z., & Smajstrla, A. G. (2003). Causes and prevention of emitter plugging in microirrigation systems. University of Florida, IFAS Extension.
23. Trooien, T. P., & Lamm, F. R. (1995). Clogging of subsurface drip irrigation systems. In: Microirrigation for a Changing World, Proceedings of the 5th International Microirrigation Congress, 259-266.
24. Nakayama, F. S., & Bucks, D. A. (1991). Water quality in drip/trickle irrigation: A review. Irrigation Science, 12(4), 187-192.
25. Bucks, D. A., Nakayama, F. S., & Gilbert, R. G. (1979). Trickle irrigation water quality and preventive maintenance. Agricultural Water Management, 2(2), 149-16


ISSN 3030-3907

# IQLIM O‘ZGARISHINING CHIRCHIQ DARYOSI HAVZASIDAGI METEOROLOGIK TENDENSIYALARGA TA’SIRI (2008–2024 YILLAR TAHLILI)

**Farruhbek Babajanov**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
**Kamola Xasanova**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
**Dilmurod Ruziyev**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
*E-mail: ruzievdilmurod98@gmail.com*
**Adxam Sadikov**
*Toshkent arxitektura-qurilish universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotda Chirchiq daryosi havzasida 2008–2024 yillar oralig‘ida kuzatilgan asosiy meteorologik ko‘rsatkichlarning uzoq muddatli tendensiyalari tahlil qilindi. Tadqiqotning maqsadi iqlim o‘zgarishining havzaning meteorologik va gidrologik sharoitlariga ta’sirini aniqlashdan iboratdir. Toshkent, Chorvoq va Chinoz meteorologik stansiyalarining 17 yillik ma’lumotlari asosida havo harorati, yer sirt harorati, yog‘in va shamol tezligi ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Natijalar Chirchiq havzasida aniq isish jarayoni kechayotganini ko‘rsatdi. Toshkent va Chinoz stansiyalarida o‘rtacha yillik harorat 2008–2024 yillarda taxminan 1 °C ga ortgan (0,5–1,0 °C/10 yil), Chorvoqda esa o‘sish nisbatan past (0,3–0,5 °C/10 yil). MODIS ma’lumotlari asosida yer sirt harorati ham ortib, ayniqsa urbanizatsiyalashgan hududlarda “shahar issiqlik oroli” effekti kuchaygani aniqlandi. Yog‘in miqdori yildan-yilga o‘zgaruvchan bo‘lib, 2018–2019 yillar tog‘larda, 2020 yil esa tekislikda yuqori namlik qayd etildi. 2021 yil esa qurg‘oqchilik yili bo‘ldi. Shamol tezligida esa aniq trend kuzatilmadi. Umuman, Chirchiq havzasi iqlimi isib bormoqda, yog‘in esa beqaror. Bu holat suv resurslari, gidroenergetika va sug‘orish tizimlarini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** Chirchiq daryosi havzasi; iqlim o‘zgarishi; havo harorati; yer sirt harorati (LST); yog‘in; shamol tezligi; MODIS; gidrologik model; suv resurslari.

**Аннотация.** В данном исследовании проанализированы долгосрочные тенденции основных метеорологических показателей, наблюдаемых в бассейне реки Чирчик в период 2008–2024 гг. Цель исследования заключается в определении влияния климатических изменений на метеорологические и гидрологические условия бассейна. На основе 17-летних данных метеорологических станций Ташкент, Чарвак и Чиназ



ISSN 3030-3907

изучены показатели температуры воздуха, температуры поверхности земли (LST), количества осадков и скорости ветра. Результаты показали наличие устойчивого процесса потепления в бассейне Чирчика. Среднегодовая температура воздуха на станциях Ташкент и Чиназ за 2008–2024 гг. повысилась примерно на 1 °C (0,5–1,0 °C/10 лет), тогда как на станции Чарвак рост оказался менее выраженным (0,3–0,5 °C/10 лет). Согласно данным MODIS, температура поверхности земли также увеличивается, особенно в урбанизированных районах, где усиливается эффект «городского теплового острова». Количество осадков характеризуется высокой межгодовой изменчивостью: в 2018–2019 гг. наблюдались влажные годы в горных районах, в 2020 г. — повышенная влажность в равнинных зонах, а 2021 г. стал засушливым. Для скорости ветра выраженной тенденции не выявлено. В целом климат бассейна реки Чирчик становится теплее, тогда как осадки остаются нестабильными. Эти изменения имеют важное значение для управления водными ресурсами, гидроэнергетикой и системами орошения.

**Ключевые слова:** бассейн реки Чирчик; изменение климата; температура воздуха; температура поверхности земли (LST); осадки; скорость ветра; MODIS; гидрологическая модель; водные ресурсы.

**Abstract.**This study analyzes the long-term trends of key meteorological indicators observed in the Chirchiq River Basin during the period 2008–2024. The main objective is to determine the impact of climate change on the meteorological and hydrological conditions of the basin. Based on 17 years of data from the Tashkent, Charvak, and Chinaz meteorological stations, variations in air temperature, land surface temperature (LST), precipitation, and wind speed were investigated. The results indicate a clear warming trend across the Chirchiq Basin. The mean annual air temperature at the Tashkent and Chinaz stations increased by approximately 1 °C (0.5–1.0 °C per decade) from 2008 to 2024, while the Charvak station showed a weaker increase (0.3–0.5 °C per decade). MODIS satellite data also reveal a rise in land surface temperature, especially in urbanized areas, confirming the intensification of the “urban heat island” effect. Precipitation exhibits strong interannual variability: 2018–2019 were humid years in the mountainous areas, 2020 was unusually wet in the lowlands, and 2021 was characterized by drought conditions. No significant long-term trend was detected in wind speed. Overall, the climate of the Chirchiq River Basin is warming, while precipitation remains irregular. These findings are crucial for sustainable management of water resources, hydropower operations, and irrigation systems.



ISSN 3030-3907

**Keywords:** Chirchiq River Basin; climate change; air temperature; land surface temperature (LST); precipitation; wind speed; MODIS; hydrological model; water resources.

**Kirish.**


So‘nggi o‘n yilliklarda global iqlim o‘zgarishi yer yuzining barcha mintaqalarida, xususan Markaziy Osiyoda, gidrometeorologik jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalqaro ilmiy hisobotlar, jumladan IPCC (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 50 yil ichida quruqlik yuzasidagi o‘rtacha harorat har o‘n yilda 0,2–0,3 °C ga oshgan, Markaziy Osiyo esa isish tezligi eng yuqori hududlardan biri sifatida e’tirof etilgan[1,2]. Hududdagi suv resurslari asosan qor va muzliklardan to‘yinuvchi daryolarga bog‘liq bo‘lgani uchun, bu o‘zgarishlar gidrologik siklning barcha bosqichlariga-qor to‘planishi, erish, bug‘lanish va daryo oqimiga-bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy Osiyoda olib borilgan tadqiqotlar havo harorati va yog‘in miqdorida sezilarli o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatadi [3,4]. Xususan, O‘zbekiston hududida1990-yillardan buyon havo harorati har o‘n yilda o‘rtacha 0,4–0,5 °C ga oshib bormoqda, yog‘in esa fazoviyjihatdan notekis taqsimlanmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati Respublika miqyosida umumiy statistik tahlilbilan cheklangan bo‘lib, Chirchiq daryosi havzasi kabi alohida suv havzalari bo‘yicha zamonaviy, yuqori aniqlikdagi meteorologik trend tahlillari yetarlicha amalga oshirilmagan. Chirchiq daryosi havzasi - O‘zbekistonning shimoli-sharqiy qismida joylashgan strategik suv resursi hududi bo‘lib, poytaxt Toshkentni va uning atrofidagi qishloq xo‘jaligi yerlarini suv bilan ta’minlaydi. Havzada shakllanadigan suv resurslari mamlakat YAIMining qariyb 16% ini ta’minlab, daryo oqimining 70 % dan ortig‘i sug‘orish maqsadida ishlatiladi [5,6,7]. Havzaning yuqori qismi qor va muzliklardan to‘yinuvchi tog‘li hududlardan iborat bo‘lib, iqlim o‘zgarishiga eng sezgir qism hisoblanadi. Shu sababli, ushbu hududda sodir bo‘layotgan meteorologik o‘zgarishlarni tahlil qilish O‘zbekiston suv xavfsizligi, energetika barqarorligi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda MODIS, ERA5 va boshqa masofaviy zondlash manbalari asosida Markaziy Osiyo daryolari havzalarida (masalan, Zarafshon, Amudaryo, Ili) olib borilgan tahlillar yer sirt harorati va qor qoplami dinamikasida aniq isish tendensiyasini ko‘rsatgan. Biroq Chirchiq havzasi uchun bunday tahlil mahalliy meteorologik kuzatuvlar bilan birlashtirilgan holda hali amalga oshirilmagan [8,9,10]. Shu bois, ushbu tadqiqot 2008–2024 yillar davrida Chirchiq daryosi havzasida havo harorati, yer sirt harorati, yog‘in va shamol tezligining uzoq muddatli o‘zgarishlarini aniqlash, ularninggidrologik jarayonlar va suv resurslariga ta’sirini baholash hamda O‘zbekiston sharoitida iqlim o‘zgarishiga moslashuv siyosatlari uchun ilmiy asos yaratishni maqsad qilgan. Tadqiqot natijalari faqat O‘zbekiston uchun emas, balki



ISSN 3030-3907

Markaziy Osiyoning qor-muzlik bilan ta’minlanadigan daryo tizimlari uchun ham dolzarbdir. Bu natijalar iqlim modelchilar, suv xo‘jaligi mutaxassislari va ekologlar uchun hududiy iqlim trendlarini yanada aniqlik bilan modellashtirish imkonini beradi hamda global iqlim o‘zgarishining mahalliy darajadagi ta’sir mexanizmlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot obyekti.** Tadqiqot obyekti sifatida Chirchiq daryosi havzasi tanlandi. Havza O‘zbekistonning shimoli-sharqiy qismida, Toshkent viloyati hududida joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni taxminan 14,900 km² ni tashkil etadi (1-rasm). Chirchiq daryosi Tyan-Shan tog‘ tizmasining g‘arbiy tarmoqlarida joylashgan Pskem va Chatkal daryolari qo‘shilishidan hosil bo‘ladi va Charvoq suv ombori orqali pastga, Toshkent vodiysi hamda Chinoz tekisliklariga oqib chiqadi. Daryo oxir-oqibat Sirdaryoga quyiladi. Havzaning relyefi yuqori tog‘lardan past tekisliklargacha keskin o‘zgaradi: balandliklar 3000 metrdan (Chatkal tizmasida) 250–300 metrgacha (Chinoz yaqinida) pasayadi. Bunday orografik farq natijasida iqlim ham keskin o‘zgaruvchan — tog‘li hududlarda sovuq va nam, tekisliklarda esa quruq va issiq. Yillik yog‘in miqdori yuqorida 1200–1600 mm, o‘rta qismda 450–500 mm, quyi qismda esa 300–350 mm atrofida. Yog‘inlarning asosiy qismi qish va erta bahor oylariga to‘g‘ri keladi. Havzaning suvlari asosan qor va muzliklarning erishidan shakllanadi, bu esa uni iqlim o‘zgarishiga sezgir qiladi.




**1-rasm. Chirchiq daryosi havzasining joylashuvi va gidrografik tarmog‘i**

Tadqiqotda havzaning uchta asosiy meteorologik stansiyasi ma’lumotlaridan foydalanilgan:

- Charvoq (yuqori qism, tog‘li hudud, suv ombori yaqinida),
- Toshkent (o‘rta qism, urbanizatsiyalashgan zona),
- Chinoz (past oqim, quruq tekislik).


ISSN 3030-3907

Bu stansiyalar havzaning turli balandlik va landshaft zonalarini ifodalaydi, shuning uchun ularning ma’lumotlari havzadagi vertikal iqlimiy gradientni tahlil qilish imkonini beradi.

Chirchiq havzasi O‘zbekiston suv xo‘jaligi, gidroenergetikasi va sug‘oriladigan dehqonchiligi uchun strategik ahamiyatga ega. Toshkent shahri va unga tutash sanoat zonalari suv bilan aynan ushbu havza orqali ta’minlanadi. Shu sababli, mazkur hududda sodir bo‘layotgan meteorologik o‘zgarishlarni o‘rganish — mamlakat suv xavfsizligi, qishloq xo‘jaligi barqarorligi va iqlimga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot uslubi.** Tadqiqotda 2008–2024 yillar oralig‘idagi meteorologik kuzatuv ma’lumotlari asosida Chirchiq daryosi havzasida iqlim o‘zgarishining asosiy tendensiyalari tahlil qilindi. Ma’lumotlar Toshkent, Chorvoq va Chinoz meteorologik stansiyalaridan olingan bo‘lib, ular havzaning yuqori, o‘rta va quyi qismlarini ifodalaydi. Ishda quyidagi asosiy ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi:

1. *Ma’lumotlarni tayyorlash va sifat nazorati.* Dastlab barcha meteorologik qatorlar (harorat, yog‘in, shamol) to‘liq tekshirilib, yo‘qolgan yoki anomal qiymatlar aniqlanib, kerakli hollarda chiqarib tashlandi. Chorvoq stansiyasida 2014–2015 yillarda ma’lumotlar yetishmagani sababli, bu yillar trend tahliliga kiritilmadi.

2. *Agregatsiya va yillik qiymatlarni hisoblash.* Har oylik kuzatuvlar yillik o‘rtacha yoki yig‘indi ko‘rsatkichlarga aylantirildi:

- Havo harorati uchun: o‘rtacha, minimal va maksimal yillik qiymatlar;
- Yog‘in uchun: yillik yig‘indilar va mavsumiy (qish, bahor, yoz, kuz) bo‘linmalar;
- Shamol uchun: “shamol impulsi” bo‘yicha yillik o‘rtacha tezlik;
- LST uchun: MODIS sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlaridan o‘rtacha sirt harorati.

3. *Trend tahlili.* Har bir parametr uchun chiziqli regressiya (linear trend) usuli bilan o‘zgarish tezligi aniqlanib, har 10 yillikdagi o‘zgarish darajasi (°C/decade yoki mm/decade) hisoblandi. Statistik ahamiyat t-testi orqali baholandi.

4. *Masofaviy zondlash ma’lumotlaridan foydalanish.* Yer sirtining harorati (LST) MODIS (MOD11A2) va ERA5 reanaliz ma’lumotlari asosida tahlil qilindi. Ma’lumotlar ArcGIS va Python muhitida qayta ishlanib, o‘rtacha yillik qiymatlar bilan stansiya kuzatuvlari solishtirildi.

5. *Grafik va fazoviy tahlil.* Trend chiziqlari, yillik dinamik graflar va xaritalar MS Excel, ArcGIS Pro va OriginLab dasturlarida tuzildi. Shuningdek, havzaning orografik va landshaft omillarini hisobga olish uchun balandlik gradienti bo‘yicha stansiyalararo taqqoslash amalga oshirildi.


ISSN 3030-3907

**Natija va muhokama.** 2008–2024 yillar oralig‘ida Chirchiq daryosi havzasida olib borilgan meteorologik tahlillar natijalari hududda iqlim o‘zgarishining yaqqol belgilarini ko‘rsatdi. Tahlil to‘rtta asosiy parametr — havo harorati, yer sirt harorati (LST), yog‘in miqdori va shamol tezligi bo‘yicha amalga oshirildi. Umuman olganda, havzada havo haroratining oshishi aniq, yog‘in va shamol ko‘rsatkichlari esa nisbatan o‘zgaruvchan va barqarorligi past ekanligi aniqlangan.

*Havo harorati tendensiyalari.* Barcha meteorologik stansiyalar — Chorvoq, Toshkent va Chinozda — 17 yillik davr mobaynida isish tendensiyasi kuzatildi. Yillik o‘rtacha havo harorati yildan-yilga farq qilsa-da, umumiy o‘sish yo‘nalishi yaqqol namoyon bo‘lgan. Eng katta o‘sish pasttekislikdagi stansiyalarda, ya’ni Toshkent va Chinozda qayd etildi. Toshkentda harorat 2008 yildagi 15 °C dan 2024 yilda 16 °C gacha, Chinozda esa 14,3 °C dan 15,5 °C gacha oshgan. Chorvoq stansiyasida o‘rtacha harorat 9–12 °C diapazonida saqlanib, isish nisbatan sekin kechgan. Chiziqli regressiya tahlili Toshkent va Chinozda har o‘n yillikda 0,7–1,0 °C, Chorvoq stansiyasida esa 0,3–0,5 °C/10 yil o‘sishni ko‘rsatdi(2-rasm). Mazkur natijalar O‘zbekiston bo‘yicha avvalgi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan 0,25–0,52 °C/10 yil isish sur’atlari bilan to‘la mos keladi. Ayniqsa Toshkent–Chirchiq vodiysi Markaziy Osiyodagi mintaqaviy isish markazi sifatida ajralib turadi. 2022 yil butun davr ichidagi eng issiq yillardan biri bo‘ldi.




**2-rasm. 2008–2024 yillar oralig‘ida Chirchiq daryosi havzasining yuqori (Chorvoq), o‘rta (Toshkent) va quyi (Chinoz) qismlarida yillik o‘rtacha havo harorati.**

Ekstremal haroratlar ham bu jarayonni tasdiqlaydi: Chinozda 2008 yilda kuzatilgan –24,5 °C qiymat so‘nggi yillarda –18 °C dan pastga tushmagan; Toshkentda esa minimal harorat –17 °C dan –9 °C gacha oshgan. Bunda qish


ISSN 3030-3907

mavsumining yumshashi va sovuq to‘lqinlar sonining kamayishi kuzatiladi. Maksimal haroratlar nisbatan barqaror bo‘lib, Toshkentda 40–42 °C, Chinozda 40–41 °C, Chorvoqda esa 30–33 °C diapazonida saqlanib qolgan. Bu holat isishning asosan tungi va qishki davr haroratlariga ta’sir qilayotganini ko‘rsatadi. Toshkentda bu jarayon “shahar issiqlik oroli” effekti bilan izohlanadi.


Yer sirt harorati *(LST).* MODIS sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari asosida o‘rganilgan yer sirt harorati (Land Surface Temperature) ham havo haroratidagi isish bilan mutanosib ravishda ortgan. Yozgi davrlarda yalang‘och tuproq va asfalt yuzalarida LST 50–60 °C gacha ko‘tarilgan, bu havo haroratidan ancha yuqori qiymatdir. Yer qoplamasi turiga ko‘ra LST keskin farqlanadi:

- Sug‘oriladigan yoki o‘simlikli yerlarda – 30–35 °C;
- Quruq cho‘l va shahar hududlarida – 55–60 °C;
- Tog‘ yonbag‘irlarida va o‘rmonli joylarda – 25–30 °C atrofida.

Toshkentda urbanizatsiya jarayonlari, yashil maydonlarning kamayishi va asfalt qoplamalarining ortishi natijasida “issiq orol” effekti kuchaygan. Ayniqsa kechasi LST qiymatlarining pasaymasligi yer sirtining sovish jarayoni susayganini ko‘rsatadi. Bu esa havo haroratining tungi soatlarda ham yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Gidrologik nuqtai nazardan, yer sirtining qizishi bug‘lanish jarayonini tezlashtiradi, tuproq namligini kamaytiradi va suv omborlarida suv yo‘qotilishini kuchaytiradi. Natijada, sug‘orish suviga bo‘lgan ehtiyoj ortib, suv resurslari bosimi kuchayadi. Shunday qilib, LST o‘zgarishi Chirchiq havzasining suv balansini modellashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Yog‘in tendensiyalari. Yog‘in miqdori bo‘yicha 2008–2024 yillardagi ma’lumotlar kuchli yillik tebranishlarga ega bo‘lib, aniq barqaror trend qayd etilmadi. Biroq ayrim hududlarda biroz ortish tendensiyasi kuzatilmoqda. Chorvoq stansiyasida yillik yog‘in 500–1600 mm diapazonida bo‘lib, so‘nggi yillarda o‘rtacha 30 mm/10 yilga oshish kuzatildi. Toshkentda yillik yog‘in 400–500 mm atrofida barqaror, Chinozda esa 300–350 mm oralig‘ida bo‘lib, 2020 yilda 995 mm gacha yetgan — bu odatdagi qiymatdan uch baravar yuqori bo‘lgan ekstremal holatdir (3-rasm). Yog‘inning mavsumiy taqsimoti deyarli o‘zgarmagan: asosiy yog‘in qish va bahor oylariga to‘g‘ri keladi, yozda esa 10 mm/oydan kam yog‘in kuzatiladi.


ISSN 3030-3907





**3-rasm: 2008–2024 yillarda Chirchiq daryosi havzasidagi yillik yog‘in miqdori.**

2018–2019 yillarda tog‘li hududlarda juda nam yil qayd etilgan bo‘lsa, 2021 yil qurg‘oqchilik yili sifatida ajralib turadi. Ushbu tebranishlar havzaning tabiiy o‘zgaruvchanligini aks ettirib, suv xo‘jaligi rejalashtirishda ekstremal yillarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Tog‘li hududlarda yog‘inning biroz ortishi kuzatilgan bo‘lsa-da, u hali statistik jihatdan ishonchli trend darajasiga yetmagan.

Shamol tezligi tendensiyalari. Shamol tezligi bo‘yicha 17 yillik ma’lumotlar aniq o‘sish yoki pasayish tendensiyasini ko‘rsatmagan. Chorvoq stansiyasida ayrim yillarda 12 m/s gacha bo‘lgan kuchli shamollar qayd etilgan, keyingi yillarda esa pasayish kuzatilgan. Toshkentda 2008–2009 yillarda 7–8 m/s atrofida bo‘lgan shamol 2012 yildan boshlab 4–6 m/s diapazonida barqarorlashgan. Chinozda shamol odatda 5–7 m/s oralig‘ida bo‘lib, yildan-yilga katta farq qilmagan (4-rasm). Bu natijalar shamol tezligining o‘rtacha qiymatlari deyarli o‘zgarmaganini, biroq mahalliy sharoitlar (urbanizatsiya, topografiya) sababli ayrim stansiyalarda pasayish yoki tebranishlar kuzatilganini ko‘rsatadi. Shahar hududlarida, xususan Toshkentda, binolar zichlashuvi shamol tezligini pasaytirgan bo‘lishi mumkin.


ISSN 3030-3907




**4-rasm. 2008–2024 yillar oralig‘ida Chorvoq, Toshkent va Chinoz stansiyalaridagi yillik o‘rtacha shamol tezligi indeksi.**

Chirchiq havzasida 2008–2024 yillar davomida havo harorati va yer sirt harorati oshib, iqlimning iliqlashish jarayoni yaqqol namoyon bo‘ldi. Minimal haroratlarning oshishi qish mavsumining yumshashiga, qor zaxiralari va muzliklarning qisqarishiga olib keladi. Bu esa Chirchiq daryosi oqimining bahorda erta boshlanishi, yozda esa suv tanqisligining kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Haroratning har 1 °C oshishi bug‘lanish intensivligini oshirib, suv yo‘qotish hajmini ko‘paytiradi. Bu jarayon irrigatsiya tizimlari va suv omborlari uchun muhim xavf omilidir. Yog‘in miqdorining yuqori o‘zgaruvchanligi esa suv resurslari boshqaruvida muhim noaniqlik tug‘diradi — ayrim yillarda toshqin xavfi ortsa, boshqalarda qurg‘oqchilik ehtimoli kuchayadi. Shamol tezligida uzoq muddatli o‘zgarish qayd etilmagan bo‘lsa-da, haroratning ortishi va bosim gradientlarining o‘zgarishi kelgusida shamol rejimiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu holatlarni aniqlash uchun yanada uzoq davrli kuzatuvlar zarur. Umuman olganda, Chirchiq havzasida isish jarayoni faol kechmoqda, pasttekisliklarda u tezroq, tog‘larda esa sekinroq namoyon bo‘lmoqda. Bu differensial isish suv resurslarining fazoviy va mavsumiy taqsimotiga, bug‘lanish hajmiga hamda sug‘orish suviga bo‘lgan talabga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun, kelajakdagi gidrologik modellashtirish va suv xo‘jaligi rejalashtirish ishlarida harorat, LST, yog‘in va shamol ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligi kompleks tarzda hisobga olinishi zarur.

**Xulosa.** 2008–2024 yillar oralig‘ida olingan meteorologik ma’lumotlar tahlili Chirchiq daryosi havzasida aniq isish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatdi. Havo harorati butun havza bo‘ylab o‘rtacha ~1 °C ga oshgan bo‘lib, pasttekisliklarda isish sur’ati 0,5–1,0 °C/10 yil ni tashkil etdi. Eng kuchli isish qish


ISSN 3030-3907

mavsumida kuzatilgan. Sun’iy yo‘ldosh (MODIS) ma’lumotlariga asoslangan yer sirt harorati (LST) ham havo bilan birga izchil o‘sib, bug‘lanish va tuproq namligi jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘simlikli va sug‘oriladigan maydonlar sirtni sovituvchi, yalang‘och va urbanizatsiyalashgan hududlar esa isishni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lgan.

Yog‘in miqdori bo‘yicha yillik o‘zgaruvchanlik yuqori bo‘lib, aniq statistik trend kuzatilmagan. 2018–2019 yillar nisbatan nam, 2021 yil esa quruq bo‘lgan. Chorvoq va Chinoz stansiyalarida ozgina o‘sish belgilari bor, Toshkentda esa barqarorlik saqlangan. Shamol tezligi bo‘yicha ham uzoq muddatli o‘sish yoki pasayish kuzatilmay, tabiiy tebranishlar doirasida qolgan.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, Chirchiq havzasi iqlimi issiqroq va qishlari biroz namroq bo‘lib bormoqda. Biroq yog‘in va shamol o‘zgaruvchanligi yuqori bo‘lib qolmoqda. Bu o‘zgarishlar suv xo‘jaligi, sug‘orish tizimlari va gidroenergetika uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun kelgusida gidrologik modellashtirishda harorat, bug‘lanish, qor zaxirasi va ekstremal hodisalar ta’siri kompleks ravishda inobatga olinishi zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hou, M., Cuo, L., & Xu, H. (2025). *Hydrological response to twenty-first century climate change in the Amu Darya Basin, Central Asia*. Journal of Hydrology: Regional Studies, 54, 102606. https://doi.org/10.1016/j.ejrh.2025.102606

2. Ososkova, T. & Gorelkin, N. & Chub, Vera. (2000). Water Resources of Central Asia and Adaptation Measures for Climate Change. Environmental Monitoring and Assessment. 61. 161-166. 10.1023/A:1006394808699.

3. Peng, Shouzhang, Chengcheng Gang, Yang Cao, and Yunming Chen. "Assessment of Climate Change Trends over the Loess Plateau in China from 1901 to 2100," 2017. https://doi.org/10.1002/joc.5331.

4. Sommer, R., M. Glazirina, T. Yuldashev, A. Otarov, M. Ibraeva, L. Martynova, M. Bekenov, et al. "Impact of Climate Change on Wheat Productivity in Central Asia." Agriculture, Ecosystems and Environment 178 (September 15, 2013): 78–99. https://doi.org/10.1016/j.agee.2013.06.011.

5. Brouder, Sylvie M., and Jeffrey J. Volenec. “Impact of Climate Change on Crop Nutrient and Water Use Efficiencies.” Physiologia Plantarum 133, no. 4 (2008): 705– 24. https://doi.org/10.1111/j.1399-3054.2008.01136.x.

6. Hanasaki, N, S Fujimori, T Yamamoto, S Yoshikawa, Y Masaki, Y Hijioka, M Kainuma, et al. “A Global Water Scarcity Assessment under Shared Socio-Economic Pathways-Part 2: Water Availability and Scarcity.” Hydrol. Earth Syst. Sci 17 (2013): 2393–2413. https://doi.org/10.5194/hess-17-2393-2013.



ISSN 3030-3907

7. Khamidov, S., Li, Z., Nasirova, M., Pulatov, B., & Pulatov, A. (2023). *Assessment of temperature and precipitation trends in Kashkadarya, Uzbekistan*. E3S Web of Conferences, 365, 01005. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202336501005

8. Faye, Babacar, Heidi Webber, Jesse B. Naab, Dilys S. MacCarthy, Myriam Adam, Frank Ewert, John P.A. Lamers, et al. "Impacts of 1.5 versus 2.0 °c on Cereal Yields in the West African Sudan Savanna." Environmental Research Letters 13, no. 3 (March 1, 2018): 034014. https://doi.org/10.1088/1748-9326/aaab40.

9. Zhao, Chuang, Bing Liu, Shilong Piao, Xuhui Wang, David B. Lobell, Yao Huang, Mengtian Huang, et al. "Temperature Increase Reduces Global Yields of Major Crops in Four Independent Estimates." Proceedings of the National Academy of Sciences of the United States of America 114, no. 35 (2017): 9326–31. https://doi.org/10.1073/pnas.1701762114.

10. Wu, Tongwen, Yixiong Lu, Yongjie Fang, Xiaoge Xin, Laurent Li, Weiping Li, Weihua Jie, et al. "The Beijing Climate Center Climate System Model (BCC-CSM): The Main Progress from CMIP5 to CMIP6." Geoscientific Model Development 12, no. 4 (2019): 1573–1600. https://doi.org/10.5194/gmd-12-1573-2019.



ISSN 3030-3907

# CHIRCHIQ DARYOSI GIDROLOGIK REJIMINING UZOQ MUDDATLI DINAMIKASI

**Dinislom Atakulov**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
**Dilmurod Ruziyev**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
*E-mail: ruzievdilmurod98@gmail.com*
**Arifjanov Samandar**
*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti*
**Marxamat Raximbabayeva**
*Toshkent arxitektura-qurilish universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston shimoli-sharqidagi Chirchiq daryosining G‘azalkent gidropostida 1900–2022-yillarga oid o‘rtacha oylik suv sarfi ma’lumotlari asosida suv rejimining uzoq muddatli dinamikasi tahlili olib borildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Chirchiq daryosining o‘rtacha yillik suv sarfi G‘azalkentda taxminan 217–228 m³/s ga teng, o‘tkazuvchanlik mavsumiyligi kuchli: oqimlarning eng yuqori qismi bahor-yoz oylariga to‘g‘ri keladi. Ko‘p yillik tahlilda ekstremal yillar aniqlanib, eng suvli yil 1969 (459 m³/s o‘rtacha) va eng qurg‘oq 1917 (133 m³/s) ekani aniqlangan. Linear regressiya natijalari bo‘yicha umumiy tendensiya zaif kamayish ko‘rsatgan, ammo statistik jihatdan sezilarli emas. Suv rejimidagi o‘zgarishlarga iqlim o‘zgarishlari va antropogen omillar ta’siri tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** Chirchiq daryosi havzasi; iqlim o‘zgarishi; suv sarfi, G‘azalkent gidrologik posti, ko‘p yillik suv oqimi, gidrologik rejim, ekstremal suv hodisalari.

**Аннотация:** В данной статье проведён анализ долгосрочной динамики водного режима реки Чирчик на гидропосту Гузалкент, расположенном на северо-востоке Узбекистана, на основе среднемесячных данных о расходе воды за период 1900–2022 годов. Результаты показали, что среднегодовой расход реки Чирчик у Гузалкента составляет примерно 217–228 м³/с, при этом наблюдается выраженная сезонность — наибольшие расходы приходятся на весенне-летние месяцы. В многолетнем анализе были определены экстремальные годы: самым полноводным оказался 1969 год (в среднем 459 м³/с), а самым маловодным — 1917 год (133 м³/с). По результатам линейной регрессии выявлена слабая тенденция к снижению, однако статистически она не является значимой. Также проанализировано влияние климатических изменений и антропогенных факторов на вариации


ISSN 3030-3907

водного режима.


**Ключевые слова:** бассейн реки Чирчик; изменение климата; расход воды; гидрологический пост Гузалкент; многолетний сток; гидрологический режим; экстремальные водные явления.

**Abstract:** In this article, the long-term dynamics of the water regime of the Chirchiq River at the Gazalkent hydrological station in northeastern Uzbekistan were analyzed based on average monthly discharge data for the period 1900–2022. The results show that the average annual discharge of the Chirchiq River at Gazalkent is approximately 217–228 m³/s, with a strong seasonal variability — the highest flows occur in the spring–summer months. The multi-year analysis identified extreme years, with 1969 being the wettest year (average 459 m³/s) and 1917 the driest (133 m³/s). Linear regression results indicate a slight decreasing trend, though it is not statistically significant. The impact of climate change and anthropogenic factors on variations in the water regime was also analyzed.

**Keywords:** Chirchiq River Basin; climate change; water discharge; Gazalkent hydrological station; multi-year river flow; hydrological regime; extreme water events.

**Kirish.**

Chirchiq daryosi O‘zbekistonning shimoli-sharqida joylashgan bo‘lib, 155 km uzunlikda va taxminan 14,900 km² tog‘-dara havzasiga ega (1-rasm). U Noyabr tog‘lari etagidan boshlanib Sirdaryoga quyiladi. O‘rtacha ko‘p yillik suv sarfi G‘azalkent atrofida taxminan 220 m³/s ga teng[6].




**1-rasm. Chirchiq daryosi havzasining joylashuvi va gidrografik tarmog‘i**

Daryo manbaiga qishloq aholi va suv omborlari yaqin, pastki oqimida esa poytaxt Toshkent tumanlari joylashgan. Iqlim uglerod va suv omborlari orqali boshqarilib, suv resurslari qishloq xo‘jaligi (iqtisodiyotning asosi, paxta va don



ISSN 3030-3907


yetishtirish) va shaharlar uchun muhimdir[4][7]. Aholi suv ta’minoti va energetika uchun ham ahamiyati katta: masalan, Chorvoq, Xo‘jakent va Gazalkent suv omborlari gidroelektr stansiyalar (600 MVt quvvatli gazalkent kaskadi) bo‘lib xizmat qiladi[5][8]. Chirchiq oqimi asosan tog‘ muzliklari va qorlardan keladi[1][9]; mavsumiyligi kuchli bo‘lib, bahor oylarida (aprel–iyun) cho‘qqi nuqtaga yetadi. Shuningdek, daryoning suv burchaklari bo‘yicha sug‘orish tarmoqlari (Chirchiq–Bo‘zsuv, Qorasuvalar) va qishloq xo‘jaligi uchun muhim bo‘lib, jami sug‘oriladigan yerlarning yuz ming gektardan ortig‘i Chirchiq suviga bog‘liq[4]. Ushbu miqyosda Chirchiq havzasi sug‘orish, sanoat va ichimlik suvi manbai hisoblanadi, lekin suvdan ortiqcha foydalanish va bosim tufayli ekologik muammolar (landshaftning sho‘rlanishi, suv osti sathining ko‘tarilishi) ham paydo bo‘lmoqda[4].

**Tadqiqot uslubi.** Tadqiqotda Chirchiq daryosining G‘azalkent gidropostiga oid 1900–2022-yillardagi o‘rtacha oylik suv sarfi ma’lumotlari ishlatilgan. Bu ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati (Uzhydromet) tomonidan yig‘ilgan statistik jadval bo‘lib, $m^3/s$ birlikda ifodalangan. Avvalo ma’lumot to‘plami tozalandi, 1900–2022-yillar oralig‘idagi 12 oylik butun yil ma’lumotlari aniqlandi. Statistika tahlili uchun har bir yil va oy bo‘yicha o‘rtacha, median, minimal, maksimal, standart og‘ish va o‘zgaruvchanlik hisoblandi.

Grafik tahlil sifatida yillik va oylik sarflarni aks ettiruvchi vaqt qatorlari chizildi. Yillik oqimlar uchun trend tahlili (lineer regressiya) o‘tkazildi, shuningdek 12 oylik siljishli o‘rtacha (moving average) va anomaliyalar (yiliga yoki oyga nisbatan uzun muddatli o‘rtachadan farq) aniqlash usullari qo‘llandi. Dastlabki natijalar Excel va Python vositalari yordamida analiz qilindi. Ekstremal yillarni aniqlash uchun yillik o‘rtacha qiymatlar saralandi va eng yuqori hamda eng past qiymatlar aniqlangan. Natijalar to‘plamlari statistik tavsiflar va grafiklar yordamida tasvirlandi. Foydalanilgan usullar xalqaro standartlarga mos ravishda tanlandi hamda oldingi tadqiqotlarda qo‘llangan uslublar singari barginlandi[1].

**Natija va muhokama. Uzun yillik o‘zgarishlar:** 1900–2022-yillarda yillik o‘rtacha suv sarfi an’anaviy ravishda bahor oylarida oshib, yoz va tushda pasayadi. O‘rtacha bir oylik suv sarfi aprel—iyun oylarida cho‘qqi nuqtani tashkil etib (mayda va iyun oylarida turlicha bo‘lsa-da har yili katta oqim kuzatiladi), qishda esa minimal darajaga tushadi (2-rasm).



ISSN 3030-3907




**2-rasm. Suv sarfining uzoq muddatli oylik suv sarfi dinamikasi (G‘azalkent g.)**

Bizning hisob-kitoblarimiz bo‘yicha iyun oyi o‘rtacha 553 m³/s gacha bo‘lgan (maksimal dispersiya 175 m³/s) bo‘lsa, yanvar-febrda 91–90 m³/s atrofida bo‘lgan. Shu sababli yil davomida hosil bo‘ladigan oqimning deyarli 50–60% dan ziyod qismi bahor va erta yoz oylariga to‘g‘ri keladi (bu holat Chiziq daryosi tog‘li havzasi sharofatidir). Misol uchun, 1900–2022 yillar oralig‘ida yillik umumiy oqimning 52.4% mart–iyun oylariga to‘g‘ri kelganligi avvalgi tadqiqotlarda qayd qilingan (52.4% mart–iyun, 32.1% iyul–sentyabr, qolgan 15.5% qish yarimida)[13]. Oylik o‘rtacha statistikada yanvar-fevral oylarida oqimning 90-115 m³/s atrofida, aprelda 231 m³/s, iyunida esa yuqorida qayd etilganidek 553 m³/s atrofida ekanligi aniqlangan. Oylar orasidagi o‘zgaruvchanlik (standart og‘ish) nisbatan katta bo‘lib, masalan, iyun oyida ±175 m³/s, noyabr oyida ±32 m³/s ga teng.

**Yillik oqimlar statistikasi:** 1900–2022 yillarda tahlil qilingan yillik o‘rtacha suv sarflarining umumiy o‘rtacha qiymati 228.2 m³/s, medianasi 221.4 m³/s, dispersiyasi 52.8 m³/s edi. Eng yuqori qiymat 449.5 m³/s (1969 yilda), eng past 133.0 m³/s (1917 yilda) bo‘ldi (3-rasm). Bu davr uchun yillik oqimlarning o‘zgaruvchanlik koeffitsienti 0.23 ga tengligi hisoblandi, ya’ni o‘rtacha natijalar ustida taxminan 20–25% miqdorda tarqalish mavjud.




**3-rasm. Suv sarfining uzoq muddatli yillik suv sarfi dinamikasi (G‘azalkent g.)**



ISSN 3030-3907

Ushbu o‘zgaruvchanlik darajasi Chirchiq daryosining tog‘li tablolariga xos bo‘lib, yillik mavsumda (masalan, ko‘p yillik o‘rtacha aylanishda) sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan.

**Ekstremal yillar:** Tahlil davomida eng ekstremal holatlar aniqlandi. Eng suvli yillar sifatida 1969 (o‘rtacha 449.5 $m^3/s$), 1908 (360.4 $m^3/s$) va 1921 (349.4 $m^3/s$) yillar ajralib turadi. Eng qurg‘oqchil yillar esa 1917 (133.0 $m^3/s$), 1927 (139.7 $m^3/s$) va 1957 (141.3 $m^3/s$) yillardir. Misol uchun, 1969-yil pretsipitatsiya ko‘rsatkichlari yuqori kechib, suv oqimi o‘rtacha 459 $m^3/s$ darajasiga yetgan, aksincha 1917-yilda minimal yog‘ingarchilik va qor bo‘lganligi sababli faqat 133 $m^3/s$ ni tashkil etgan. (Ta’kidlash kerakki, 2010-yil yuqori oqimli, 2020-yil esa kamroq oqimli sifatida qayd qilingan[13], bu so‘nggi o‘n yillikdagi tendentsiyalar namunasi bo‘lib, umumiy ma’lumotlar bilan mos keladi.)

**Tendensiyalar:** Umumiy davr (1900–2022) bo‘yicha yillik oqimlarda o‘zgarishlar haqida grammatik model (lineer regressiya) o‘tkazdik. Natijalar yillar orasida nozik pasayish ko‘rsatdi (–0.06 $m^3/s$ per year), lekin u statistik jihatdan sezilarli emas ($R^2$ juda kichik). Xususan, umumiy ko‘p yillik trend yo‘nalishi salpasiga kamayish bo‘lgani aniqlangan, ammo bunday tendentsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hozircha aniq emas. Shunga qaramay, 2010–2020-yillar oralig‘ida ham suv oqimlari bir oz pasaygan tendentsiya ko‘rsatganligi qayd etilgan (2010-yilda yuqori, 2020-yilda past oqim). Buni 12 oylik siljishli o‘rtacha va yillik anomal grafiklar orqali ham ko‘rish mumkin.

**Muhokama.**Yuqoridagi natijalar Chirchiq daryosining suv rejimida kuzatilgan o‘zgarishlarni turli omillar bilan izohlash imkonini beradi. Birinchi navbatda, iqlim omillari jiddiy rol o‘ynaydi. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo bo‘yicha so‘nggi yarim asrda havo haroratining izchil ortganligi ma’lum bo‘lib, bu hudud IPCC va mahalliy tadqiqotlar tomonidan ham qayd etilgan [2]. Qurg‘oq va quruq mintaqalardagi havo harorati o‘rtacha 0.2–0.3°C/10 yil tezlikda ko‘tarilib, ekstremal ob-havo hodisalari ko‘p uchray boshladi. Bu holat tog‘ muzliklari va qorlarda erish jarayoniga ham ta’sir etadi: iqlim o‘zgargan sari qor va muz qoplami kamayadi, bahor oylaridagi oqim cho‘qqisi ertaroq yoki kichikroq bo‘lishi mumkin. Markaziy Osiyoda o‘nlab ilmiy ishlar qurg‘oqchil zonasida 1980–2020 yillarda yog‘ingarchilikning sezilarli o‘zgarishi kuzatilmasligini, ammo yuqori tog‘ mintaqalarda (Chirchiq, Chatqal, etc.) ba’zi oshishlar yoki kamayishlar bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan. Masalan, Yevropaning iqlim modeli ma’lumotlariga ko‘ra, qish mavsumi Chirchiq havzasida yog‘ingarchilik normasi taxminan o‘zgarmayapti, biroq yozda qisman kamayishi mumkin (bunda bahorda qorishtaki oqim ozayishi ehtimoli katta). Havo haroratining ortishi, ayniqsa barqaror issiq kunlarning soni ko‘payishi, bug‘lanishni tezlashtirib, daryo oqimidagi suv miqdoriga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.


ISSN 3030-3907

Ikkinchi omil – antropogen ta’sirlar. 1970-yildan boshlab Chirchiq daryosi to‘g‘onlari (Charvoq, Xo‘jakent, Gazalkent) eksponensial ravishda qurildi. Masalan, Charvoq suv ombori quvvati 2.2 milliard m³ bo‘lib, bahor suvini to‘playdi va keyin sektorlarga bo‘linadi. Bunday suv omborlar bahor faslidagi kuchli oqim cho‘qqilarini sezilarli kamaytiradi va yozda oqimni barqarorlashtiradi. Hozirgi kunda Chirchiq suvining aksari qismi Toshkent viloyatining 100 ming gektardan ortiq sug‘oriladigan yerlarini ta’minlaydi (Chirchiq–Bo‘zsuv tizimi orqali) [4]. Antropogen salbiy ta’sirga sanitar chiqindilar, changlar, kimyoviy chiqindilar ham kiradi, biroq ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqim hajmiga ta’siri unchalik katta emas.

Umumlashtirib aytganda, Chirchiq daryosidagi kuzatilgan o‘zgarishlar iqlim va odam faoliyatining murakkab kombinatsiyasi natijasidir. Tabiiy omillarga asoslangan monitoring va tadqiqotlar Chirchiq havzasida iqlim o‘zgarishini kuzatib borishga mo‘ljallangan. Antropogen omillardan esa to‘g‘on va kanallarning qurilishi eng katta ahamiyatga ega. Boshqa tadqiqotlar bo‘yicha, Markaziy Osiyo tog‘li havzalarida suv omborlarining qurilishi bahor-yoz perioddagi oqimning o‘rtacha hajmini 20–30% ga kamaytirishi mumkinligi aniqlangan.

**Xulosa.**O‘rganilgan uzluksiz ma’lumotlar asosida Chirchiq daryosidagi G‘azalkent gidropostidagi uzoq muddatli oqim o‘zgarishlari chuqur tahlil qilindi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, uzoq yillar davomida o‘rtacha oqim katta darajada barqaror, ammo yuqori o‘zgaruvchanlikka ega. Suvli va qurg‘oqchil yillar aniqlandi, ammo umumiy trend zaif kamayishga ishora qildi. Asosiy tavsiyalar quyidagicha:

*Suv taqsimoti va sug‘orishda samaradorlik:* mavjud suv omborlari va kanallarni modernizatsiya qilish, kerak bo‘lsa qo‘shimcha suv omborlarini qurish orqali bahor-yoz suvini saqlash va oqimni boshqarish kerak. E’tibor sug‘orish infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilishi zarur [3]. Zamonaviy tomchilatib sug‘orish texnologiyalari joriy etish va suv iste’molini qayta ishlash (aylanma suv) tizimlarini kengaytirish suv sarfini sezilarli kamaytirishi mumkin.

*Iqlimga mos boshqaruv:* Kelgusi o‘n yilliklar uchun iqlim modeli natijalariga tayangan holda, suv omborlari rejimini dinamik yo‘naltirish zarur. Muzliklarning erishi va yomg‘ir-muzobiltagi o‘zgarishlar kuzatilgan holda bahorda suvni ko‘proq yig‘ish, yozda bo‘lsa muntazam oqim bilan ta’minlashni yo‘lga qo‘yish lozim. Bundan tashqari, suv omborlari qanoti va nasos stansiyalarining samaradorligi muntazam tekshirib turilishi kerak.

*Ekosistemalarni muhofaza qilish:* Suv resurslari yetishmovchiligini qo‘llash, daryoning tabiiy ifloslanishi va ekologik muvozanatini saqlash bo‘yicha choralarga e’tibor qaratilishi zarur. Masalan, oqimning ko‘payish-periodlarida tabiiy suv o‘tishlar saqlanishi kerak. Suv sifati monitoringini yaxshilash, qishloq xo‘jaligi chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha yangi qoidalar joriy etish lozim.


ISSN 3030-3907

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali Chirchiq daryosi suv resurslarini sog‘lom va barqaror boshqarish ta’minlanishi, aholi va qishloq xo‘jaligi obodligi yaxshilanishi kutiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chub, V.L. va boshq. (2000). *O‘zbekiston iqlimining o‘zgarishi va uning tabiiy resurslarga ta’siri*. Toshkent.
2. Khujanazarov, T., Kholmatjanov, B., va boshq. (2014). “Long term analysis of the historic climate in Uzbekistan”, *J. of Hydrology and Water Resources*, 34, 113-125.
3. Usmanov, S., Mitani, Y., Kusuda, T. (2016). “An Integrated Hydrological Model for Water Balance Estimation in the Chirchik River Basin, Northern Uzbekistan”, *Comput. Water, Energy and Environ. Eng*, 5(3):87-97.
